Q. Yo‘ldoshev, S. Qambarova, D. To‘xliyeva, N. Yusufjonova, O. Olimjonov

Adabiyot
5-sinf
I qism

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

TASDIQLANGAN
PLAGIATGA QARSHI!
TASDIQLANGAN

novda
edutainment

MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI

Toshkent – 2024

UO‘K 821.09:373.3.016(075.3)
KBK 83.3+74.202ya72
A 29

Adabiyot 5-sinf (1-qism) [Matn] : darslik / Q.B. Yo‘ldoshev, O.O. Olimjonov, N.N. Yusufjonova, S.I. Qambarova, D.B. To‘xliyeva; muharrir X.A. Ibrohimov. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 100 b.

Mas’ul muharrir:

Qunduzoy Husanboyeva – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Mahfuza To‘ychiyeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Shahodat Abdullayeva – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 114-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi.

Gulshan Rahimova – Xorazm viloyati Urganch shahridagi 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Nasiba Nig‘matxo‘jayeva – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 90-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Xosiyat Matyakubova – Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi 48-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi, Xalq ta’limi fidoyisi.

ISBN 978-9943-07-951-9

© “Novda Edutainment”, 2024



Adabiyot olamiga sayohat

Assalomu alaykum, aziz o‘quvchi! Keling, tanishib olaylik. Mening ismim – Oqilbek, qo‘lingizdagi kitobman. Men bilan do‘stlashganlar aqlli va ko‘ngli toza bo‘ladi. Shu vaqtgacha bunaqasini uchratmagansiz-a? Chunki siz endigina boshlang‘ich sinfni tamomladingiz.

5-sinfdan boshlab “Adabiyot” degan alohida dunyo bilan tanishasiz. Men bu yo‘lda sizga hamroh bo‘laman.

Olam juda keng va xilma-xil ajoyibotlarga to‘la! Men bilan do‘stlashganingizdan keyin bu haqda ko‘proq bilib olasiz. Ana shunday ajoyibotlardan biri badiiy adabiyotdir.

Yaxshi bilasiz, yolg‘on gapirish – juda katta ayb. Buni muallimingiz ham, ota-onangiz ham aytgan, barcha yaxshi kitoblarda shunday yozilgan. Lekin “Adabiyot” olamida bunday gap hamisha ham ayb sanalavermaydi. Misol uchun, quyidagi matnni diqqat bilan o‘qing va o‘zingiz baho bering.



Oynur ismli qiz Boybek degan bola bilan hovlida gaplashib o‘tirardi. Lekin ular boshqalar singari shunchaki gurunglashmasdan, bir-biriga g‘alati uydirmalarni aytib berardi.

– Bobomning bo‘ylari osmonga tegay-tegay deb turar ekan, – dedi Boybek.

– Mabodo bobongning yelkalariga qandaydir etak tegib turganday bo‘lmas ekanmi? – so‘radi Oynur.

– Ha, shunday ekan.

– Shu mening bobomning etaklari bo‘lgan.

– Unda sening bobong devlardan ham bahaybat ekanlar-da?

– Bo‘lmasam-chi!

Shu vaqt ularning yoniga Oybek kelib o‘tirdi. Bolalarning gaplarini jimgina tinglab, oxirida:

– Rosa yolg‘onchi ekansizlar-ku, uyalmaganlaringni qaranglar! – dedi.

– Nega uyalarkanmiz, biz hech kimni aldayotganimiz yo‘q?! Shunchaki ertak qahramonlarini eslab, turli voqealarni to‘qiyapmiz.

– Ertak emish. Topgan ishini-chi!

– Ha, nima bo‘pti? Ertak to‘qish oson deb o‘ylaysanmi?

– Oson bo‘lmay, nima?

– Oson bo‘lsa, biror nima to‘qi-chi, – dedi Boybek.

Oybek ancha vaqt o‘ylanib qoldi. Xayoliga hech narsa kelavermagach, xijolat bo‘lib dedi:

– Sizlar shuncha yolg‘on to‘qiganlaring bilan hech qanday foydasi yo‘q. Mana, men bugun gapirgan yolg‘onimdan foyda ko‘rdim.

– Qanaqa foyda ko‘rding? Yolg‘onning ham foydasi bo‘ladimi? – so‘radi Boybek shoshapisha.

– Bo‘lmasa-chi! Kechqurun biznikiga mehmon keladigan ekan. Onam bozordan keltirgan qulupnaylarining bir likopchasini olib qo‘ydi-da, bizga tegmaslikni tayinladi.

Uyda ukam Asilbek ikkalamiz edik. Tushga yaqin ukam uxlab qoldi. Mening esa likopchadagi qulupnaydan yegim kelaverdi. Axiyri yarmini yedim-da, mendan ko‘rishmasin deb Asilbekning lablari atrofiga qulupnay surtib qo‘ydim. Onam dasturxon tuzayotganida qulupnay kamayib qolganini ko‘rib: “Kim tegdi?” deb so‘radi.

“Asilbek yegan bo‘lsa kerak, men tegmadim”, dedim. Onam ukamning labidagi qulupnay dog‘ini ko‘rib, rosa urishdi. Mehmonlar oldiga ozgina meva qo‘yib bo‘lmaydi deb qulupnaylarning qolganini ham menga berdi. Yolg‘onning foydasi shu-da!

Shu vaqt ularning oldiga yig‘lagani ko‘zlaridan sezilib turgan Asilbek kelib o‘tirdi. Oybek tezgina o‘rnidan turib, bolalar bilan xayrlashmay ham ketib qoldi.

– Nega xafasan? – so‘radi Boybek.

– Mehmonlarga atalgan qulupnayni yeb qo‘yibsan deb onam rosa adabimni berdilar. Aslida men tegmagandim. Balki, Oybek akam yegandir?..

– E, shunaqami? Qo‘y, xafa bo‘lma. Mana, mening olmamni yeya qol.

– O‘zingiz yemaysizmi?

– Men ertalabdan beri to‘rt xalta olma yedim, – javob berdi Boybek.

– Mana bu qandlardan ham ola qol, – gapga qo‘shildi Oynur.

– Nega? O‘zingiz yedingizmi?

– Ehe! Bu – bugun yegan qandlarimning bir yuz o‘ninchisi, – javob berdi Oynur.

Xo‘sh, bu o‘rinda kim haqiqiy yolg‘onchi ekanini aytinglar-chi, bolalar? Oynur bilan Boybek yolg‘onchimi yoki Oybek? Boybek va Oynurni biroz xayolparast, to‘qimachi deyish mumkindir. Unday bo‘lsa, yolg‘onning xayoliy to‘qimadan qanday farqi bor?

Buni aniqlash uchun xattaxta (doska)da ikki ustun qilib yozilgan so‘zlarga jiddiyroq e’tibor berish kerak:



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 5 21/08/24 14:59

Boybek bilan Oynur aslida bo‘lmagan gaplarni suhbatlari qiziqarli chiqishi uchun, Oybek esa foyda ko‘rish (birovni aldash) uchun to‘qib chiqardi. Shuning uchun ham Oybekning gapi yolg‘onchilik, Boybek bilan Oynurning gaplari esa xayoliy to‘qima edi. Xayolot olami boshqa odamlarga ziyon keltirmaydi, yolg‘onning esa zarari tegadi. Ana endi diqqat bilan qarab, xattaxtadagi ikki ustun so‘zlardan qaysilari badiiy adabiyotga aloqadorligini bilib olishingiz mumkin bo‘ladi.

Badiiy adabiyot namunalari kitoblarda jamlanadi. Ular esa o‘z sirlarini hammaga ham ochavermaydi. Kitobni suygan, qadriga yetgan bolalargagina bilimlar olami kaliti nasib etadi. Qani, tayyormisiz? Bo‘lmasa, so‘z dunyosi bo‘ylab sayohatga ketdik!



Keling, suhbatlashamiz

1. Oqilbekning aytganlaridan qanday xulosaga keldingiz? Izohlang.
2. Yolg‘onning xayoliy to‘qimadan farqini anglay oldingizmi? Tushunganlaringizni asoslashga harakat qiling.
3. Mashhur fizik olim Albert Eynshteynning quyidagi gaplariga diqqat qiling: *“Tasavvur bilimdan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega. Bilim biz hozir biladigan va tushunadigan narsalargagina tayanadi. Tasavvur esa butun olamni va biz qachonlardir tushunadigan, bilib oladigan narsalarni ham qamraydi”.* Ushbu fikrdan kelib chiqib, tasavvur va bilimning inson hayotidagi o‘rni haqida fikr bildiring. Adabiyot uchun qaysi biri muhimroq ekaniga oydinlik kiriting.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 6 21/08/24 14:59



Uyga vazifa

Quyidagilarni daftaringizda to‘ldiring. O‘zingizga yoqqan ertak haqida yozing.

Asar qahramonlari

Tushunarsiz so‘zlar lug‘ati

Eng hayajonli lavhalar


Taassurotlar

Qahramonga tavsiya

Asardan olingan hayotiy saboq

Asar qahramonlaridan biriga maktub

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 7 21/08/24 14:59



Tanishing: ABDULLA ORIPOV

Xalqimizning sevimli shoiri Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyatida dunyoga kelgan. O‘zi haqida shoir bunday yozadi:

“Men tug‘ilib o‘sgan, bolaligim o‘tgan joylar Qarshi (qadimgi Nasaf) shahridan besh-o‘n chaqirim shimolroq tomondagi Qo‘ng‘irtov etaklaridir.

…Bahor kelganda havoni o‘t-o‘lanning yoqimli xushbo‘y hidi qoplar, sharros yomg‘ir quyganda biz tog‘ cho‘qqisi unguridagi kichik-kichik g‘orlarga bekinib olardik.

Ungur – tog‘ yonbag‘ridagi o‘yiq joy.

O‘sha yuksaklikdan shimol tarafdagi yam-yashil, bepoyon kengliklarni tomosha qilar edim, ko‘ksimni to‘ldirib nafas olardim. Ayniqsa, bu joylarda janub kechalari, yulduzli osmon nihoyatda go‘zal bo‘lar edi. Tim qora osmonda qo‘l cho‘zsang yetgudek ulkan-ulkan novvotrang yulduzlar charaqlab turadi. Hayotimda bunday go‘zal manzaralarni keyin uchrata olmadim...

She’rlarim avval tuman, viloyat gazetalarida chop etilgan bo‘lsa-da, birinchi marta respublika gazetasida “Qushcha” degan she’rim bosilib chiqqan… Bu orada qanchadan qancha she’rlarim, to‘plamlarim chop etildi. Biroq ilk she’rim bosilib chiqqan o‘sha daqiqalar, uning quvonchi sira-sira esimdan chiqmaydi”.

Mana o‘sha she’r bilan tanishing:

Qushcha

Goh butoqqa, goh gulga qo‘nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha?

Kel, yashaylik hamisha birga,
Bizda bahor, gullar – barchasi.
Bilsang, men ham chaman o‘lkamning
Sho‘x va quvnoq, shod o‘g‘ilchasi.

Abdulla Oripov O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri kabi yuksak unvonlarga sazovor bo‘lgan. U O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matnining muallifi.

Shoir 2016-yil 5-noyabr kuni vafot etgan.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 8 21/08/24 14:59

O‘ylab ko‘ring

Respublika gazetasida ilk she’ri bosilib chiqqan quvonchli daqiqalar nima uchun shoirning yodida umrbod qoldi deb o‘ylaysiz?

Mutolaadan oldin...

Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning quyidagi fikrlariga diqqat qiling:

“Biz, turkistonliklar o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi arablar Arabistonlarini, qumlik, issig‘ cho‘llarini, eskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z Vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi”.

Qadrli o‘quvchi, nima uchun ota-bobolarimiz yurt tuprog‘ini ko‘zlariga surgan?

Eskimu (eskimos) – Osiyoning shimoli-sharqi, Shimoliy Amerika va Grenlandiyada yashovchi xalq.

Hijrat – o‘z yurtini tark etib, boshqa joyga ketish, ko‘chish.

Zavqli mutolaa


Men nechun sevaman O‘zbekistonni?

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo?
Nechun Vatan deya yer-u osmonni
Muqaddas atayman, atayman tanho?

Aslida dunyoda tanho nima bor?
Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Bog‘larin jannat deb ko‘z-ko‘z etaman,
Nechun ardoqlarkan tuprog‘ini men
O‘paman: “Tuprog‘ing bebaho, Vatan…”

Aslida tuproqni odil tabiat
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.
Nechun bu tuproq deb yig‘ladi Furqat?
O, Qashqar tuprog‘i, qashshoqmiding sen?!



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 9 21/08/24 14:59

Xo‘sh, nechun sevasan O‘zbekistonni?
Sababini aytgin, desalar menga,
Shoirona, go‘zal so‘zlardan oldin
Men ta’zim qilaman ona xalqimga.

Xalqim, tarix hukmi seni agarda
Mangu muzliklarga eltgan bo‘lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo‘lsayding,
Mehrim bermasmidim o‘sha muzlarga?

Vatanlar,
Vatanlar,
Mayli, gullasin,
Bog‘ unsin mangulik muzda ham, ammo,
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo!

To‘tiyo – oldingi paytlarda ko‘z og‘rig‘iga qarshi yoki ko‘zni ravshan qilish uchun surtiladigan dori. She’rda juda aziz, muqaddas yoki noyob narsani ko‘zga surish ma’nosida qo‘llanmoqda.

Qashqar – Xitoyning g‘arbiy qismidagi shahar. O‘zbek shoiri Furqat sayohat bilan borib, o‘sha yerda oila qurib, qolib ketgan. Furqat doimo Vataniga qaytish umidi bilan yashagan.

Furqat – asl ismi Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li. 1859–1909-yillarda yashab ijod etgan taraqqiyparvar shoir, publitsist.

Keling, suhbatlashamiz

1. Sizga Vataningizning suratini chizib bering deyishsa, dastlab xayolingizga nimalar keladi? Nimalarni qog‘ozga tushirar edingiz? Tasvirda qanday ranglardan foydalanardingiz? Nima uchun?
2. Shoirning Vatan, yer, osmon kabi tushunchalarni muqaddas va yagona deb hisoblashi sababi nimada?
3. Sizningcha, shoir Vatanni faqat paxtasi, quyoshi, bog‘-u rog‘lari uchun yaxshi ko‘radimi yoki buning boshqa sabablari ham bormi? Misol sifatida qanday sabablarni ayta olasiz?
4. Umr bo‘yi ona yurt sog‘inchi bilan yashagan ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?
5. Shoirdan O‘zbekistonni nima uchun sevishini so‘rashganda u qanday javob berdi? Nega u javob berishdan oldin: *“Men ta’zim qilaman ona xalqimga”,* demoqda?
6. So‘nggi banddagi *“Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo!”* xitobining mazmuni haqida mulohaza yuriting. O‘ylab ko‘ring, yurt kimlarni va nima uchun kechirmaydi?

Topshiriq

Sizga “Nima uchun O‘zbekistonni sevasiz?” deyishsa, qanday javob qaytarar edingiz? Javobingizni yozing.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 10 21/08/24 14:59

Tavsiya

She’r asosida kuylangan qo‘shiq (ota-ona, farzand ijrosi)ni ustozlaringiz yoki ota-onangiz yordamida topib, tinglab ko‘ring. Siz ham oila a’zolaringiz bilan rollarga bo‘linib, ijro etishga harakat qiling.
Nomi: “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”
Ijrochilar: Nuriddin Haydarov, Kumush Razzoqova, Doston Ubaydullayev.

Uyga vazifa. Loyiha ishi

1. Guruhlarga bo‘lining. Guruhdoshlaringiz bilan O‘zbekistonning so‘lim tabiati, qadimiy shaharlari, odamlari va betakror madaniyati aks etgan suratlardan to‘plang (10–15 tacha).
2. Rasmlar orasida o‘zingiz olgan suratlar ham bo‘lsin.
3. Har bir rasm ostiga izoh yozing.
4. To‘plagan suratlaringiz asosida **“Tuprog‘ing bebaho, Vatan…”** mavzusida kichik albom tayyorlang.
5. Albom tayyor bo‘lgach, sinfda taqdimot o‘tkazing.

Miltiraydi mitti yulduz

Ko‘k gumbazin bir chetida
Bo‘shliqlarga urib bosh,
Miltiraydi mitti yulduz,
Tanholikdan to‘kib yosh.
Atrofida na bir yulduz,
Na bulut bor, na tuman.
Yulduzlarga termilib u
Titrab turar shamsimon.
Eh, bechora, yashash nechun,
Yashnamasang, kulmasang?
O‘z to‘dangdan nega uchding,
Qaytish yo‘lin bilmasang?!



Ko‘k gumbazi – yer ustida gumbaz shaklida ko‘rinib turadigan havo qatlami; osmon.

Keling, suhbatlashamiz

1. Mitti yulduz obrazida shoir kimlarni tasvirlagan bo‘lishi mumkin?
2. Nega qahramonning “atrofida na bir yulduz, na bulut bor, na tuman”? Uning yolg‘izligi boisi nimada?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 11 21/08/24 14:59

3. Yulduzchaning tushkunligi ifodalangan o‘rinlarga diqqat qiling. Uning bu holga tushishi sabablari nimada?

Burgut

Yosh burgut uchmoqda ko‘kda shiddatkor,
Kumush bulutlarning to‘zg‘itib parin.
Uchmoqda, qalbida mag‘rur ishonch bor,
Qaqshagan qoyalar, cho‘qqilar sari.
Uchmoqda! Qayerga? Cho‘qqiga! Nechun?
Burgutning shiddatin uyg‘otgan nima?
Bo‘ronli dargohda ne kutar uni?
Qudratli qanotin qo‘zg‘atgan nima?
O‘ynoqi shamollar ila basma-bas,
Ana, qo‘ndi burgut eng yuksak joyga!
Cho‘qqi uzra mag‘rur turdi-yu birpas,
Yana bo‘ron misol qo‘zg‘aldi. Qayga?..
Axir ne bo‘lardi bersang, tabiat,
Shu buyuk shiddatga yarasha maqsad!



Keling, suhbatlashamiz

1. Siz burgutni hayotdagi qanday odamlarga o‘xshatgan bo‘lardingiz? Nima uchun?
2. She’rdagi “Burgutning shiddatin uyg‘otgan nima?”, “Qudratli qanotin qo‘zg‘atgan nima?” savollariga javob berishga urining.
3. She’rning so‘nggi ikki misrasiga diqqat qiling. Shoirning ushbu xulosasiga qo‘shilasizmi? Nima uchun?
4. She’rdagi o‘xshatishlarni (masalan, kumush bulut) aniqlang va nega shunday ifodalanganiga izoh bering.

Uyga vazifa


“Miltiraydi mitti yulduz” she’ridagi mitti yulduzchaga qanday yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan bo‘lardingiz? Nima uchun? Fikrlaringizni asoslagan holda matn tuzing.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 12 21/08/24 14:59

Tanishing: ABDULLA ORIPOV

Tilla baliqcha

Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni,
Shu loyqa hovuzcha tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o‘tadi kuni,
Xor-u xas, xazonlar ustin yopdilar.
Dunyoda ko‘rgani shu tor hovuzcha
Va gavjum tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni…



Ko‘lmak – chuqur joyga to‘planib qolgan yomg‘ir suvi, halqob suv.

Keling, suhbatlashamiz

1. Siz o‘qigan ertaklar yoki tomosha qilgan multfilmlaringizdagi tilla baliqcha bilan she’rdagi tilla baliqchaning qanday farqli tomonlari bor?
2. She’rning oxirgi ikki misrasini tushuntirib bering. Muallifga “alam qilgan” sabablarni izohlashga urining.
3. Sizningcha, baliqchani hovuzga otganlar kimlar?
4. Siz muallifning o‘rnida bo‘lganingizda she’rga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz? Nima uchun?

Tadqiq qiling

“Miltiraydi mitti yulduz”, “Burgut”, “Tilla baliqcha” she’rlari yuzasidan topshiriqlar:

1. O‘ylab ko‘ring-chi, nima uchun uch she’r qahramoni ham mitti, kichik va yosh? Ularga o‘z o‘rnini topishi uchun nima yetishmayapti? Javoblaringizni jadval shaklida daftaringizga yozing.

Mitti yulduzga	Yosh burgutga	Tilla baliqchaga
* * *	* * *	* * *

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 13 21/08/24 14:59

2. Uchala she’rdagi obrazlar hayotda kimlar yoki nimalarning ramzi bo‘lishi mumkin? Nuqtalar o‘rniga yozing. Javoblaringizni og‘zaki izohlashga tayyorlaning.

   Menimcha: *yulduz – …, bulut – …, tuman – …, hovuz – …, gavjum tollar – …, xas-xazon – …, burgut – …, cho‘qqi – …, tilla baliqcha – …*

3. “Miltiraydi mitti yulduz” va “Burgut” she’rlarini qiyoslang. Ularni birlashtirib turgan tayanch so‘zlarni aniqlang. Masalan, “ko‘k” so‘zi ikki she’rda ham bor va ikkisida ham muhim ahamiyatga ega.

Uyga vazifa

Ijodiy ish.

Faraz qiling, yuqorida o‘qilgan uchala she’r qahramonlarining biri bilan suhbat qurish imkoniyati bor.

Siz unga qanday savol va maslahatlar bergan bo‘lar edingiz?

Savollar tuzing va javoblarni qahramon nomidan yozing. Uning ham sizga beradigan savollari, maslahatlari bo‘lishi mumkin. Ularni ham yozing. Ijodiy matnga mos sarlavha qo‘ying.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 14 21/08/24 14:59



Tanishing: ERTAKLAR

Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy turlaridan biri ertakdir. Xayoliy va hayotiy voqealar asosiga qurilgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega og‘zaki hikoyalar ***ertak*** deyiladi.

Ertak turli hududlarda *matal*, *ushuk*, *varsaki*, *cho‘pchak* tarzida ham nomlanadi. Ertaklarda xalqning orzu-umidlari, intilishlari, urf-odat va an’analari aks etadi.

Xalq ertaklari quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Ertaklar xalq og‘zaki ijodining epik turiga mansub.
2. Ertaklar asosan nasrda yaratiladi. Faqat ayrim asarlardagina (“Yoriltosh”, “Tohir va Zuhra” va hk.) qo‘shiqni eslatuvchi she’riy parchalar uchraydi.
3. “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan” boshlamasi va “murod-maqsadiga yetibdi” yakunlamasi ertaklarning an’anaviy belgisi hisoblanadi.
4. Xayoliy-fantastik tasvir ertaklar syujetida qo‘llanadigan ustuvor usuldir.
5. Ertak kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi.



Omonulla Madayev

Folklorshunos olim Omonulla Madayev bunday yozadi: *“Ertaklarda xalq tiliga mansub so‘zlardan o‘rinli foydalaniladi. Aytuvchi o‘z hikoyasini sodda gaplardan tuzilgan aniq fikrlar vositasida davom ettiradi. Bu janrga mansub asarlarda, albatta, qizlar o‘n to‘rt kunlik oydan go‘zal, yigitlar mard, qilichlar keskir, dasturxonlar ochiluvchan, xumlar qaynama xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ertaklarda juda boy va turli-tuman o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘alar majmuasiga duch kelamiz. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodi tarkibidagi bu asarlar haqiqiy ma’noda qadriyatlar namunasi, madaniy merosimizning noyob gavhar-u injulari darajasida e’zozlanadi”.*

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 15 21/08/24 14:59

O‘ylab ko‘ring

Ertak eshitgach yoki o‘qigach, o‘zingizni qanday his qilasiz?
Qaysi ertaklar bilan tanishganingizda sizda kuch-g‘ayrat, shijoat paydo bo‘lgan?
Sababini izohlang.

Zavqli mutolaa

Uch og‘a-ini botirlar

(ertak)

I qism

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim-qadim zamonda bir kishi bo‘lgan ekan. Boy ham, kambag‘al ham emas ekan. Uning uchta o‘g‘li bor ekan, uchovi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekan. To‘ng‘ichi – yigirma bir, o‘rtanchasi – o‘n sakkiz, kenjasi – o‘n olti yoshda ekan. Bir kuni otasi ularni oldiga chaqirib, har birining peshonasini silab:

– O‘g‘illarim, men boy emasman, mendan qoladigan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, mendan ortiq narsani umid qilib o‘tirmanglar, o‘zimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar deb sizlarni o‘qitdim. Yaxshi ism qo‘ydim. To‘y qildim. Voyaga yetkazdim. Buning ustiga, sizlarni yana uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchidan, sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim – quvvatli bo‘ldingiz. Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtirdim – qurol ishlatishga usta bo‘ldingiz. Uchinchidan, qo‘rqitmay o‘stirdim – qo‘rqoq bo‘lmay, botir bo‘ldingiz. Yana uchta narsani aytaman,

Maishat – kundalik tirikchilik, yashash.

Yarog‘ – qurol.



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 16 21/08/24 14:59

qulog‘ingizga quyib olib, esingizdan chiqarmanglar. To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz. Bundan boshqasini o‘zingiz biling. Qora toy, saman toy va ko‘k toyni asboblari bilan tayyorlab qo‘ydim. Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to‘lg‘izdim. Baxtingiz yo‘lda, topmoq uchun dunyo kezgani chiqing. Dunyoni tanimay, dunyo kishisi bo‘lmaysiz. Baxt qushini ushlamoq uchun baxt oviga chiqing. Xayr, o‘g‘illarim, – deb turib ketdi.

O‘g‘illari suyunib, safar tayyorgarligini ko‘rib, erta tongda otlanib yo‘lga tushdilar. Uch og‘a-ini kuni bo‘yi yo‘l yurib, juda uzoq ketdilar. Namozshom vaqti bir joyga yetdilar. Kechasi yo‘l yurmoqni munosib ko‘rmay, shu joyda yotib qolmoqni ma’qul topib, otlaridan tushib, istirohat qilib, ovqat yeb, yotish oldidan o‘zaro bunday maslahatga kelishdi: “Bu joy to‘qayzor ekan, biz uzoq yo‘l bosib kelganmiz, charchab uxlab qolsak, yaxshi bo‘lmas, kechani uch qismga bo‘lib, har bir qismida birimiz navbat bilan soqchi bo‘lib uyg‘oq turaylik”.

To‘ng‘ich aka birinchi navbatni oldi. Ikkala ukasi uyquga ketdi. Chiroq lipillab yonib turar edi. Aka qo‘lidagi yarog‘ini o‘ynab, atrofdagi daraxtlarni tomosha qilib, bir qancha vaqt o‘tirdi. Jimjit. Hech narsa shit etmas edi. Hamma narsa uyquda. Kecha oydin edi. Bir vaqt to‘qay ichidan bir sharpa ko‘rindi. To‘ng‘ich botir hech qo‘rqmadi, yarog‘ini yalang‘ochlab, tayyor bo‘lib turdi.

Bular tushgan to‘qayning narigi tomonida bir sherning makoni bor edi. Bulardan boshqa hech kim bu joyga tushmas, hatto boshqa hayvonlar ham bu joyga kelgani qo‘rqar edi. Sher bularning hidini bilib, yemoq uchun asta-sekin uyasidan qo‘zg‘alib chiqib keldi. To‘ng‘ich botir sherni o‘ldirishiga ishonsa ham, “Ukalarim bezovta bo‘lmasin” deb, to‘qayning bir tomoniga qarab qochdi. Sher quvdi. To‘ng‘ich botir panaga yashirinib, sherning orqa tomoniga qilich bilan urib, uni yaraladi. Sher botirga tashlanmoqchi bo‘ldi. Botir chap berdi. Sherning oyog‘iga qilich urdi. Sher bor kuchini to‘plab, botirga tashlandi. Botir yana



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 17 21/08/24 14:59

chap berib, boshiga qilich solgach, sher yiqildi. Yana bir zarba bilan sherning hayotiga nuqta qo‘ydi. Sherning ustiga minib, terisidan bir tasma shilib oldi. Ichidan beliga mahkam bog‘lab, hech narsa ko‘rmaganday, yana ukalarining yoniga kelib o‘tirdi. Soqchilik navbati o‘rtancha botirga keldi. Hech qanday voqea ro‘y bermadi. Uchinchi botir turdi, tong otguncha soqchilik qildi, hech narsa ko‘rmadi. Birinchi kecha shu bilan tugadi.

Erta bilan yana yo‘lga tushdilar. Kechgacha yo‘l yurdilar, yo‘l yursalar ham mo‘l yurdilar, bir tog‘ning etagiga tushdilar, tog‘ning chap tomoni keng qo‘riq edi. O‘rtada bittagina baqaterak bor edi. Baqaterakning tagida bir buloq, uning oldida supa, tog‘ning tagida g‘or bo‘lib, unda ilonlar podshohi – ajdar sulton yolg‘iz yashar edi.

Botirlar bugun shu yerga tushdilar. Otlarini boylab, xashak solib, haligi supaga o‘tirib, istirohat qildilar. Ovqatlarini yeb bo‘lgach, uxlash oldidan avvalgiday navbat bilan poyloqchilik qilishdi. Birinchi navbat to‘ng‘ich botirga berildi, undan keyin o‘rtancha botirga gal keldi. Buning navbatida kecha oydin, jimjit edi. Bir vaqt haligi g‘ordan vahimali ovoz eshitildi. O‘rtancha botir qo‘rqmadi, jim turdi. Faqat akasi bilan ukasining bezovta bo‘lishidan tashvishlanar edi.

Qo‘riq – ekin ekishga yaroqli yer.

Istirohat qilmoq – dam olmoq.

Xari – imorat to‘sinlari ostidan ko‘ndalangiga qo‘yiladigan uzun, yo‘g‘on, asosiy yog‘och.

Ko‘p vaqt o‘tmadi. G‘orning ichidan boshi xumday, uzunligi xariday ajdar o‘rmalab, bular sari kela boshladi. O‘rtancha botir supadan tushib, qo‘riqning narigi tomoniga qarab qochdi. Odam borini bilib chiqqan ajdar o‘rtancha botirga qarab o‘rmaladi. Botir ajdar hamlasiga chap berdi va uning dumiga qilich solib, yaraladi. Ajdar sulton aylanib qoldi. O‘rtancha botir yana poylab turib, ustalik bilan uning beliga qilich soldi, ajdarning ahvoli og‘irlashib, hansirab qoldi. Botir so‘nggi zarba bilan ishini tugatdi. Ajdar terisidan bir tasma kesib, ichidan beliga bog‘lab oldi. Hech narsa ko‘rmaganday, supaga borib o‘tirdi. Uchinchi navbat kenja botirga keldi. Hech nima sodir bo‘lmadi.



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 18 21/08/24 14:59

Tong otdi, uyg‘ondilar. Yana otlanib, yo‘lga tushdilar. Tog‘lar, cho‘llar, dasht-dalalardan o‘tib, kun botganda bir tepalikka yetdilar. To‘xtab, kechani shu yerda o‘tkazmoqchi bo‘lib, otlardan tushib, tepalikda istirohat qilib o‘tirdilar. Ovqat qilib yeb, yotarda yana soqchilik navbati to‘ng‘ich botirga, undan so‘ng o‘rtancha botirga, eng keyin kenja botirga yetdi. Botir tepalikda akalarini qo‘riqlab o‘tirar edi, shamol esib, chiroqni o‘chirib qo‘ydi. Akalarining qorong‘ida uxlashi unga og‘ir botdi. Chiroq axtarib, eng tepa bir joyga chiqdi, har tomonga ko‘z tashlab, uzoq kunbotish tomonda g‘ira-shira uchqun ko‘rib qoldi. Chiroqni yondirib kelish uchun uchqun chiqqan tomonga qarab ot solib ketdi. Ancha yo‘l yurib, cho‘lning o‘rtasidagi bir qo‘rg‘onga borib yetdi. Otdan tushib, qo‘rg‘onning tagiga keldi. Yetti paxsa devor bilan o‘ralgan yolg‘iz qo‘rg‘onning bir tomonida eshik o‘rni bor edi. Tashqariga otni bog‘lab, sekin ichkari kirdi. Qo‘rg‘onning ichkarisida, bir chekkada o‘n bir yog‘ochli qora uy bo‘lib, darchalari berk, eshiklari ochiq edi. Oyoq uchi bilan sassiz borib, darchaning yorig‘idan mo‘ralab qaradi. Kunchiqar tomonda katta o‘choq, qozonda sho‘rva qaynab turibdi. Butun qorayib bitgan uyda yigirma chog‘li odam o‘tiribdi. Devorlarda yarog‘-aslahalar, o‘tirganlarning peshonalari qaqqaygan, ko‘zlari chaqchaygan, ko‘ngillari qora, ko‘zlari ola, o‘ylaganlari yomonlik ekan.

Paxsa – loy devor yoki uning qavati. Oddiy imorat qurishda bir paxsaning balandligi 60 cm dan 1 m gacha, qalinligi 40–60 cm bo‘ladi. Qadimda ba’zi shaharlarning devorlari, qal’a qo‘rg‘onlari paxsadan ishlangan.

Alhosil, bular – talonchilar to‘dasi, bu joy – ularning to‘planadigan makoni ekani ma’lum bo‘ldi. Kenja botir o‘ziga o‘zi aytdi: “Bularni tashlab ketabersam, yigitlikdan bo‘lmaydi, qanday bo‘lsa ham, bir yo‘l bilan bularni batamom qirib yo‘qotmoq lozim. Buning uchun bir hiyla ishlatib, bularga qo‘shilib olay, paytini topib, ishimni bajaray”. Orqasiga bir necha qadam yurib, so‘ngra chopib keldi.

Oyoq ovozini eshitib, o‘g‘rilar yarog‘larini qo‘llariga olib, tayyorlana boshladilar. Shu orada kenja botir eshikdan ichkariga kirib keldi. Salom berib, hamma bilan so‘rashib, tizza bukib o‘tirdi. O‘g‘riboshiga qarab:

– Taqsir, kamina qulingiz falon shahardan bo‘laman, yoshligimdan beri hech ustod ko‘rmay, o‘zimcha mayda o‘g‘rilik qilib yurar edim. Ko‘p tajriba ko‘rganman. Yakka o‘zim durustroq bir ish qilmoqqa kuchim bo‘lmaganidan bir to‘pga qo‘shilmoqni orzu qilib yurar edim, janoblaringizni bunda deb eshitdim, kecha-kunduz yo‘l yurib, oxirida xizmatingizga yetib keldim. Umidim shuki, meni yosh deb qaytarmay, oralaringizga olib, bilmagan narsalarimni o‘rgatib, to‘pga qo‘shib olsangiz. Ko‘p narsalardan xabarim bor, ayniqsa, lahim kovlamoqqa, oldin tushib, ahvolni bilib chiqmoqqa ustaman. Umidim borki, ishlaringizga yarab qolarman, – deb ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib yolvordi.

Lahim – yer ostidan qazib o‘tkaziladigan tor yo‘l.

O‘g‘rilarning boshlig‘i:

– Juda yaxshi, bizga ham bir shunday yosh o‘g‘ri bola zarur edi. Yaxshi kelibsan, bizga qo‘shilding. Murodingga yetding, o‘g‘richa, – dedi.

Kenja botir o‘rnidan turib, qulluq qildi. “Murodimga yetsam, baxtliman, so‘zing rost bo‘lsin, semiz qo‘ylar! Qassobing men bo‘laman”, deb pichirlab qo‘ydi.

Sho‘rvani keltirdilar, ichib bo‘ldilar, bugun o‘g‘rilar podshohning xazinasini o‘marmoqchi bo‘lib, shu yerga to‘planishgan edi. Maslahatlashib otlandilar, kenja botir ham birga ket-

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 19 21/08/24 14:59

di. Ko‘p o‘tmadi, o‘g‘rilar shaharga keldilar, o‘rdaning orqa tomonidagi bog‘chaga kirdilar. Otdan tushib, o‘rdaga qanday kirish to‘g‘risida maslahat qilib, oldin “o‘g‘richa”ni devordan oshirib tushirishga, hamma uxlagan bo‘lsa, baravar kirmoq uchun devordan birin-ketin oshib tushib, ichkarida to‘planishga kelishib, kenja botirga:

– Sen kirib, ahvolni bilib chiq, so‘ng devor tepasida xabardor bo‘lib tur! – dedilar.

O‘g‘rilar kenja botirni ko‘tarib, devorga chiqardilar. U bir iloj qilib pastga ham tushib oldi. Biroz u yoq-bu yoqqa yurib, xabar olgan bo‘ldi. So‘ng bir aravani sekin devor tagiga keltirib qo‘ydi. Aravaning tepasiga chiqib, boshini devordan chiqarib, o‘g‘rilarga qarab:

– O‘rdada hamma uxlagan ekan, qulay fursat, – dedi. O‘g‘riboshi:

– Birin-ketin devordan oshilsin, ovoz chiqarilmasin! – deb buyurdi. Birinchi o‘g‘ri devordan aravaga tushish uchun qornini paxsaga qo‘yib, boshini eggan edi, kenja botir qo‘lidagi qilich bilan uning bo‘yniga mo‘ljallab chunon urdi, ikki bo‘lak bo‘lib yiqildi.

– Navbatdagi! – dedi.

Tushganning bo‘ynini uza berdi. Qisqasi, hamma o‘g‘rining kallasini uzib bitirdi. Qilichini artib, qiniga solib, o‘rda ichiga qarab yurdi. Arkning darvozasiga keldi, qarasa, darvozabon uxlab qolibdi. Sekingina oldidan o‘tib, darvozani ochib, ichkariga kirdi. Bir katta saroy, uning uch tomonida uchta eshik, to‘g‘ridagi eshik oldida posbon uxlagan, u sekingina – juda ehtiyotkorlik bilan posbonning qo‘lidagi kalitni oldi. Qulfga solib, ovoz chiqarmay ochdi. Undan ichkariga, bir o‘rta saroyga kirdi. Unda yana uchta eshik bo‘lib, bu bo‘lmada o‘nta chiroyli qiz soqchi ekan-u, hammasi uxlab qolgan ekan. Chunon ustalik bilan oldilaridan o‘tdiki, hech biri sezmadi. Birinchi eshikdan bir bo‘lmaga kirdi, uning devorlari qoziqlungilar bilan bezalgan. Qip-qizil gullar, ipakdan tikilgan turli uy jihozlariga to‘la ekan. Gul yuzli cho‘ri qizlarning o‘rtasida, kumush so‘rida bir qiz oqqa o‘ralib, oyday yuzini pirpirab yonib turgan shamga qaratib uxlab yotgan ekan.

Qoziqlungi – qoziqqa ilib qo‘yiladigan, kashta tikilgan uzun sochiq.

Sekin kelib, tomosha qilib: “Sen to‘ng‘ich akamning baxt qushisan”, deb o‘ng qo‘lidagi tilla uzugini chiqarib olib, cho‘ntagiga soldi. Orqasiga qaytib, yana o‘sha o‘rta saroyga keldi. “Endi ikkinchi uyni ko‘raylik-chi, nima sirlar bor ekan?” deb ikkinchi bo‘lmaga kirdi. Bunda ham uylar o‘ziga munosib ipaklar bilan yasatilgan, turli qushlarning surati bilan bezalgan. O‘n nafar cho‘ri qizning o‘rtasida kumush so‘rida o‘n sakkiz yoshlardagi bir qiz yotibdi. Oy mendan deb talashsa, kun mendan deb talashadigan, oq harirga o‘ralgan holda pirpirab yonib turgan shamni tomosha qilgan kabi uxlab yotibdi. Kenja botir o‘zicha: “Sen o‘rtancha akamning baxt qushisan, oyog‘ingdan bog‘lab ketayin”, deb qo‘lidan bilaguzugini sekingina olib, cho‘ntagiga soldi. Orqasiga qaytib, yana oldingi o‘rta saroyga chiqdi.

“Endi uchinchi bo‘lmaga kirmoq lozim”, deb so‘l tomondagi bo‘lmaning eshigini ochib, ichkariga kirgach, bunisida hammasidan ham ziyoda chiroyli narsalarni ko‘rdi. Devor qip-qizil ipak matolar bilan yasatilgan, ipak gilamlar ustiga ipak ko‘rpachalar solingan. O‘n olti yoshli chiroyli cho‘ri qizlardan o‘n oltitasi atrofini o‘ragan holda kumush so‘rida bir qiz yotibdi, tilla shamdondagi pal-pal yonib turgan sham bilan o‘ynashib turganday bo‘lib uxlabdi… Buning uchun kun gul teradi, oy olma tashlaydi. Odam bolasi ekaniga hech kim ishonmaydi…

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 20 21/08/24 14:59

Kenja botir ichida: “Mening baxt qushim sendirsan”, deb uning o‘ng qulog‘idan sekingina tilla sirg‘asini yechib olib, cho‘ntagiga soldi. Orqasiga qaytib, yana o‘sha o‘rta saroyga chiqdi.

Bular podshohning qizlari edi. Kenja botir ilgari qaysi yo‘l bilan kelgan bo‘lsa, yana o‘sha yo‘l bilan darvozaning oldiga chiqdi. Darvozabon uyqusidan uyg‘onmagan ekan. Darvozani qulflab, kalitini yana darvozabonning qo‘liga tutqazib, o‘tib ketdi. Haligi paxsa devordan oshib, bog‘chaga tushib, chirog‘ini yondirib, otiga minib, akalarining yoniga keldi. Akalari uyqudan uyg‘onmagan ekan. Chiroqni o‘z joyiga qo‘yib, qamchisini o‘ynab o‘tiraverdi. Tong otdi. Hammasi uyqudan turib, bir-biridan hol-ahvol so‘radi. Kenja botir:

– Tinchlik, hech narsa bo‘lgani yo‘q, – deb javob berdi.

Ovqatlarini yeb, otlarni minib yo‘lga tushdilar. Birozdan keyin shaharga kirib keldilar. Bir karvonsaroyga otlarini bog‘lab, o‘zlari bir baland joyga chiqib, atrofga qarab, tomosha qilib o‘tirgan edilar, shaharda o‘rdaning voqeasi eshitila boshladi. Shu vaqtda jarchi baqirib, hammani voqeadan xabardor qilar edi:

– Bugun kechasi noma’lum odam tarafidan o‘rdaning bog‘chasida yigirma kishining boshi kesilgan, ichki haramning eng nozik xonalaridan bir donadan tilla taqinchoqlar olingan. Bu ishni qilgan botir kim ekanini bilish uchun podshohimiz elning hamma katta-kichigidan yordam istaydi. Shahar xalqi orasida bunday botirlar yo‘qligi uchun kimning hovlisida chetdan kelgan musofirlar bo‘lsa, darhol o‘rdaga olib borilsin! – deb jar solardi.

Joy egasi botirlarga o‘rdaga bormoqni taklif qildi.

Ular piyoda asta-sekin o‘rdaga bordilar...

Keling, suhbatlashamiz

1. Otaning tarbiya usullariga munosabat bildiring. Uning qilgan ishlari nimasi bilan ahamiyatli deb o‘ylaysiz?
2. Nima uchun aka-ukalar navbatchilik vaqtida bo‘lib o‘tgan voqealarni bir-biridan sir tutdi? Sizningcha, hamma narsani ham aytavermaslik fazilatmi yoki illat? Fikringizni asoslang.
3. Otaning *“Dunyoni tanimay, dunyo kishisi bo‘lmaysiz”* degan fikrini izohlang. *“Dunyo kishisi”* jumlasining mazmunini ochib berishga urinib ko‘ring.
4. Botirlarning og‘a-inilarini bezovta qilmay, muammoni mustaqil hal qilishlari sizda qanday taassurot uyg‘otdi?
5. Kenja botirning navbatchilik vaqtidagi ilk maqsadi chiroqni yondirish edi. Keyin unga o‘g‘rilarni yo‘q qilish qo‘shildi. O‘g‘rilarni yo‘q qilgach, nega ortiga qaytmadi? Qaysi sifat uni yana ichkariga kirishga undadi deb o‘ylaysiz?
6. Kenja botirning malikalar xonasiga kirishi, qimmatbaho taqinchoqlarini (uzuk, bilaguzuk, sirg‘a) o‘zi bilan olib ketishini to‘g‘ri deb hisoblaysizmi? Nima uchun?
7. Qal’ani, podshohni, malikalarni qo‘riqlashi, himoya qilishi kerak bo‘lgan darvozabon, posbon va soqchi qizlarning mas’uliyatiga baho bering. Aslida bunday vazifadagi kishilar qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 21 21/08/24 14:59



Uyga vazifa

Otaning *“To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz”* degan nasihatini tadqiq eting. Buning uchun quyidagi qadamlarni bosib o‘ting.

1-qadam. Sinfdoshlaringiz bilan kelishgan holda uch guruhga bo‘lining. Har bir guruh o‘ziga tegishli ishlarni bajarsin.

A guruh	B guruh	D guruh
To‘g‘rilik o‘zi nima?	“Xijolat tortish” iborasini sharhlang.	Baxt deganda nimani tushunasiz?
Bexavotir bo‘lish uchun yana nimalar muhim?	Maqtanchoqlik nima? Izohlang.	Dangasalikni yengish uchun nimalar qilish kerak deb hisoblaysiz?
To‘g‘ri bo‘lmagan kishini nima(lar) tashvishga qo‘yishini sanang.	Kishini xijolatga qo‘yishi mumkin bo‘lgan ishlarni sanang.	Inson baxti uning o‘qimishli bo‘lishiga qanchalik bog‘liqligini asoslang.

2-qadam. Guruh xulosasini o‘ziga xos tarzda taqdim qilishga kelishing.
3-qadam. Navbatdagi darsda guruhning “Fikrlar taqdimoti”ni o‘tkazing.
4-qadam. Boshqa guruhlarning “Fikrlar taqdimoti”ga baho bering.

Uch og‘a-ini botirlar

(ertak)

II qism

Podshoh botirlarning musofir ekanini bilib, maxsus bezatilgan uyga kirgizib qo‘ydi. Boshqa musofir bo‘lmaganidan ularni diqqat bilan kuzatib, sir olmoqni vaziriga topshirdi. Vazir:

– Bulardan to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘rasak, ehtimol, aytmaslar, o‘z hollariga qo‘yib, xufiyona quloq solib turamiz, nima desalar, so‘zlaridan sirini topamiz, – dedi.

Bu xonada bulardan boshqa hech kim yo‘q edi. Bir vaqt dasturxon yozildi, xilma-xil noz-ne’matlar keltirib qo‘yildi. Qo‘shni xonaning tirqishidan podshoh bilan vazir quloq solib jim o‘tirdilar. Birozdan keyin uch og‘a-ini botirlar o‘zaro suhbatlasha boshladilar. To‘ng‘ich botir dasturxondagi taomni ko‘rsatib:

– Shu go‘sht qo‘zi go‘shti ekan, biroq it emib katta bo‘lgan, – dedi.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 22 21/08/24 14:59

O‘rtancha botir aytdi:

– To‘g‘ri aytasiz, podshoh degani it go‘shtidan ham qaytmaydi. Saralab yemoq faqirning ishi, qo‘yni boqib qo‘yibdimi? Men ham bir narsaga hayron bo‘lib turibman, mana shu shinnidan ham odam isi keladi.

Kenja botir aytdi:

– To‘g‘ridir, podshohlik – qonxo‘rlik demak. Qon qo‘shilgan bo‘lsa, ehtimoldan uzoq emas. Lekin yomonning qoni bo‘lsa-ku, mayli, begunohning qoni qo‘shilgan bo‘lmasin. Men ham bir narsaga hayron bo‘ldim, shu nonni taxlagan kishining otasi novvoy ekan, taxlovi novvoycha.

– To‘g‘ri bo‘lsa kerak, – debdi to‘ng‘ich botir. – Podshoh bizni bu yerga o‘rda voqeasi munosabati bilan chaqirgan. Albatta bizni so‘roq qilar, nima deymiz?

– Albatta, yolg‘on so‘zlamaymiz, – debdi o‘rtancha botir, – bu voqeaga aralashgan bo‘lsak, aytmoq lozimdir.

Kenja botir:

– Uch kunlik yo‘lda qanday voqealarni ko‘rgan bo‘lsak, o‘rtaga tashlaydigan vaqt keldi, – dedi.

To‘ng‘ich botir birinchi kecha sher bilan olishganini aytib, belidagi tasmasini o‘rtaga olib qo‘ydi. O‘rtancha botir ikkinchi kechadagi voqeani aytib, nishona tasmani o‘rtaga tashladi. Kenja botir uchinchi kechadagi voqeani aytib, olgan narsalarini o‘rtaga tashladi. Podshoh bilan vazir sirdan xabardor bo‘ldilar. Faqat go‘sht, shinni, non to‘g‘risidagi gaplarni tekshirib ko‘rmoq uchun qo‘ychivonni chaqirtirdi. Podshoh qo‘ychivondan so‘radi:

– To‘g‘risini ayt, kecha yurgan qo‘zining onasi itmidi?

– Podshohim, bir qoshiq qonimdan o‘tsangiz, aytaman.

– O‘tdim, to‘g‘risini so‘yla!

– Qishning o‘rtasida bir qo‘y qo‘zilab, o‘zi nobud bo‘ldi, shu vaqtda bir katta itim ham bolalagan edi. Qo‘zichoqqa rahmim keldi. Yetim qo‘zini och qoldirgim kelmadi. Nochor o‘sha itga emizdirib, katta qilgan edim. Boshqa qo‘zi qolmagani uchun o‘shani yuborgandim, – dedi.

Podshoh bog‘bonni chaqirib:

– To‘g‘risini ayt, shinniga odam qoni qo‘shilganmi? – dedi.

– Podshohim, bir qoshiq qonimdan o‘tsangiz, bir voqea bo‘lgandi, aytar edim, – dedi.

– Ayt, o‘tdim, – dedi podshoh. Bog‘bon:

– O‘tgan yozda uzumzorga har kecha bir odam o‘g‘rilikka tushib, siz uchun asrab qo‘yilgan eng yaxshi uzumlarni o‘g‘irlab keta boshladi. Bir kuni agar qo‘limga tushsa, o‘ldirib, shu tokning tagiga ko‘may deb qasd qildim. Bir kecha poylab yotdim. Yana keldi. Shashvar to‘qmoq bilan urdim. O‘lib qoldi. Hech kim bilgani yo‘q. Shu tok tagiga chuqur kovlab, ko‘mib qo‘ydim, kelasi yili tok kuchlanib, chunon hosil qildiki, bargidan ham uzumi ko‘p edi. Lekin mazasida ozgina o‘zgarish paydo bo‘ldi. U uzumdan sizga yubormay, butunicha shinni qilgan edim, – dedi.

Shashvar – uchiga yumaloq va g‘adir-budir temir o‘rnatilgan tayoq.

Nonni podshoh o‘zi taxlagan edi. Bu shohning otasi novvoy edi. Podshoh haqiqatlar ochilganidan keyin bularning zakovatiga ofarin deb, botirlarning oldiga kirdi. Salom berib ko‘rishdi. Hech bir narsa so‘ramay:

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 23 21/08/24 14:59

– Hamma aytganlaringiz to‘g‘ri chiqdi, mening sizlarga mehrim ortdi. Botir mehmonlar, ijozat bersangiz, bir arzim bor edi, agar qabul qilsangiz, aytar edim, – dedi.

To‘ng‘ich botir:

– Aytganlaringiz to‘g‘ri kelsa, qabul qilarmiz, aytingiz! – dedi.

Podshoh:

– Mening uchta qizim bor, o‘g‘lim yo‘q. Ertaga butun shaharni to‘yga chaqirib, qirq kun osh tarqatib, qizlarimni sizlarga nikohlab bersam, o‘g‘illarim bo‘lib, bunda qolsangiz, – dedi.

To‘ng‘ich botir:

– Xo‘p yaxshi aytasiz, lekin bizlar podshoh farzandi emasmiz. Otamiz boy ham emas. Sizning davlatingiz podshohlik bilan topilgan, biz qo‘l kuchi bilan tarbiya qilinganmiz. Elimiz bir bo‘lsa ham, tarbiyamiz boshqa. Qanday bo‘lar ekan? – dedi.

Podshoh:

– Men bir iqlimning podshohiman, sizni shunday tarbiya qilgan otaning mendan nima kamligi bor? Aslida mendan ortiqdir. Tarbiyangiz sharofati bilan shahzodalar oshiq bo‘lib yig‘lab yurgan qizlarning otasi sizga o‘z qizlarini yig‘lab tutadi, – dedi.

Bular qabul qildi. Shaharda qirq kun to‘y-tomosha bo‘lib, botirlar podshoh qizlariga uylandilar. Qizlar yo‘qotgan tillalariga gavhar qo‘shib oldilar. Yaxshi tarbiya orqasidan yigitlar baxt qushini qo‘lga kiritdilar…

Podshoh hamma kuyovlari orasida kenja botirni ko‘proq yaxshi ko‘rar edi. Kunlardan bir kuni podshoh salqin joyda uxlab yotgan edi, yonidagi ariqdan bir ilon chiqib, zahar solmoqchi bo‘lib turganida to‘satdan kelib qolgan kenja botir uni qilichi bilan chopib, ikki bo‘lib tashladi. Qilichini qiniga solib turganida podshoh uyg‘onib qoldi. Dilida: “Qizimni berganimga qanoat qilmay, meni o‘ldirib, podshoh bo‘lmoq xayoli bor ekan”, deb shubha qildi. Vazirni chaqirib, voqeani aytdi. Vazirning botirlarga hasad-adovati bo‘lib, qulay paytni kutib yurgan ekan, yaxshi bahona bo‘ldi.

Vazir podshohga:

– Shunday bebaho qizlaringizni mendan bir maslahat so‘ramay, yaxshi tarbiya ko‘rgan deb musofirlarga berib yubordingiz, endi mana, asl niyatini sizga ko‘rsatdi. Eng yaxshi ko‘rgan kuyovingiz sizni o‘ldirmoqchi bo‘ldi. Yana bir kuni boshqacharoq hiyla bilan maqsadiga yetar, – dedi. Podshoh vazirning so‘ziga ishonib:

– Zindonga solinsin! – deb buyurdi.

Kenja botirni zindonga soldilar. Uning qallig‘i juda xafa bo‘ldi. Malika botirni nihoyatda yaxshi ko‘rar edi. Yig‘lab-yig‘lab, kelinchakning yuzlari so‘la boshladi.

Bir kuni qiz otasining oyog‘iga boshini qo‘yib yig‘lab, qallig‘ini so‘radi. Podshoh qizining yuzidan o‘tolmay, kenja botirni zindondan oldirib keldi… Keyin kenja botirga qarab:

– Botir, siz shunday vafosizmisiz? Ko‘rmayapsizmi, mening qizim sizga qanday mehribon? Shu qizimni ham o‘ylamasdan, qay ko‘ngil bilan meni o‘ldirmoqchi bo‘ldingiz? – dedi.

Kenja botir podshohga qarab bir hikoya aytdi.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 24 21/08/24 14:59

* * *

Bir zamonlar bir podshoh bo‘lgan ekan, uning yaxshi ko‘rgan bir to‘tisi bor ekan. Podshoh to‘tisini shunday yaxshi ko‘rar ekanki, bir soat ko‘rmasa, turolmas ekan. To‘ti ham podshohga juda mehribon bo‘lib, har turli shirin so‘zlar aytib, xursand qilar ekan. Bir kuni to‘ti podshohdan so‘rabdi:

– Mening Hindiston degan yurtda ota-onam, aka-ukam, opa-singillarim bor, falakning gardishi bilan sizning dargohingizga kelib qolgan edim. Shukrlar bo‘lsin, aql-idrokim, yaxshi xulqim, shirin so‘zim tufayli sizday podshohga hamsuhbat bo‘ldim. Endi so‘raymanki, meni qafasdan bir bo‘shatib, yigirma kun javob bersangiz, olti kun borishim, olti kun kelishimga ketsa, bir hafta ota-onam, ukalarimni ko‘rib, diydoriga to‘ymog‘im uchun ketar.

Podshoh:

– Yo‘q, senga javob bersam, qaytmasang, seni sog‘inib juda xafa bo‘laman, – debdi.

To‘ti:

– Yo‘q, podshohim, sizning menga ko‘rsatgan iltifotingiz meni noma’qul yo‘lga boshlamaydi, qanday bo‘lsa ham, va’da degan ulug‘ narsa bor, uni buzish yaramaydi. Va’dani buzmoq – nomardlar ishi. So‘z beraman, so‘zimda turaman, – debdi.

– Xo‘p, agar va’dangda tursang, ikki haftaga ruxsat beraman, – debdi podshoh.

– Xayr, endi qanday bo‘lsa ham chiqay, – deb to‘ti o‘n besh kunga ruxsat olibdi. Devorga qo‘nib turib xayrlashibdi. Janub tomonga qarab uchib ketibdi. Podshoh orqasidan qarab qolibdi. Podshoh to‘tining qaytib kelishiga ishonmas ekan.

To‘ti olti kun deganda Hindiston degan mamlakatga borib, ota-onasining diydoriga yetibdi. Bechora to‘ti juda xursand bo‘lib, tog‘dan tog‘ga, bog‘dan bog‘ga, shoxdan shoxga sakrab, uchib, o‘ynab-kulib, ota-onasining diydoriga to‘yibdi, qarindosh-urug‘inikida mehmon bo‘lib, uch kunni qanday o‘tkazganini bilmay qolibdi. Ertasi yana qafas tomonga, tutqunlikka uchmog‘i kerak ekan. Ota-onasi, aka-ukalaridan ajralmoq juda og‘ir bo‘libdi. Bir tarafda va’da, va’daga vafosizlik xavfi turadi. Bechora to‘tining quvonchi tarqabdi. Shodligi g‘amga almashibdi. Qanotlari so‘libdi. Ikkinchi qaytib kelish yo bor, yo yo‘q. Qarindosh-urug‘lar bir joyga to‘planibdilar. Hammasining ko‘zi g‘amli to‘tida ekan. Qanday qilib bo‘lsa ham, qaytmaslikni maslahat berishibdi. To‘ti aytibdi:

– Yo‘q, yana qaytmoqqa va’da berganman, va’daga vafo qilmay bo‘ladimi?

Bir to‘ti aytibdi:

– Va’da bergan podshohingda insof bo‘lsa, seni uch yil qamoqda saqlab, faqat ikki haftaga javob berarmidi? Seni yaxshi ko‘rar ekan, qafasda tutmog‘i ne ish? Dunyoga qafasda turmoq uchun keldingmi? Bir kishining xushvaqtligi uchun erkinlikni qo‘ldan berma! Podshoh deganining marhamatidan qahri ortiqdir, podshoh bilan sherga yaqin bo‘lmoq hikmatdan emasdir.

Podshohning to‘tisi aytibdi:

– Menga bir yo‘l ko‘rsating, ham erkinlikka chiqay, ham va’dam yolg‘on bo‘lmasin.

Ona to‘ti aytibdi:

– Unday bo‘lsa, men bir maslahat beraman. Bizning joyda bir daraxtning mevasi bor, har kim bir donasini yesa, qari chol bo‘lsa, yigitlik holiga qaytur. Kampir yesa, qiz kabi yoshlik holiga kelur. Podshohga shundan uch donasini olib borgin, bu bebaho mevani

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 25 21/08/24 14:59

berib, seni butunlay ozod etishini so‘ra, shoyad insofga kelsa, – debdi. Bu gap ma’qul tushibdi. Shu chog‘da uch dona meva olib kelibdilar. To‘ti ularni changalida mahkam ushlab, xayrlashib, shimol tomonga qarab uchibdi. Zo‘r umid bilan orqasidan qarab qolibdilar.

To‘ti olti kun deganda podshohning saroyiga yetib kelibdi. Podshoh bilan ko‘rishib, olib kelgan tortig‘ini unga beribdi, xosiyatlarini birma-bir aytibdi. Podshoh juda xursand bo‘libdi. Ozod qilmoqqa va’da beribdi. Bir donasini xotiniga berib, ikki donasini vazirga ko‘rsatmoq uchun bir piyolaga solib qo‘yibdi. Ertasiga vazirga ko‘rsatib, xosiyatlarini aytibdi. Vazirning bunga hasadi kelibdi. Ichida xafa bo‘libdi. Ishni boshqa yo‘lga burmoqni ixtiyor qilibdi:

– Siz bu parrandaning olib kelgan narsasini yemay turing, oldin bir tajribadan o‘tkazib ko‘raylik, durust bo‘lsa, yemoq qochmaydi, – debdi. Bu gap podshohga ma’qul tushibdi, vazir vaqtini topib, piyoladagi ikki dona yoshartiruvchi mevaga zahar aralashtirib qo‘yibdi. Bir kundan keyin vazir aytibdi:

– Endi yoshartiruvchi mevani bir tajribadan o‘tkazaylik.

Qamoqxonadan ikki nafar odamni olib chiqib, mevani yediribdilar. Bu ikkisi shu chog‘dayoq o‘lib qolibdi.

Vazir aytibdi:

– Agar siz yesangiz, nima bo‘lar edi?

– Men ham o‘lardim, – debdi podshoh. Bechora to‘tini qafasdan sudrab olib chiqib, kallasini uzib tashlabdilar.

Bir kuni podshoh bir odamdan g‘azablanib, o‘ldirmoqchi bo‘libdi. Bu kishi keksa ekan. Qolgan bir dona mevani yemoqqa buyuribdi. Bu odam yegan ekan, oqargan sochlari qorayibdi, tishlari butunlanib, ko‘zlarining nuri ortib, yigirma yashar yigit holiga kelib qolibdi. Podshoh vazirdan shubhalanib, piyolani olib kelib qaragan ekan, zahar qo‘shilgani bilinibdi. Podshoh vazirni ham qatl ettiribdi. Bechora to‘tining begunoh o‘lganiga qayg‘uribdi, lekin ish o‘tgan ekan. To‘ti podshohga yaqin bo‘lganining “mukofot”ini olibdi.

* * *

– Endi men o‘zimning qilgan yaxshiligimni aytay, – deb kenja botir ariqdan chiqqan ilon voqeasini aytdi. O‘sha joyda ikki bo‘linib yotgan ilon tanasini olib kelib, ko‘rsatdi. Podshoh qilgan ishidan pushaymon bo‘ldi. Kenja botirdan uzr so‘radi.

Kenja botir aytdi:

– Taqsir, endi ruxsat bersangiz, biz o‘z yurtimizga qaytsak.

Podshoh qolishlarini yalinib-yolvorib so‘radi.

– Biz saroy kishisi bo‘lolmaymiz. Biz mehnat bilan, kasb bilan yashaymiz, – dedi botirlar.

Podshoh:

– Bo‘lmasa, qizlarim qolsinlar, – degan edi, qizlari:

– Biz yorlarimizdan ajralmaymiz, ruxsat bersangiz, biz ham ular bilan birga ketsak. Sizni ko‘rgani esa kelib turamiz, – dedilar.

Podshoh noiloj ruxsat berdi. Botir yigitlar o‘z yorlari bilan birga ikki yil deganda otalarining oldiga olti kishi bo‘lib qaytdilar. Otasi ham alohida uch hovlini bog‘i bilan tayyorlab qo‘ygan edi. Botirlar otalari bilan quchoqlashib ko‘rishib, yorlarini tanishtirdilar. Uzoq yillar rohatda yashab, murod-maqsadlariga yetdilar.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 26 21/08/24 14:59



Keling, suhbatlashamiz

1. Ayting-chi, aka-ukalarning oldilariga qo‘yilgan noz-ne’matlarga oid xulosalari haqida qanday fikrdasiz? Bu vaziyatda ulardagi qaysi sifatlar namoyon bo‘ldi? Fikringizni dalillang.
2. Aka-ukalar o‘z xatti-harakatlarida otalarining qaysi nasihatiga qay tarzda amal qilishdi? Mulohazalaringizni matnga tayanib bildiring va asoslang.
3. Podshohning kenja botirni zindonga tashlashiga munosabat bildiring. Uni oqlash mumkinmi? Podshohning bu ishi ehtiyotkorligidanmi yoki odamlarga ishonchsizligidanmi? Nega shunday deb o‘ylaysiz?
4. Kenja botir to‘ti haqidagi hikoyani podshohga nima maqsadda aytib berdi deb o‘ylaysiz?
5. To‘tining quyidagi gaplariga diqqat qiling: *“…qanday bo‘lsa ham, va’da degan ulug‘ narsa bor, uni buzish yaramaydi”.* “Va’dani buzish” deganda nimani tushunasiz? Va’daning ulug‘ligi haqida matn asosida xulosalaringizni ayting.



Ijodiy ish. O‘yin

Keling, ertak to‘qiymiz!


1. O‘rningizdan turing va sinfdoshlaringiz bilan doira hosil qiling.
2. Doiraning boshidagi o‘quvchi hozircha noma’lum syujetli ertak uchun ilk jumlalarni aytadi.
3. Doiraning keyingi bo‘g‘inlarida turgan o‘quvchilar ketma-ketlikda ertakni mantiqiy davom ettiradigan bir-ikkitadan gap aytadi. Bu jarayon doiraning oxirgi o‘quvchisigacha davom etadi. Agar oxirgi o‘quvchida ham ertak tugamasa, o‘yin yana doira boshidan ertakni yakunlaguncha davom ettiriladi.



Uyga vazifa

1. Ertakda xalqimizga xos qanday urf-odatlar, an’ana va qadriyatlarga duch keldingiz? Matndan shunday qismlarni topib, yozing.
2. Ertakdan olgan eng muhim beshta xulosangizni daftaringizga yozing.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 27 21/08/24 14:59



Tanishing: HADISLAR

Hadis arabcha so‘z bo‘lib, *xabar, gap, yangilik* kabi bir qancha ma’nolarni bildiradi.

Hadislar Qur’ondan keyingi muqaddas manba bo‘lib, payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ning *aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, bergan ko‘rsatmalari* hisoblanadi.

Hadislarni roviylar (rivoyat qiluvchi, aytuvchilar) yig‘gan. Roviylar esa ikki toifaga bo‘lingan: sahobalar va tobeinlar.

Sahobalar – payg‘ambarimizni ko‘rgan, u kishi bilan suhbatda bo‘lgan insonlar.

Tobeinlar esa sahobalarni ko‘rib, ulardan eshitganlarini aytuvchi kishilardir.

Hadis ikki qism: **sanad** va **matndan** iborat bo‘lgan. **Sanad** hadisning qachon, qanday sharoitda va kimlar huzurida aytilgani haqidagi asos, **matn** esa uning mazmuni hisoblanadi.

Hadislarni to‘plab, ularning haqiqiylarini aniqlash bilan shug‘ullangan olimlar **muhaddis** deyiladi.

Sollallohu alayhi vasallam – U kishiga Allohning salavoti va salomi bo‘lsin.

Bilib oling

Imom Buxoriy 810-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Ismoil Buxoriy olim kishi bo‘lib, savdogarlik bilan ham shug‘ullangan. Imom Buxoriyning asl ismi Muhammaddir. Otadan erta yetim qolgan bu zot o‘n olti yoshidayoq minglab hadislarni yod olgan.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 28 21/08/24 14:59

Ilm olish talabida Kesh, Marv, Makka, Madina, Balx, Hirot, Bag‘dod, Nishopur, Misr kabi joylarda bo‘lgan. O‘zi qayd etganidek, “mingdan ortiq ishonchli ulamodan” hadis yozib olgan. Imom al-Buxoriy “muhaddislar imomi” deb ta’riflangan.

Imom al-Buxoriyning eng mashhur asarlari 4 jildlik “Al-jome’ as-sahih” va “Al-adab al-mufrad”dir.

Imom al-Buxoriy 870-yili vafot etgan. Qabri Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi Xartang qishlog‘ida joylashgan.

Aziz o‘quvchi! Quyida Imom al-Buxoriy to‘plagan bir necha sahih hadislar bilan tanishamiz. Shuningdek, hadislar mazmuniga yaqin bo‘lgan she’riy va nasriy asarlarni tahlil qilamiz.

Zavqli mutolaa

1 Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Birovni (kurashib) yiqitgan polvon emas, balki g‘azablangan vaqtida jahlini yutgan polvondir”, dedilar.

Pahlavon

Bir suhbat chog‘ida Hazrat Payg‘ambar
O‘rtaga tashladi savol nogahon.
Aytdilar: – Zarurat tug‘ilsa magar,
Kimni atardingiz asl pahlavon?

Sahobalar dedi: – Har kim doimo
Chekiga tushganni kelgandir olib.
Kurash maydoniga chiqqanda ammo
Pahlavon sanalgay kim bo‘lsa g‘olib.

Rasulullоh dedi: – Ko‘hnadir jahon,
Turfa xil kuch-qudrat bordir odamda.
Lekin o‘z jahlini yengolgan inson
Haqiqiy pahlavon erur olamda.

Abdulla Oripov

Ko‘hna – eski, qadimiy.

Roziyallohu anhu – Alloh undan rozi bo‘lsin.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 29 21/08/24 14:59

Keling, suhbatlashamiz

1. Sizningcha hadisda nima uchun g‘azabini yenggan odam pahlavon deb e’tirof qilinmoqda?
2. Insonlar nega doimo kurash maydonida g‘olib chiqqanni pahlavon hisoblaydilar? Bu qarash to‘g‘rimi? Mulohazangizni dalillang.
3. Siz yana qanday fazilatlarga ega insonlarni pahlavon sanaysiz? Nima uchun?

2 Horisa ibn Vahb roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Ahli jannat kimlar ekanini aytaymi?” dedilar-da, odamlardan javob kutmay: “Har bir zaif va bechorahol odamdir, u gar Allohni o‘rtaga qo‘yib qasam ichsa, so‘zsiz ustidan chiqqaydir”, dedilar, so‘ng: “Ahli do‘zax kimlar ekanini (ham) aytaymi? Har bir qo‘pol, quruq gerdaygan, beqanoat va dimog‘dor odam ahli do‘zaxdir”, dedilar”.

Kamtarlik

Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?

Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam
O‘tma g‘urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O‘par doim peshonasidan.

Erkin Vohidov



Keling, suhbatlashamiz

1. Hadisda kimlar maqtalib, kimlar qoralanyapti deb o‘ylaysiz? Fikringizni dalillang.
2. Inson nega piyolaning “peshonasidan o‘padi”?
3. Sizningcha, she’rdagi qaysi obraz kamtarlik ramzi bo‘la oladi? Nima uchun?
4. Hadis va she’rdan chiqargan umumiy xulosangizni ayting. Nega shunday xulosaga kelganingizni izohlang.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 30 21/08/24 14:59

3 Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Bir odam yo‘lda ketayotib chanqab qoldi. Bir quduqni topib, unga tushib suv ichdi. So‘ng quduqdan chiqib, bir itning tashnalikdan harsillab tuproq namini yalayotganini ko‘rdi. Shunda u o‘ziga o‘zi: “Bu it ham men kabi chanqabdi”, deb quduqqa qayta tushdi va mahsisini suvga to‘ldirdi-da, quduqdan chiqib, itga ichirdi. Alloh taolo bu solih amali tufayli uning gunohlarini kechirdi”, dedilar. Shunda sahobalar: “Ey Rasulullоh, hayvonlarga suv ichirsak ham bizga savob tegurmi?” deyishdi. Janob Rasulullоh: “(Biz sug‘oradirgan) har bir jonzotda biz uchun savob (ajr) bordur”, dedilar”.


Savobning katta-kichigi yo‘q

Borar ekan yo‘lda bir odam,
Tashnalikdan toldi juda ham.
Ko‘rib nogoh quduqni yo‘lda,
Chanqog‘ini qondirdi undan.

So‘ng boqsaki, bir it harsillab
Tuproq namin turardi yalab.
Sayyoh shundoq o‘yga boribdi:
“Buyam xuddi mendek horibdi”.

Tag‘in pastga tushib ketdi u,
Olib chiqdi mahsi to‘la suv.
Suvni tashna itga ichirdi,
Alloh uning aybin kechirdi.

A’zam O‘ktam



Ajr – mukofot.

Keling, suhbatlashamiz

1. Ushbu hadis orqali qanday xislat ulug‘lanyapti deb o‘ylaysiz?
2. Hadis va she’rdagi kabi vaziyatga duch kelganmisiz? Nima qilgansiz?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 31 21/08/24 15:00

Uyga vazifa

O‘zbek kinoijodkorlari suratga olgan “Kichkina tabib” filmini tomosha qilganmisiz? Filmda doim hayvonlarga ozor beradigan “Hasanboy terminator” obrazi bor. Unga yuqoridagi hadis mazmuni asosida tavsiyalar yozib keling.



“Kichkina tabib” filmidan lavha. Rejissyor Zulfiqor Musoqov. “O‘zbekfilm” kinostudiyasi

4 Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Sizlardan birortangiz o‘zi uchun yaxshi ko‘rgan narsani birodari uchun ham ravo ko‘rmaguncha mo‘min bo‘la olmaydi”, dedilar”.

* * *

Mo‘min ermastur, ulki iymondin
Ro‘zgorida yuz safo ko‘rgay,
Toki qardoshiga ravo ko‘rmas –
Har nekim o‘ziga ravo ko‘rgay.

Alisher Navoiy

Safo – yorug‘lik, ravshanlik.

Keling, suhbatlashamiz

1. Yuqoridagi hadis mazmunidan kelib chiqib, mo‘min kishiga ta’rif bering.
2. O‘ziga ravo ko‘rganini birodari uchun ham ravo ko‘rish deganda nimani tushunasiz? Hadisda faqat moddiy narsalar nazarda tutilganmi? Fikrlaringizni dalillang.
3. Xalqimizda ushbu hadis mazmuniga mos keluvchi qanday qadriyatlar bor? Sanab bering.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 32 21/08/24 15:00

5 Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Bir odam Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: “Ey Rasulullоh, mening yaxshi muomala qilmog‘imga kim haqliroqdir?” deb so‘radi. Janob Rasulullоh: “Onang!” deb aytdilar. U: “Yana kim?” deb so‘radi. Janob Rasulullоh: “Onang!” dedilar. U: “Yana kim?” dedi. Janob Rasulullоh: “Onang!” dedilar. U: “Yana kim?” deb so‘radi. Janob Rasulullоh (bu safar): “Otang!” deb javob qildilar”.

Ona

Kimdir savol berdi: – Aytgil, Muhammad,
Yolg‘iz sen Rasulsan butkul olamga.
Kimga ko‘p yaxshilik aylay, o‘zing ayt,
Ota-onamgami? Yoxud bolamga?
Rasul javob qildi: – Tingla, birodar,
Gapimni uch bora quloqqa ilgil.
Imkon topa olsang dunyoda agar,
Eng avval onangga yaxshilik qilgil.
Bu hikmat sharhini o‘yladim uzoq,
Rostdan ona erur qiblayi olam.
Garchi barchamiz ham padarmiz, biroq
Onadan tug‘ilgan payg‘ambarlar ham.

Abdulla Oripov



Keling, suhbatlashamiz

1. Yuqoridagi hadis va she’r orqali nima deyilmoqda? Fikringizni matnlarga tayanib dalillang.
2. Ota-onadan so‘ng yaxshi muomala qilishga kim loyiqroq deb hisoblaysiz? Nima uchun?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 33 21/08/24 15:00

6 Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bunday dedilar: “Munofiq odamning alomati uchtadir:
1. Gapirsa, yolg‘on gapiradi.
2. Va’da bersa, ustidan chiqmaydi.
3. Unga biror narsa omonat qilinsa, xiyonat qiladi”.

Kimki har kimga va’daye qildi,
Shart erur va’dag‘a vafo qilmoq.
Va’dakim qilding, o‘yladurkim dayn,
Farzdur qarzni ado qilmoq.

Alisher Navoiy

Munofiq – tili, dili, so‘zi va ishi bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan ikkiyuzlamachi odam.

Dayn – qarz, burch.

Farz – bajarilishi shart bo‘lgan ish.

Keling, suhbatlashamiz

1. Yolg‘on nima? Nega u qoralanadi?
2. Va’dasiga vafosiz insonga nisbatan atrofdagilarning munosabati haqida mulohazalaringizni bayon qiling. Fikringizni she’riy to‘rtlik asosida bildiring.
3. Omonat nima? Unga xiyonat qilish deganda nimani tushunasiz? Fikrlaringizni asoslang.

Uyga vazifa

Yuqoridagi 6 hadisning har biriga sarlavha o‘ylang va hadislar mazmuniga yaqin maqollarni topib, ularni quyidagidek jadval shaklida daftaringizga yozing.

Hadislar	Men tanlagan sarlavha	Maqollar
1-hadis	* * *	* * *
2-hadis	* * *	* * *
3-hadis	* * *	* * *
4-hadis	* * *	* * *
5-hadis	* * *	* * *
6-hadis	* * *	* * *

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 34 21/08/24 15:00

Hadis va hikoya

1-topshiriq. Quyidagi hadisni o‘qing. Notanish so‘zlarni aniqlab, daftaringizga izohi bilan yozing. Qiynalsangiz, ustozingizdan yordam so‘rang.

Abu Said Xudriy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam bunday dedilar: “Birovning molini egri, nohaq yo‘l bilan oladigan odam qancha yesa ham to‘ymaydigan mechkayga o‘xshaydi, o‘sha egri yo‘l bilan olingan mol qiyomat kuni uning qallobligiga guvoh bo‘ladir”.

So‘z	Izohi
* * *	* * *

2-topshiriq. O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan olingan quyidagi hayotiy hikoyani o‘qing.

“Girgitton buvi”ning yapon nevarasi

(hikoya)

Hali maktabga qatnamasdim. Kuz pallasi tomog‘imga “tepki” kelib, bo‘ynim shishib ketdi. Oyim irimini qilish uchun “Girgitton buvi”nikiga olib chiqdi.

Dunyoda “Girgitton buvi”dan muloyim, undan mehribon odam bo‘lmasa kerak. Hamma bilan “buving girgitton” deb aylanib-o‘rgilib ko‘rishadi... Buvining hovlisiga kirsak, etakdagi devor tagida allaqancha yong‘oq dumalab yotibdi. Kechasi shamolda to‘kilgan bo‘lsa kerak. Yugurib borib, tera boshladim. Bir mahal ayvon tomondan “Girgitton buvi”ning ovozi keldi:


– Hay-hay, girgitton, tegma, tegma yong‘oqqa! – shunday deb ildam keldi-da, qo‘limdagi yong‘oqlarni olib, pastak devor osha nariyoqqa uloqtira boshladi. So‘ng xazon orasida yotgan boshqa yong‘oqlarni ham enkayib tergancha, devor ortiga tashladi. Buvining bunday “qizg‘anchiq”ligiga hayron bo‘lib turib qoldim. Nihoyat, to‘kilgan yong‘oqlar qolmaganiga ishonch hosil qilgach, qo‘limdan yetakladi. “Yura qol, girgitton, senga boshqa yong‘oq beraman!” – shunday deb, pastak bostirmaga olib kirdi-da, savatda uyilib yotgan yong‘oqlardan hovuchlab olib, do‘ppimni to‘ldirib berdi...

So‘ng tushuntirdi:

– Devorning nariyog‘ida qo‘shnining ham yong‘og‘i bor. Sen tergan yong‘oq qo‘shnining daraxtidan to‘kilgan bo‘lishi mumkin. Birovning haqini o‘zidan so‘ramasdan olsa, gunoh bo‘ladi, girgitton!

Bu gaplarni unutib yuborgan edim-ku, oradan ko‘p yillar o‘tib, tag‘in yodimga tushdi.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 35 21/08/24 15:00



Yaponiyadan bir guruh martabali mehmonlar tashrif buyurishdi. Ular orasida Yaponiya parlamenti rahbarlaridan biri ham bor edi. Shu kishiga hamroh bo‘lib Samarqandga bordik. Mehmon ikkovimiz va tarjimon bir mashinada ketyapmiz. Samarqand qishloq tumanidan borayotib, yashnab yotgan bog‘ oldidan o‘tdik. Yo‘l cheti keta-ketguncha shaftolizor. Zarg‘aldoq shaftolilar g‘arq pishgan. Har biri kichikroq choynakdek keladi. Mehmon nimanidir zavqlanib gapirdi. Tarjimon mehmon janoblari bu bog‘ kimniki ekanini so‘rayotganlarini aytdi. Yaponiya, Koreya, Xitoy singari mamlakatlarda shaftoliga ayricha ixlos qo‘yishlarini eslab, haydovchidan mashinani to‘xtatishni so‘radim. Yo‘l chetidagi ariqchadan hatlab o‘tib, qo‘limga sig‘ganicha shaftoli uzib oldim. Buni qarangki, nariroqda temir quvurdan suv oqib turgan ekan. Shaftolilarni chayib, olib keldim. Mehmonga uzatdim. Mehmon odob bilan jilmaydi, ammo qat’iyan bosh chayqadi. O‘z tilida hayajonlanib bir nima dedi.

– “Mumkinmas” deyaptilar, – dedi tilmoch tarjima qilib.

– Tashvishlanmang, janob, – dedim tushuntirib. – Boyagi suv iflos emas, vodoprovod kranining suvi. Bu tuman to‘liq vodoprovodlashgan. Bemalol yeyavering, mana, o‘zim boshlab bera qolay. Mehmon tag‘in bosh chayqadi. Tarjimonga bir nimalarni kuyinib tushuntirdi.

Tilmoch – tarjimon.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 36 21/08/24 15:00

– Mumkin emas! – dedi tarjimon mehmonning gapini so‘zma-so‘z tarjima qilib. – Janob shaftolining egasiga haq to‘lamadilar. Shuncha mevani so‘roqsiz olib chiqdilar. Mumkinmas.

Biz o‘tib borayotgan joy menga begona emasligini, bu yerga ko‘p kelganimni, tumanning hokimi – meri yaqin tanishim ekanini aytdim. Baribir gaplarim ishonchsiz chiqayotganga o‘xshayotganini o‘zim ham sezib turardim... Ko‘z o‘ngimda ikki bukilgancha yong‘oq terib, pastak devordan qo‘shninikiga uloqtirayotgan “Girgitton buvi” paydo bo‘lib qolgandek edi...

Shunda dunyodagi bani insonning hammasini Xudo yaratganiga, ular orasida fe’l-atvori, insof-vijdoni bir-biriga juda o‘xshashlari oz emasligiga yana bir karra imon keltirdim...

Keling, suhbatlashamiz

1. Yuqorida berilgan hadis va hikoyaning umumiy jihatlarini nimalarda ko‘rdingiz? Ularni sanang.
2. Hikoyadagi qaysi gaplarni hadis mazmuni bilan bir xil deb hisoblaysiz? O‘sha gaplarni matndan topib, o‘qib bering.
3. “Girgitton buvi” so‘zi muallif tomonidan nega qo‘shtirnoqqa olingan? Hikoya sarlavhasidagi yana qaysi so‘zni qo‘shtirnoqqa olinsa, yanada to‘g‘ri bo‘lardi deb hisoblaysiz? Nima uchun?
4. Hikoya muallifi yaponiyalik mehmonga nega qayta-qayta o‘z gapini isbotlashga urindi deb o‘ylaysiz? Isbotlay oldimi? Fikringizni matnga tayanib asoslang.
5. Hikoyada “fe’l-atvori, insof-vijdoni bir-biriga juda o‘xshash” deb muallif kimlarni qiyoslayapti? Uning xulosasiga munosabat bildiring.

3-topshiriq. Hikoyadan olingan so‘zlarning izohini yozing. Qiynalsangiz, ustozingizdan yordam so‘rang.

So‘zlar	Izohi
“Tepki” kasalligi	* * *
Irim	* * *
Gunoh	* * *
Ixlos	* * *

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 37 21/08/24 15:00



Uyga vazifa. Ijodiy ish

1-qadam. Quyidagi ikki hadisni o‘qing. Mazmuni haqida o‘ylab ko‘ring.

1-hadis

Abu Dardo roziyallohu anhu rivoyat qilishicha, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Yaxshi axloqdan ko‘ra tarozida og‘ir keladigan hech narsa yo‘qdir”, deb marhamat qilganlar.

2-hadis

Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: “Odam qiladigan gunohi azimlardan biri ota-onasini haqorat qilmoqdir!” dedilar. Shunda: “Ey Rasulullоh, odam o‘z ota-onasini qanday qilib haqorat qilmog‘i mumkin?!” deyishdi. Janob Rasulullоh: “Birovning ota-onasini so‘kkan odam o‘z ota-onasini haqorat qilgan bo‘ladi”, deb javob berdilar”.

2-qadam. Yuqoridagi ikki hadisdan birini tanlab, uning mazmuniga mos keluvchi ibratli hikoya yozing. Uni yozishda oila a’zolaringizdan maslahat olishingiz ham mumkin.

3-qadam. Hikoya matni tayyor bo‘lgach, uni oila a’zolaringizga o‘qib bering. Ularning taklif-mulohazalari asosida hikoyani qayta ishlang.

4-qadam. Navbatdagi darsda hikoyani sinfdoshlaringizdan biriga o‘qiting va uning fikrini biling.

Namuna:

Men tanlagan hadis (raqami yoziladi): _____

Mening hikoyam

_____

_____

_____

_____

_____

_____

_____

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 38 21/08/24 15:00



Tanishing: ABDUSAID KO‘CHIMOV

Abdusaid Ko‘chimov 1951-yilning 15-mayida Samarqand viloyati Urgut tumanidagi Qulqishloq ovulida tug‘ilgan. Mana, uning o‘zi bolaligi haqida nima deb yozgan:

“Bir so‘zli, qattiqqo‘l, mehrini ko‘pam ko‘rsatavermaydigan, qo‘lidan ketmon-u o‘roq tushmaydigan dehqon otam to‘qqiz jondan iborat oilamizni boqish uchun tinim bilmas edi. U paytlar hayot kechirish oson emasdi. Otam sahardan shomgacha ishlar, biz – mushtday bolalar ham u kishining qavatida yer chopar, o‘t o‘rar, hatto g‘isht quyar edik. Otamiz tugul, onamiz ham bizlarni erkalashga vaqt topolmasdi. Qo‘li kosov, sochi supurgi edi onamizning: hali xo‘roz qichqirmay, sigir sog‘ar, tappi qilar, kuvi pishar, kir yuvar, tandirda non yopar, ammo o‘choqda mung‘ayib turguvchi qora qozonimiz haftalab go‘sht ko‘rmasdi.

Kuvi – qatiqdan yog‘ ajratib olishda foydalaniladigan uzun yog‘och idish.

Maktabga birinchi qadam qo‘ygan kunlarimda nimalar bo‘lgani aniq esimda yo‘q. Lekin onam tikib bergan “kitob xalta”ni bo‘ynimga osvolib chopganda kissasidagi siyohdon to‘kilib, ust-boshim nafarmonga bo‘yalib ketgani uchun tanbeh eshitganim yodimda qolgan: axir onam o‘z qo‘llari bilan tikkan yap-yangi ko‘ylak, shalvar, hatto latta tuflimgacha bo‘yalib ketgan edi-da!

Rostini aytaman – judayam sho‘x, to‘polonchi bola edim. Ammo yaxshi o‘qirdim, a’lochilar ro‘yxatidan tushmasdim. Badiiy kitob o‘qishni yaxshi ko‘rardim. “O‘zbek xalq ertaklari”, “Gulliverning sayohatlari”, “Etik kiygan mushuk” singari kitoblarni boshlang‘ich sinflardayoq o‘qib chiqqandim. Ariq yoqasidagi tol soyasida yonboshlab kitob o‘qish, so‘ng osmonga qarab o‘y surish men uchun behad lazzatli mashg‘ulot edi. Ammo uyda ish ko‘pligidan hamisha vaqt topilavermasdi bu mashg‘ulotga. Shuning uchun kechalari lampachiroq yorug‘ida dars qilib, kitob varaqlar edim…”

O‘ylab ko‘ring

Tarjimayi holdagi bola Abdusaidning qaysi sifatlari sizda ham bor deb o‘ylaysiz?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 39 21/08/24 15:00

Mutolaadan oldin...

Bahor kelishi bilan daraxtlar uyg‘onadi. Qir-adirlar yam-yashil tusga kirib, alvon-alvon ranglarga bo‘yaladi, soy-u daryolar suvga to‘lib, tosha boshlaydi. Ariq, soy yoqalarida yalpizlar unib, iforini taratadi, dala-yu qirlar esa sap-sariq boychechaklarga burkanadi. Shu tarzda bahor o‘z ko‘rkini yoyadi. Bobo-buvilarimiz boychechak va chuchmomalarni ko‘zga surtib “omonliq-esonliq” qilishadi. Ushbu urf-odatning qanday ma’nosi bor deb o‘ylaysizlar?

Bu faslda qir-adir, dalalarga chiqib, boychechak, lolaqizg‘aldoq va chuchmomalar terib, gulchambarlar yasash, turli xil milliy o‘yinlar o‘ynash, ayniqsa, varrak uchirish bolajonlarga maroq bag‘ishlaydi. O‘yinlarda kimdir sho‘xlik qilib, kimdir esa g‘irromlik bilan o‘yin qoidalarini buzib turadi. O‘sha vaziyatlarda qanday yo‘l tutgansizlar? Sizga yoki jamoaga nohaqlik qilgan bolalarga qanday munosabatda bo‘lgan ma’qul deb hisoblaysiz? Agar bu ishni o‘yinboshi qilsa-chi?

Zavqli mutolaa

Boychechak

(hikoya)

Ona-bola molxona devoriga tappi yopishardi: bolakay eski chelakda o‘tinxonadan ko‘mir kukunini tashir, yengini tirsagigacha shimarib olgan onasi tappini ko‘mir uvoqlariga bulab, dumaloqlardi-da, so‘ng devorga urardi. Bolakay birovga zarda qilgandek pachoq chelakni dam-badam dast ko‘tarib yerga to‘nkarar, botinkasining bir yoni yeyilgan poshnasi bilan chelakni ustma-ust tepkilar edi. Onasi shunda ham pinagini buzmasdi. Ilontepada qizg‘in “jang” ketayotgan shunday pallada shalabbo bo‘lib ko‘mir tashiyotgan bolakayning alamidan bo‘g‘ilib yig‘lagisi kelardi...

Ko‘chada ot tuyoqlarining tanish dupuri eshitildi. Bolakay ko‘chaga otilmoqchi bo‘ldi-yu, onasiga qarab, turgan joyida bo‘shashib ketdi. Onasi xuddi quloq bilan ko‘chani ko‘rib bo‘ladiganday xiyol boshini qiyshaytirib, o‘qrayib qo‘ydi:

– Qara, birov kelganga o‘xshaydi!

Bolakay ko‘chaga otildi. Uzun chakmonli kishi darvoza ro‘parasidagi bukri tolga otini bog‘lamoqda edi.

– Ena, Tosh tog‘am!

Bolakay tog‘lar orasida yashovchi cho‘pon tog‘asini juda yaxshi ko‘rardi. Tog‘asi har gal unga g‘aroyib sovg‘alar olib kelardi. Chiroyli tosh granata, yog‘och avtomat ham shu kishining sovg‘asi edi.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 40 21/08/24 15:00

– Obbo, azamat-ey! Qo‘zivoymas, Qo‘chqorvoy bo‘lib ketibsan-ku! – deya tog‘asi girdikapalak bo‘layotgan bolakayni baland ko‘tardi. Ana shunda Qo‘zivoyning ko‘zi tog‘asining tulki telpagiga qistirilgan sap-sariq boychechakka tushib qoldi-da, uning erkalab aytgan gaplari qulog‘iga kirmay qo‘ydi. Kechagina Murod chilim boshliq bolalar loyga belanib, qirdan boychechak topolmay qaytishgan edi. Murod chilimdek odam topolmay, shalvirab qaytgan boychechakni u – Qo‘zi liliput ko‘tarib borsa, qoyil bo‘lardi-da!

Tog‘asi hovliga kirganda ham Qo‘zivoyning ko‘zi telpakda bo‘ldi. Har qancha iymansa ham, baribir o‘zini tutib turolmadi:

– Tog‘a, anovini qayerdan oldingiz?

– Aytganday, senga boychechak topib keluvdim, – dedi telpagini qo‘liga olarkan, jiyaning halidan beri boshiga javdirab turganiga endi tushungan tog‘asi. – Qara, qanday chiroyli!

– Rostdan ham mengami? – deb bolakay terisiga sig‘may irg‘ishlay boshladi.

– Ha-da! – deb tog‘asi boychechakni telpagidan avaylab olib, unga tutdi. – Anovini qara!

Qattiq yerdan qatrab chiqqan boy-che-chak!
Yumshoq yerdan yaltirab chiqqan boy-che-chak!

Qo‘zivoyning qo‘liga boychechak tegishi bilan u tevarakka loy sachratib, Ilontepa tomon shataloq otdi.

– Ur-re-e-e! – u boychechakni qo‘lida hilpiratib, toychoqdek shataloq otib chopar edi.

– Piyozini loylab ol, so‘lib qoladi! – degancha ortidan qichqirib qoldi tog‘asi.

Qo‘zivoy Ilontepaga yaqinlashganda tepaguzarliklar “tor-mor” etilgan edi. Pastguzarliklar qo‘mondoni Murod chilim qo‘llari bog‘langan “asirlar” oldida g‘o‘dayib u yoqdan bu yoqqa yurgancha ularga qanday jazo berish ustida bosh qotirardi. O‘yin qoidasiga muvofiq kimdir otuvga, kimdir osuvga, kimdir surgunga hukm qilinishi kerak.

Shafqatsizligi bilan dong taratgan Murod chilimning turqidan qo‘rqqulik edi. U “nagan”ini havoda o‘ynatgancha asabiy odimlar, belidagi qilichi, etigi qo‘njida osilib turgan ho‘l va kir paytavasi shap-shap etib boldiriga urilardi.

Nagan – aylanma barabanli to‘pponcha. Bu yerda yog‘ochdan yasalgan qo‘lbola to‘pponcha nazarda tutilgan.

– O‘rtoq qo‘mondon, dushmanlar!

Qo‘mondon bir sakrab tushdi.

“Bandi”lar yalt etib pastga qarashdi. Qo‘zivoy tepalik sari o‘rmalab kelardi. Buni ko‘rib, “asir”lar nigohidagi oniy quvonch so‘ndi: “Liliputning qo‘lidan nima kelardi? Otabek bo‘lganda...”

– Dushman qancha? – deya Qo‘zivoyning yolg‘izligini ko‘rib turgan bo‘lsa ham, soqchiga yuzlandi qo‘mondon.

– Bittaga o‘xshaydi.

– Anig‘i?

– Bitta, o‘rtoq...

“Qurollangan” uch “jangchi” bolakayni qurshab ola boshladi.

– Men o‘ynamayman! Men boychechak olib kelyapman! – deb baqirdi nafasi bo‘g‘ziga tiqilgan Qo‘zivoy. – Mana!

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 41 21/08/24 15:00

U qo‘lidagi boychechakni baland ko‘tardi. Boychechakning sap-sariq yaproqlari quyosh nurida tilladay tovlanib ketdi.

– Qayerdan topding?

– Qoyil!

Boychechakning quyosh nurida tovlanib turgan tilla yaproqchalari Murod chilimdan boshqa hammaning ko‘nglidagi gina-adovatga barham berdi. Chilim ham boychechakni ko‘rib bir entikib tushgan bo‘lsa-da, “jang”dan keyin zo‘rg‘a yetishgan lazzatli onlardan mahrum qilgani uchun Qo‘zivoyni ich-ichidan bo‘ralab so‘kdi.

– Zo‘r-ku, qog‘ozmasmi? – dedi u hammadan keyin boychechakni qo‘liga olib. – Xo‘b vaqtida kelding-da, pakashvoy. Bu endi bizniki bo‘ladi!

Uning soqqaday ko‘zlari ayyorona o‘ynab turardi.

– Nega seniki bo‘larkan? – deya chuvullashdi tepaguzarliklar.

– Sizlarni yengdikmi, yengdik! – deb baland keldi qo‘mondon. – Barcha mol-mulklaring ham endi bizniki bo‘lishi kerak.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri! – tasdiqlashdi qo‘mondonlarining aqliga qoyil qolgan sheriklari.

– O‘yin qoidasida boychechak yo‘q! – deb bo‘sh kelmadi Ro‘zivoy (Otabek kelmagani uchun bugun u qo‘mondonlik qilardi). – Bermasang, Otabekni chaqiramiz!

Murod Otabek bilan tengdosh bo‘lsa ham, undan cho‘chirdi.

– Uchgacha sanayman. Bersang berding, bo‘lmasa... Bir, ikki, ikki yarim, chorak kam uch... – Murod dovdirab qoldi. Lekin sir boy bergisi kelmadi.

– Otabek-potabeging bilan qo‘rqitolmaysan! – dedi ingichka bo‘ynini cho‘zib. – G‘irrom!

– O‘h-ho‘! Hali biz g‘irrom bo‘lib qoldikmi? – dedi bu tuhmatdan bo‘g‘ilgan Ro‘zivoy. So‘ng yonidagi bolakayga buyurdi: – Asad, Otabekka chop!

Endi katta janjal bo‘lishi aniq edi. Buni Murod ham sezdi-da, chopishga shay turgan Asadning yengidan ushlab to‘xtatdi.

– Bo‘pti, jirillayverma. Qoida bo‘yicha bizniki to‘g‘ri bo‘lsa ham, gapingga ko‘namiz. Faqat bitta shart bilan: boychechak hammamizniki bo‘ladi.

Ikki guzar bolalari “Boychechak” aytishda ham o‘zaro bellashib kelishardi. Birinchi bo‘lib “Boychechak” aytganlar anchagacha narigi guzarliklarga gap bermay yurishardi.

– Yo‘q! – deya Ro‘zivoy burilmoqchi edi, Murod qo‘ymadi.

– Shoshma, balki, Qo‘zivoy rozidir. U esli bola, har narsaga jirillayverish yaxshimasligini tushunadi. To‘g‘rimi, Qo‘zivoy?

Bolalar shundan keyingina bir chetda qolib ketgan Qo‘zivoyni eslab qolishdi. O‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q, xirmonda hozir degandek boychechagiga xo‘jayinlik qiluvchilarning ko‘payib ketganidan ezilib turgan bolakayga Muroddek mashhur “sarkarda”ning “Qo‘zivoy” deb mayin iljayishi yoqib ketdi.

– Birga aytsak, nima bo‘pti! Qaytanga, ko‘pchilik bo‘lsak, kuchuklar yaqinlasholmaydi, to‘g‘rimi?

Xijolat chekayotgan Qo‘zivoy ikkilanib qoldi.

Ro‘zivoyning jahli chiqdi:

– Ko‘nmoqchimisan uning gapiga? Bilib qo‘y, hozir boychechakni olmasang, ikkinchi sen bilan o‘ynamaymiz!

– O‘ynamasa, o‘ynamas! – deb avray boshladi Murod. – Mana, biz bormiz. Biz bilan

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 42 21/08/24 15:00

o‘ynayverasan. Sen esa yosh bolaga unaqa do‘q qilaverma, abjag‘ingni chiqarib qo‘yaman.

– Shunaqami? – deb Murodga emas, bolakayga qarab alamli hayqirdi Ro‘zivoy. – Sotqin! Ketdik, jo‘ralar!

Tepaguzarliklar Qo‘zivoyga o‘qraya-o‘qraya pastga tusha boshladilar. Esankirab qolgan Qo‘zivoy ham ularga ergashmoqchi edi, Murod to‘xtatdi.

Qo‘zivoy nimadir demoqchi bo‘ldi-yu, tomog‘iga go‘sht tiqilgandek, burnini torta-torta o‘rtoqlarining orqasidan qaragancha qolaverdi. Tepaguzarliklar ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi bilan Murod:

– Qo‘zivoy – boychechakning egasi, u boshqalardan uch hissa ortiq haq oladi! – deb e’lon qildi.

Qo‘mondonning ana shu odilligidan so‘ng bolakayning chiroyi ochilgandek bo‘ldi.

... Shomga yaqin qishloq bo‘ylab bolalarning yangroq ovozi jarangladi:

Boychechak avval bahorda ochiladi-yey, ochiladi!
Yaxshilarning qoshida sochiladi-yey, sochiladi!
Boy-chechak, bo-oy-che-chak!

Bu ovoz hali mag‘zi ilimagan dalalarga, endigina kurtaklayotgan daraxtlarga, oqimtir osmondagi yaltiroq yulduzlarga tegib, aks sado berayotgandek tuyulardi.

Reja bo‘yicha “Boychechak” aytish Fotima folbinnikidan boshlandi. Fotima folbin qishloq chetidagi hovlida yolg‘iz yashardi. Uning uch o‘g‘li urushda halok bo‘lgan, farzand dog‘i momoning ruhiga qattiq ta’sir qilgan edi. Qishloqda u haqda har xil mish-mishlar yurardi: folbin oqshomlari farishta-yu maloikalar bilan gurunglasharmish, hovuz bo‘yida ajinalar bilan nog‘ora chalib bazm qilarmish. Kimki folbinning jig‘iga tegsa, og‘zini qiyshiq, oyog‘ini shol qilib qo‘yarmish...

Hovli atrofida nurayverib yer bag‘irlab qolgan paxsa devor cho‘kib yotgan tuya, kallasi xumdek ayiq va yana allanimalarni eslatardi. Bo‘g‘otda osilib turgan yantoq pardalar shamolda chol Ibn Xattobning soqoliga o‘xshab selkillar, buralib-buralib o‘sgan jiyda tanasi bitta, boshi mingta ajdardek ko‘ngilga vahima solardi.

– Kaltagi borlar oldinga o‘tsin! – buyruq berdi Murod darvozaga yaqinlashishgach. – Kuchuk chiqsa, hech kim qochmasin! – u ovozi boricha kuylab yubordi:

Boychechak aytgan bilan to‘yamizmi-yo!
Burungilar odatini qo‘yamizmi-yo!
Bo-oy-che-chek!

Nimqorong‘i uy eshigi g‘iyqillab, savatdek sochi ustidan ro‘mol o‘rab olgan folbin chiqdi. Uzun kamzulini sudragancha hassasini to‘qillatib kelayotgan kampir alvastining o‘zginasi edi.

– O‘rgilaylar, bahor keldimi-ya? – demasa, ba’zilar juftakni rostlab qolishlari turgan gap edi.

– Bo‘lmasa-chi, mana, qarang, – deb boychechakni unga uzatdi Murod.

– Aylanib ketay bahor elchisidan. Bel og‘rig‘idan qutuladigan bo‘libman-da, – deya folbin boychechakni ko‘zlariga surtdi, yaproqlaridan avaylab o‘pdi, so‘ng qozondek ro‘molining qatlarini uzoq timirskilab nimadir oldi-da, Murodga berdi.

– Ma, suyunchi!

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 43 21/08/24 15:00

– “Qozon”ini shuncha kovlab, o‘ttiz tiyin beribdi-ya! – dedi folbinning pulini fonus yorug‘iga solib qararkan Murod, ko‘chaga chiqishgach.

– Shunisiga ham rahmat desang-chi, gap pulda emas-ku! – dedi bosiqligi va bilag‘onligi uchun “professor” nomini olgan Bahrilla. – Bechora momoning boychechakni ko‘rib sevinganini qara! Yig‘lab yubordi-ya.

– To‘qi-ya, to‘qi! – deya qo‘l siltadi Murod.

– Yig‘ladi! Men oldiginasida edim, aniq ko‘rdim, – deb shosha-pisha Bahrillaning so‘zini tasdiqladi Qo‘zivoy.

– Voy, lochinko‘z-ey, qorong‘ida odam odamni bazo‘r taniydi-yu, bu kishi kampirning ko‘zidagi yoshni ko‘rganmish! – deb masxara qildi Murod. – Keyin murosa qilgandek qo‘shib qo‘ydi: – Mayli, yig‘lasa, yig‘lagandir. To‘ridan go‘ri yaqin odamlarning bari shunaqa yig‘loqiroq bo‘ladi. Qani, yetishib-yetishib yuringlar. Birortangni hap etib kuchuk qopib olmasin tag‘in.

Bolalar keyingi hovliga yaqinlashishdi.

– Shu yerda bir zo‘r berasizlar, – dedi Murod darvozadan kirayotganlarida. – Shodmon amakining bolasi yo‘q, bir eritamiz:

Anov tomning orqasida oy ko‘rinar,
Hamma uydan mana shu uy boy ko‘rinar!

Tom ortidagi teraklar ustida jilmayayotgan to‘lin oy hovlini sutdek oqartirib yoritib yuborgan, har joy, har joyda suv ko‘llab qolgan olachalpoq supa pastida ustiga katta savat to‘nkarib qo‘yilgan so‘ri – hamma-hammasi kunduzdagidek aniq ko‘rinib turar edi. Bolalar “Boychechak” ayta-ayta so‘riga yaqinlashib kelishdi hamki, hech kim chiqmadi.

– Manovining tagida qatiqmi, qaymoqmi borga o‘xshaydi, – dedi betoqat bolalardan biri savatning tagiga boshini tiqib. – Hech kim chiqmasa, kadi-padisi bilan olib jo‘naymiz.

Xuddi shu gapni kutib turgandek orqadagi derazada qizg‘ish shu’la paydo bo‘ldi. Keng ola choponini yelkasiga tashlab olgan Shodmon amaki yo‘tala-yo‘tala chiqib keldi.

– Hey! Nega chinqirasanlar, quloq-miyani qoqib berdilaring-ku! He, o‘sha!..

Bunaqa do‘q-po‘pisani kutmagan bolalar ko‘chaga qarab qochmoqchi bo‘lishgan edi, Shodmon aka darvoza tomonini to‘sib oldi.

– Hech go‘rga bormaysanlar! Hammangni Mo‘ynoqqa talataman. Mo‘ynoq, ho Mo‘ynoq!

Qo‘rqib ketgan bolalar devor tagiga g‘uj bo‘lib olishdi. Kimdir yig‘lab yubordi.

– Kim yig‘ladi?

Churq etgan ovoz chiqmadi.

– Men demaysanmi! – deb negadir Murod Qo‘zivoyni oldinga itardi.

Qo‘zivoyning dami ichiga tushib ketdi.

– Senmiding? Yana bir yig‘la, bo‘l! Yo‘q, qo‘shiq ayt, bilasanmi qo‘shiq?

Bolakay arang boshini qimirlatdi.

– Zo‘ridan aytsang, mana shu seniki. – Shodmon aka kissasidan bir changal g‘ijimlangan pul chiqardi. – Ayt, bo‘lmasa, yeb qo‘yaman, vov-vov!

Muroddan eshitaverib miyasiga o‘rnashib qolgan so‘zlar beixtiyor bolakayning og‘zidan chiqib ketdi:

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 44 21/08/24 15:00

“Boychechak” aytib keldik eshigingizga,
Xudoyim o‘g‘il bersin beshigingizga.
Boy-che-chak...

Uning qaltiroq ovozini eshitgan Shodmon aka birdan bo‘shashib ketdi. Enkayib bolakayning yuzlarini ketmondek kafti bilan siladi. Qo‘lansa aroq isidan Qo‘zivoyning boshi aylanib ketdi.

– Yana bitta ayt, jon o‘g‘lim...

Qo‘zivoy boya aytganlarini yana takrorladi.

– Aytganing kelsin, bolam. – Shodmon aka xumdek boshini bolaning ko‘kragiga tegizib mung‘ayib qoldi.

Tabiatan kamgap va yumshoqko‘ngil bu odam ichganda fe’li aynib, o‘zgarib ketardi. Shunaqa paytda “Shodmon aka ko‘cha-ko‘yda bolalarga qand-qurs ulashib yurardi”, desalar, hech kimning ishongisi kelmasdi.

Teraklar orasidan quyilayotgan oy nuri amakining silkinayotgan yelkasini, sirg‘alib yerga tushgan ola choponini yoritib turardi. Bu g‘aroyib tasodifdan bolalar anqayib qolishdi.

– Endi ketinglar! – dedi birpasdan so‘ng boshini ko‘tarib amaki.

Qo‘zivoy Shodmon amaki bergan pullarni oliboq o‘zini darvozaga urdi, qolganlar ham chuvullab ko‘chaga yugurishdi. Fonus yorug‘ida pulni sanab ko‘rishdi: o‘n ikki so‘m! Bu – shu chog‘gacha yig‘ilgan pullarning hammasidan ko‘p edi.

– Endi ertalabgacha uxlash yo‘q!

– Bir yilda bir kun uxlamasak, o‘lmasmiz!

Shodmon amakining saxiyligi bolalarni ruhlantirib yubordi.

Ular birin-ketin hovlilarga kirib chiqa boshlashdi. Hamma xonadonda ularni quvonch bilan kutib olishar, kampir-chollar bahor elchisi – boychechakni ko‘zlariga surtishar, urushdan keyingi og‘ir davr bo‘lishiga qaramay, bolalarga qand-qurs, mayiz, yong‘oq, pul berishar edi. Pulni Murodning o‘zi olar, boshqalarini esa Ortiq degan yalpoq yuzli bola xaltaga solib, orqalab borar edi. Agar Ismat cho‘loqnikida yuz bergan hodisa bo‘lmaganda, bolalar haliberi tarqalishmasdi.

Ismat cho‘loqning dang‘illama hovlisiga qadam qo‘yishlari bilan, dimog‘ga gup etib tezak hidi urildi. Darvozaxonaga tutash molxona devorlariga biror qarich joy qoldirmay tappi yopilgan edi. Molxona oxirida laylak qilib qo‘yilgan eshakaravaning shotisi tashqariga chiqib turar, arava yonidagi ustunga bog‘langan eshak yantoq cho‘kirtaklarini kavshar edi.

Boychechagim biyrondur-ey, biyrondur,
Qozon to‘la ayrondu-urr! Boy...

Hammaning og‘zidagi og‘zida, bo‘g‘zidagi bo‘g‘zida qoldi. Osmonning tagi teshilib ketgandek, tomdan ustilariga shovullab to‘kilgan suv badanlarini junjiktirib, kiyim-boshlarini shalabbo qildi. Keyin itning yulqina-yulqina irillashi eshitildi. Dovdirab qolgan bolalar duch kelgan tomonga ura qochishdi. Qo‘zivoy jonholatda Murodning etagiga yopishdi. Murod uning qo‘liga bir urib, etagini bo‘shatdi-da: “Hamma eski saroy tomonga!” degancha tun qa’riga singib ketdi. Xayriyatki, it u tarafga qochganlarni quvdi, yo‘qsa...

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 45 21/08/24 15:00

Bolalar anchadan keyin eski saroyda to‘planishdi. Kimdir quruq xas-xashak topib, gulxan yoqdi.

Murod yerga to‘shalgan gazeta yonida cho‘kkalab, gulxan yorug‘ida yig‘ilgan pullarni sanab chiqdi.

– O‘n sakkiz so‘m.

– Yo‘g‘-e, Shodmon amakining o‘zi o‘n ikki so‘m beruvdi-ku?

– Alisherning bobosi besh, Gulsara momo uch so‘m...

– Hammasi shu! – deb bolalarning so‘zini kesdi Murod. – Itdan qo‘rqib qochganimda tushib qolganga o‘xshaydi.

Bolalar gumonsirab “qo‘mondon”ga tikilishdi.

– Ishonmayapsizlarmi? Mana, ko‘ringlar, – degancha Murod cho‘ntaklarining astarini ag‘darib ko‘rsata boshladi.

– Mayli, borini bo‘l!

– Ishonish kerak-da odamga. Menga ko‘pchilikning haqqi kerakmas! – Murod qo‘li bilan bolalarni sanadi. – O‘n ikkita ekanmiz.

– O‘n uchta!

– O‘n ikkita.

– Qo‘zivoy-chi?

– U hisobmas.

Bu gapni eshitgan Qo‘zivoyning tishi takillashdan, badani qaltirashdan to‘xtab qoldi. Bolalar ham hayron bo‘lib, “qo‘mondon”ga qarashdi.

– Ustimizdan suv quygan kim? Shuning og‘aynilari! Jo‘ralari bilan til biriktirib, bizni muzlatmoqchi bo‘lgan u liliput!

– Qo‘y-e, peshindan beri yonimizda-ku! – deb bolakayning yonini oldi Bahrilla. – Oz bo‘lsa ham berish kerak. Evi bilan-da...

– Mehribonligingni katta xolangga qilasan! – deb Bahrillaga o‘shqirdi Murod. – Iching achiyotgan bo‘lsa, o‘zingnikini bera qol!

– Nega, boychechak meniki-ku! Senga uch hissa ko‘p beraman devding-ku? – deb yig‘lamsiradi Qo‘zivoy.

– Menikimish! Ma, pishirib ye! – Murod yerga to‘shalgan gazetaning bir chetida yotgan boychechakni jahl bilan Qo‘zivoyga qarab otdi. Boychechak sal naridagi ko‘lmakka tushdi. Tillarang yaproqchalar qop-qora bulutlar qa’riga kirayotgan kuz quyoshidek balchiqqa cho‘ka boshladi. Cho‘kayotgan boychechagiga tikilgancha suratga tushayotgandek qotib qolgan Qo‘zivoyning ho‘ngragisi, dod solib depsingisi kelar, lekin tushunib bo‘lmaydigan allaqanday tuyg‘u uni gung qilib qo‘ygan, azbaroyi xo‘rligi kelganidan miq etolmas edi.

Bolalarning nigohi ham cho‘kayotgan boychechakka mixlanib qolgan edi. Ularning qalbida o‘z “qo‘mondon”lariga nisbatan nafrat hislari uyg‘ongan, lekin hech qaysisi dilidagini tiliga chiqarishga botinolmas edi. Faqat Bahrilla o‘zini tutib turolmadi. U birdan enkaydi-da, loyqaga qo‘l tiqib, boychechakni oldi.

– Shunchalikmas-da, Murod. Boychechakda nima ayb? Bu... bu...

– E-e, bu-bulayverma! – deb o‘shqirdi Murod. Agar Bahrilla yana bir og‘iz teskari gap qilsa, yoqasidan olgudek shashti bor edi uning.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 46 21/08/24 15:00

Bahrilla alamini zo‘rg‘a ichiga yutdi. Boychechakning yaproqlarini etagining uchi bilan arta-arta uni Qo‘zivoyga tutdi:

– Ma, Qo‘zivoy, xafa bo‘lma, menikini ikkovimiz bo‘lishib olamiz.

Bahrillaning mehribonligi Qo‘zivoyning sabr kosasini toshirgan eng so‘nggi tomchi bo‘ldi.

– Men... menga kerakmas! Men Usmonga bermoqchi edim. Kasal... onasi kasal uning! – deb alam bilan hayqirdi Qo‘zivoy. Keyin o‘pkasi to‘lib, ho‘ngrab yubordi.

Bu gapdan Bahrilla ham, boshqalar ham titrab ketishdi. Hatto hozirgina urushqoq xo‘rozdek hurpayib turgan Murodning vujudi ham tok urgandek zirqirardi.

Usmon Murodlarning yon qo‘shnisi edi. Urushning adog‘ida otasidan qoraxat kelgan, kasalmand onasiga qarash yolg‘iz Usmonning zimmasida edi. Murod kunora onasi pishirib bergan ovqatni Usmonlarnikiga olib chiqar, ularning ahvoli hammadan ko‘proq unga, Murodga ayon edi. U bo‘lsa... ertaga sigaret olish uchun o‘z o‘rtoqlariga shumlik qilib o‘tiribdi-ya...

Qoraxat – urush vaqtida o‘lim xabari yozilgan xatlarni ramziy shunday nomlashgan.

– Menga qara, Murod...

Murod yalt etib Bahrillaga qaradi. Bahrilla uni koyigani og‘iz juftladi-yu, yana fikridan qaytdi:

– Senga bir gapni tushuntirgandan ko‘ra... Bolalar, Qo‘zivoy juda to‘g‘ri o‘ylagan ekan. Kelinglar, hamma pulni Usmonga beramiz.

– Bo‘pti!

– Rosa sevinadi bechora Usmon, – deb chug‘urlashdi bolalar.

Murod kalovlanib qoldi.

– Nega sen indamaysan? – dedi uning jimib qolganini o‘zicha tushungan Bahrilla. – Berging kelmayaptimi? Ixtiyoring, zo‘rlamaymiz. Haqqingni ol-u...

Murod boshini shartta ko‘tardi. Bir nima demoqchi bo‘ldi. Lekin tili gapga kelmay, beixtiyor Qo‘zivoyga qarab bir qadam tashladi-da:

– Shunaqa ekan, nega boya ayta qolmading? – dedi o‘ksinib. So‘ng nafrat bilan tikilib turgan bolalarga bir qaradi-da, shartta o‘tirib etigini yechdi, paytavasi orasidan g‘ijimlangan qog‘oz pullarni olib, gazetaga tashladi.

– Juda joyiga yashirgan ekan-u! – deb yubordi kimdir.

– Bu kishi yana qo‘mondon emish...

– Men... men... – Murod sakrab turdi-da, etik, paytavasini olib, o‘zini tun quchog‘iga otdi...

– O‘zidan ko‘rsin, – dedi bolalardan biri.

Bahrilla pullarni shu holicha gazetaga o‘radi. Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazishga oshiqayotgan elchilardek guvullab Usmonlarnikiga jo‘nashdi. Oldinda pildirab ketayotgan Qo‘zivoyning shodligi ichiga sig‘masdi. Uning xayolida qo‘lidagi boychechak mash’ala singari hammalarining yo‘lini yoritayotgandek tuyular va shuning uchun ham qo‘lini baland ko‘tarib ketib borardi...

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 47 21/08/24 15:00



Keling, suhbatlashamiz

1. Qo‘zivoyning *“...birovga zarda qilgandek pachoq chelakni dam-badam dast ko‘tarib yerga to‘nkarar, botinkasining bir yoni yeyilgan poshnasi bilan chelakni ustma-ust tepki”*lashiga nima sabab deb o‘ylaysiz?
2. Bolaning Tosh tog‘asini yaxshi ko‘rishi sababini tushuntiring. Siz ham tog‘angizni yaxshi ko‘rasizmi? Nima uchun?
3. Bolalar nega aynan qari, yolg‘iz yoki farzand ko‘rmagan insonlar yashaydigan xonadonlarga borishni reja qilishdi deb o‘ylaysiz?
4. Fotima folbinning quyidagi gapiga diqqat qiling: *“Aylanib ketay bahor elchisidan. Bel og‘rig‘idan qutuladigan bo‘libman-da…”* Bahor kelishi va folbinning bel og‘rig‘idan qutulishi o‘rtasida qanday aloqa bor deb o‘ylaysiz?
5. Shodmon akaning yig‘lagani va bolalarga ko‘p pul berganining sabablarini izohlay olasizmi? Fikringizni dalillashga urining.
6. *“Cho‘kayotgan boychechagiga tikilgancha suratga tushayotgandek qotib qolgan Qo‘zivoyning ho‘ngragisi, dod solib depsingisi kelar, lekin tushunib bo‘lmaydigan allaqanday tuyg‘u uni gung qilib qo‘ygan, azbaroyi xo‘rligi kelganidan miq etolmas edi”* tasviriga diqqat qiling. Qo‘zivoyni soqov qilib qo‘ygan “allaqanday tuyg‘u” nima bo‘lishi mumkin? Taxminlaringizni asoslashga harakat qiling.
7. Nima deb o‘ylaysiz, Usmon haqida gapirganda Qo‘zivoy nega yig‘lab yubordi? Bu holat sizga qanday ta’sir qildi?
8. Atrofingizda Bahrilla kabi bolalar ko‘p bo‘lishini xohlaysizmi? Nima uchun?
9. Murodning *“...shartta o‘tirib etigini yechdi, paytavasi orasidan g‘ijimlangan qog‘oz pullarni olib, gazetaga tashladi”* tarzidagi harakatiga nima sabab bo‘ldi deb o‘ylaysiz? Bu xatti-harakatlar Murodga xos bo‘lgan qanday fazilatlardan dalolat beradi?



Uyga vazifa

Ilontepada bolalar qanday o‘yin o‘ynashayotgan edi? Aniqlay oldingizmi? Sizlar ham shunga o‘xshash o‘yinlar o‘ynaganmisiz? Bitta o‘yinni jadval ko‘rinishida tavsiflab bering.

O‘yin nomi		
O‘yin shartlari	**Kerakli jihozlar**	**O‘yin natijasi**
* * *	* * *	* * *

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 48 21/08/24 15:00

Guruhlarda ishlaymiz

1. Sinfdoshlaringiz bilan kelishib, to‘rt guruhga (A, B, D, E) bo‘lining. Guruhingiz bilan quyidagi jadvalda berilgan vaziyatlarni muhokama qilgan holda Murodning xarakteriga tavsif tayyorlang. Guruhlarning ishi tayyor bo‘lgach, “A” guruh “D” guruh bilan, “B” guruh “E” guruh bilan matnlarni almashlab o‘qiydi va baho beradi.

Boychechak uchun Qo‘zivoyni jo‘ralaridan ajratib olishi	Ismat cho‘loqning uyi oldida Qo‘zivoyni tashlab qochishi	Boychechakni jahl bilan Qo‘zivoyga qarab otishi	Hisob-kitob payti Qo‘zivoyga ulush ajratmasligi
* * *	* * *	* * *	* * *

2. a) hikoyada qo‘llangan shevaga xos so‘z, ibora, maqollarni aniqlang va yozib oling.

Shevaga xos so‘z va iboralar	Maqollar
* * *	* * *

b) shevaga xos so‘zlarning adabiy tildagi muqobilini aniqlang.

Shevaga xos so‘zlar	Adabiy tildagi muqobili
* * *	* * *

3. Hikoya matni ichida berilgan “Boychechak” qo‘shig‘ining parchalarini bir butun holida daftaringizga ko‘chiring. Ijodiy davom ettirishga harakat qiling. Shuningdek, qo‘shiq matni bilan bog‘liq so‘zlardan lug‘at tuzing.

Uyga vazifa

Abdusaid Ko‘chimovning quyida berilgan “Hovlidagi maydoncha” hikoyasini o‘qing. Sizni o‘ylantirgan o‘rinlarni ustozingiz bilan muhokama qilish uchun belgilab oling. Navbatdagi darsda esa ustozingiz bilan savol-topshiriqlar ustida ishlang.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 49 21/08/24 15:00

Zavqli mutolaa

Hovlidagi maydoncha

(hikoya)

I

Ko‘p qavatli uylar orasidagi kaftdekkina maydon. Uch bola quvlashmachoq o‘ynayotir. Kichigi ayiqchaday lapanglab, qiyqirib-qiyqirib qochadi. Yoshi kattaroq ikki sherigi jo‘rttaga tuyaga o‘xshab lo‘killaydi. Kichkina oynaday yarqirab ketgan sirpanchiqni, suvi qurib qolgan hovuzchani aylanib chopadi.

– Salim, oldini o‘ra! – qichqiradi quvayotganlarning biri. – Hozir ushlaymiz!

Salim shartta orqasiga burilib, bolakayning oldini to‘sib chiqa boshlaydi. Qurshovga tushayotganini sezgan kichkintoy hovuzchaning yaltiroq toshlar bilan suvalgan devoridan oshmoqchi bo‘layotganida...

– Ushladik! Ushladik! Urre! – qiyqiradi Salim.

– Zo‘r choparkansan-ku! – hansirab turgan bolakayni maqtaydi Oybek. – Raketa-ya, raketa!

Maqtovdan og‘zi qulog‘iga yetgan kichkina yulqinadi, talab qo‘yadi:

– Yana quvinglar, endi hecham ushlolmaysizlar.

– Birpas dam olaylik, toza charchatding-ku!

– Vuy, shungayam charchaydimi odam? – bolakay bir yulqinib “asir”likdan qutuladi-da, yana qochadi. – Ushlolmay-siz-lar, ushlolmay-siz-lar!

Salim hamrohiga mug‘ombirona iljayadi:

– Oybek, quvamizmi?

– “Davay”!

Qiyqiriq, ushla-ushla... Bolakay sira tutqich bermaydi. Qurshovlarni ustalik bilan yorib o‘tadi. Maydoncha qirg‘og‘idagi beton ariqchadan sakramoqchi bo‘lganida... oyog‘i toyib yiqilib tushadi. Yuzi ariqchaning qirrasiga borib uriladi. Jon achchig‘ida yig‘lab yuboradi. Burnidan qon oqadi. Rangi oqarib ketgan Oybek kela solib, uni turg‘izadi, yupatmoqchi bo‘lib, allanimalarni g‘o‘ldiraydi, burnidan oqayotgan qonni etagi bilan artadi. Ulardan ikki-uch qadam narida turgan Salim bo‘lsa, halloslab kelayotgan ayolni ko‘rib qoladi. U:

– Oybek, qoch, ayasi kelyapti, o‘ldiradi! – deydi-da, burila solib, ura qochadi.

Oybek hadeb o‘zini yerga otmoqchi bo‘layotgan bolakayni mahkam quchoqlaganicha javdirab, dovdirab turaveradi.

Darg‘azab ayol hayhaylagancha kelib, Oybekning yuziga tarsaki tortib yuboradi. Uning quchog‘idan bolani yulqib oladi.

– Chigitday go‘dakni qoniga bo‘yagan qo‘llaring sinsin, iloyim! O‘ldirib qo‘yay debsan-ku, bolam bechorani! – shang‘illaydi u.

Oybek katta-katta ochilgan ko‘zlarini ayolga tikadi. Bir nima demoqchi bo‘ladi, tomog‘iga mushtdek suyak tiqilib qolganday ovozi chiqmaydi.

– He, ko‘zing hakkaning ko‘ziga o‘xshamay o‘l! – battar tutaqadi ayol. – Odam gapiryaptimi, it huryaptimi demaydi-ya!

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 50 21/08/24 15:00

Ayol hamon bo‘g‘ilib yig‘layotgan bolani yetaklab, shang‘illay-shang‘illay uylardan biriga kirib ketadi.

Hech narsaga tushunolmay, esankirab qolgan Oybek qotib qoladi. Yig‘lagisi keladi...

– Senga aytdim-ku, nimaga qochmading? – deydi ayol ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi bilan osmondan tushganday yonginasida paydo bo‘lgan Salim. – Kallang bormi? Bu yalmog‘iz kampir-ku!

Haliyam o‘ziga kelolmayotgan Oybek birdan yig‘lab yuboradi.

– O‘zingdan ko‘r, qochib ketganingda-ku... Bunaqa paytda kallani ishlatish kerak-da, kallani!

Tahqirlangan Oybek bir Salimga, bir “yalmog‘iz kampir” ketgan tomonga qaraydi-yu, alamiga chidolmay, uyi tomon yugurib ketadi.

– Yig‘lab bo‘lib tush, yana o‘ynaymiz! – orqasidan qichqiradi Salim. Keyin o‘ziga o‘zi gapirayotganday qo‘shib qo‘yadi. – Vaqtida qochganida-ku... Mayli, bundan keyin pishiq bo‘ladi. – Salim o‘zining hushyorligidan mamnun iljayadi...



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 51 21/08/24 15:00

* * *

– Kim urdi? Nimaga yig‘lading?

– Haligi... Kamol yiqilib tushuvdi, turg‘izayotsam... ayasi kelib urdi.

– Qaysi Kamolning ayasi? Anavi yalmog‘izmi? He, odam bo‘lmay ketsin! Bolalarning o‘yiniga aralashadimi tuyaday xotin! Shoshmay tursin hali, ertaga bir ko‘ray uni. O‘zi hamma ayb senginada. Yiqilsa, yiqilib yotavermaydimi? Turg‘izib nima qilasan?

– Yomon yiqiluvdi-da, burniyam qonab ketdi. Salim ham bor edi. U qochib qoldi.

– Qonasa, senga nima! Qochib qopti-ku Saliming! Ikkinchi birovning tarafini olma. Agar yana shunaqa qilganingni ko‘rsam...

Ona o‘g‘lini xo‘p koyidi.

II

O‘sha maydoncha. Bolalar ikki tarafda turnaday tizilishib, “Oq terakmi, ko‘k terak?” o‘ynashmoqda.

– Oq terakmi, ko‘k terak,

Bizdan sizga kim kerak?

– Oybek kerak, Oybek kerak!

Oybek ikki-uch qadam tislanib, kaftiga tuflaydi, qo‘llarini bir-biriga ishqab, gavdasini xiyol oldinga egadi, betoqatlik bilan depsinayotgan “raqiblar” tomon shiddat bilan yugurib ketadi. Saf chirt uziladi, Oybek tezligini to‘xtatolmay cho‘kkalab qoladi. Shilingan tizzasi tuz sepganday achishadi. U irg‘ib turib, yengilgan raqibini chapaklar ostida yetaklab qaytadi.

Bir zumlik qiy-chuvdan so‘ng yana quvnoq hayqiriq jaranglaydi:

– Oq terakmi, ko‘k terak,

Bizdan sizga kim kerak?

– Omon kaltacha kerak!

Safning eng chetidagi Omon kaltacha “baribir yutqizaman” deganday bir nafas ikkilanib turib qoladi.

– Chopmaysanmi?! – qistashadi u tomondagilar.

– Joning boricha yugur, qo‘rqma! – dalda berishadi bu tomondagilar.

Kaltacha safning bo‘shroq joyini ko‘zlayotgan bir paytda u tomondagi Turdi yonida turgan Ahmadning qulog‘iga pichirlaydi:

– Hozir kaltachani boplaymiz.

Kaltacha qo‘lini osiltiribroq turgan Turdini mo‘ljallab yugurib kelaveradi. Ikki qadamcha qolganda ko‘zini chirt yumib, ko‘lmakka sakragan baqaday Turdining qo‘liga o‘zini otadi. Xuddi shu daqiqa Turdi sherigining qo‘lini qo‘yib yuboradi. Omon bor bo‘yi bilan gup etib yerga tushadi. Bir dam qimirlolmay yotib qoladi. Joyidan turmoqchi bo‘lganida og‘riqning zo‘ridan ingrab yuboradi. Kaftiga, tizzasiga toshchalar kirib ketgan... Qiyqirib kulavergani dan Turdining ko‘zidan yosh chiqib ketgan... O‘yin buziladi. Bolalar Omonni qurshab oladilar. Kimdir suyab turg‘izmoqchi bo‘ladi. Peshonasi qashqa bo‘lgan Omon “vuy, oyog‘im”lab joyidan turolmaydi. Hammasini ko‘rib turgan Oybek Turdini jerkiydi:

– Nega unday qilding? Odammasakansan-ku!

– Nima qippan?

– Qo‘lingni qo‘yib yubording-ku, o‘yinbuzuqi! – Oybek xuddi urishqoq jo‘jaxo‘rozday Turdiga xezlanayotganida Salim tutib qoladi. Shivirlab dashnom beradi:

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 52 21/08/24 15:00

– Ahmoqmisan? Aralashib nima qilasan? Akasi “nastoyashiy xuligan”-ku! Aytsa, bir urib, majaqlab tashlaydi.

Shu payt boyadan beri Omonning tevaragida girdikapalak bo‘layotgan Ahmad kelib Turdining orqasiga bir tepadi.

– Nimaga qo‘limni qo‘yib yubording?! Oyog‘i sinay depti-ku! – Turdi o‘zini o‘nglaguncha Ahmad uni yiqitib, ustiga minib oladi. Turdi dodlaydi. Bolalar uni zo‘rg‘a ajratishadi. Turdi “voy, aka, voy, aka”lab uyiga qarab chopadi. Zum o‘tmay, patila-patila sochlari peshonasiga tushgan, maykasining ko‘kragiga karatechilarning rasmi solingan bir bola – “nastoyashiy xuligan” hovliqib yetib keladi.

– Tomoshaning zo‘ri endi bo‘ladi! – hayajonli iljayadi Salim.

“Nastoyashiy xuligan” kela solib, Ahmadning yoqasidan oladi. Chalib yiqitadi. Bosvolib do‘pposlaydi. To‘polonni tomosha qilayotgan Oybek xuddi musht o‘zining boshiga tegayotganday qunishib turadi. Ahmadga yordam bergisi keladi-yu, yuragi dov bermaydi.

– Hadeb birovlarning o‘rtasiga tushganning jazosi – shu, – deydi kaltaklangan Ahmad yig‘lab ust-boshini qoqayotganida Salim Oybekka. – Agar gapimga kirmaganingda seni bundan battar qilardi.

Yuragi har qancha achisa ham, Oybek kaltak o‘ziga tegmaganidan ichida quvonadi. Salimning hushyorligiga tan beradi.

* * *

– Oyi-chi, bugun zo‘r urish bo‘ldi! “Nastoyashiy xuligan” Ahmadni rosa do‘pposladi.

– Yana oraga tushdingmi?!

– E-e, jinnimanmi! Tekin tomosha ko‘rdim maza qilib.

– Barakalla, ana endi esing kiribdi. Aralashma unaqa janjal-to‘polonlarga. O‘zingdan boshqa bilan ishing bo‘lmasin.

Ona o‘g‘lidan mamnun bo‘ldi.

III

Gupullab laylak qor yog‘moqda. O‘sha maydoncha. Atrofda ming-minglab kapalaklar uchib yurganday. Yaltiroq muz bilan qoplangan hovuzchada bolalar yaxmalak uchishyapti. Ikki yuzi qizg‘aldoqdek qip-qizarib ketgan Oybekning sevinchi ichiga sig‘maydi. U chopqillab keladi-yu, muz yo‘lakda qushday uchib sirg‘anadi. Ana, u qorni g‘arch-g‘urch bosib yugurib kelyapti. Muz yo‘lakka yetay deganda... Turdi oyog‘ini chalib yuboradi. Oybek chir aylanib borib, zarb bilan hovuz devoriga uriladi. Quvonchdan terisiga sig‘may ketgan Turdi qornini changallab kuladi. Alamiga chidolmagan Oybek qanday turgani, Turdining yoqasiga yopishgani va qanday qilib uning tagiga tushib qolganini anglolmay qoladi. Ustiga minib olgan Turdi pishillab uning yuz-ko‘ziga uradi, tizzasi Oybekning qorniga qoziqday botadi. “Yerga qarab olmasam, hozir qornimni teshib yuboradi bu xomsemiz”. U kuchana-kuchana qorga ko‘ksi bilan yotib olishga muvaffaq bo‘ladi. G‘alabadan ruhlangan Turdi uning boshiga qor ishqaydi, yoqasidan qor tiqadi. Oybek Turdining tagida ilonday to‘lg‘anadi, chiqib ketmoqchi bo‘ladi. Uning ojizona urinishlaridan zavqlangan bolalar bir-birini turtkilab xoxolab kulishadi. “Bittasiyam ajrataylik demaydi-ya” – Oybekning yomon xo‘rligi keladi...

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 53 21/08/24 15:00

* * *

– Kim bilan yoqalashding? Paltongni kim yirtdi deyapman senga?!

– Tur... Turdi urdi.

– Urdi?! Nega urarkan? Hech kim bilan janjallashma demaganmidim senga!

– O‘zi boshladi. O‘ynayotuvdik, chalib yiqitdi. Ishonmasangiz, bolalardan so‘rang, barisi ko‘rib turuvdi.

– Ko‘rib turuvdi?! Ko‘rib turib, indamay tomosha qip o‘tirdimi? Ajratib qo‘yaylik degan gap chiqmadimi birontasidan?.. Chiqmaydi, chiqmaydiyam! Bola emas bular. Ikkitasini mushtlashtirib qo‘yib, tomosha qilish bo‘lsa ularga. Yo tavba! Yo tavbangdan! Nega buncha beoqibat bo‘lib o‘syapti-ya bu bolalar!

G‘azabi qo‘zigan ona hayrat va alam bilan yoqasini ushladi...

Keling, suhbatlashamiz

Hikoya bo‘yicha quyidagi 1–3-qadamlarni sinfda, 4-qadamni esa uyda bajaring.

1-qadam. Hikoyani o‘qish davomida sizni o‘ylantirgan savol paydo bo‘lgan bo‘lsa, uni ustozingizga bering va javobini diqqat bilan tinglang. Agar savollaringiz bo‘lmasa, keyingi qadamga o‘tishingiz mumkin.

2-qadam. Hikoyadagi ***bolalar obrazi*** bo‘yicha quyidagi savollarni muhokama qiling:

1. Hikoyaning birinchi qismidagi Salim, Oybek va Kamolning o‘zaro munosabatiga baho bering. Salim bilan Oybek o‘zlaridan kichkina Kamol bilan qanday o‘ynaganlarini tahlil qiling.
2. Bolakay Kamol yiqilib tushganida Oybek o‘zini qanday tutdi? Salim-chi? Siz ularning qaysi birini yoqlaysiz? Javobingizni asoslang.
3. Asarning ikkinchi qismida Turdining qilmishi sizda qanday taassurot qoldirdi? Xatti-harakatlaridan kelib chiqib unga xos sifatni aniqlang. U ulg‘aygach, qanday odam bo‘lishi mumkin deb o‘ylaysiz?
4. Sizningcha, Oybek ulg‘ayib, qanday odam bo‘ladi? Javobingizni izohlang.

3-qadam. Hikoyaning ***umumiy mazmuni*** bo‘yicha quyidagi savollarni muhokama qiling:

1. Hikoyadagi kabi holatlar sizning hayotingizda ham yuz berishi mumkin. Bu sizning yaxshi odam bo‘lib shakllanishingizga qay darajada ta‘sir qiladi? Fikr-mulohazalaringizni bildiring.
2. Qitmirlik sifatining xususiyatlarini ochib berishga urinib ko‘ring. Nima deb o‘ylaysiz, qitmirlik fazilatmi yoki illat? Javobingizni hikoya qahramoni Turdi misolida izohlashga urining.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 54 21/08/24 15:00



Uyga vazifa

4-qadam. Hikoyadagi ***onalar obrazi*** bo‘yicha quyidagi savol va topshiriqlarga javob tayyorlab keling.

1. Kamolning onasi qilgan ishga munosabat bildiring. Uni o‘z onangiz bilan taqqoslang. Kamolning o‘rniga o‘zingizni qo‘yib ko‘ring. Shundan kelib chiqib, onalarning o‘xshash va farqli jihatlarini ayting.
2. Hikoyaning 3-qismida Oybekning onasi o‘g‘liga bergan tanbehlarga diqqat qiling va uch o‘rindagi tanbehlarga alohida-alohida munosabat bildiring.
3. *“Ko‘rib turuvdi?! Ko‘rib turib, indamay tomosha qip o‘tirdimi? Ajratib qo‘yaylik degan gap chiqmadimi birontasidan?.. Chiqmaydi, chiqmaydiyam! Bola emas bular. Ikkitasini mushtlashtirib qo‘yib, tomosha qilish bo‘lsa ularga. Yo tavba! Yo tavbangdan! Nega buncha beoqibat bo‘lib o‘syapti-ya bu bolalar!”* Onaning g‘azab, hayrat va alam bilan aytgan ushbu fikrlarini sharhlashga harakat qiling. Onaning xavotiri sabablarini tushuntirib bering.
4. Bolalar tarbiyasi va ularning yaxshi inson bo‘lishida onalarning o‘rnini qanday baholaysiz? Fikringizni dalillang.



Topshiriq

Hikoyadagi vaziyatlardan kelib chiqib, Kamol va Oybekning onalarini taqqoslang hamda quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Kamolning onasi xatti-harakatlariga mening munosabatim	Oybekning onasi xatti-harakatlariga mening munosabatim
* * *	* * *

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 55 21/08/24 15:00



Tanishing: MATNAZAR ABDULHAKIM

Matnazar Abdulhakim 1948-yili Xorazm viloyatida tavallud topgan. U iste'dodli shoir, zukko adabiyotshunos, mohir tarjimon sifatida xalqimiz orasida e'tibor va e'zoz topgan ijodkordir. Shoir mumtoz adabiyotni puxta bilar, Navoiy va Ogahiy ijodining shaydosi edi.

Ilk she'rlarini boshlang'ich sinfda o'qib yurgan kezlari yozgan Matnazar Abdulhakim bolalik davrlarini bunday eslaydi: *"Maktabimizda Solihajon opa ismli kutubxonachi bo'lardi. Kitoblarni qaytib berayotganimizda mutolaa taassurotlarini bilish uchun ozorsiz bir imtihon o'tkazardi. Shu bois kutubxonaga yo'l olayotib, Solihajon opaning oldilarida mulzam bo'lib qolmaslik uchun o'qigan kitoblarimizni qaytadan ko'zdan kechirib olardik. Bu esa kitobxon sifatida shakllanishimga barakali ta'sir ko'rsatgan".*

Shoir 2010-yili vafot etgan.



Mutolaadan oldin...

Suratdagi ushbu yodgorlik ustoz-muallimlarga cheksiz hurmat ramzi sifatida bunyod etilgan. "Muallimga mangu ehtirom" deb nomlangan bu haykal Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumani Bo'ston shaharchasida o'sha vaqtdagi tuman hokimi Ne'matulla Xudoyberganov taklifi bilan 2002-yili qad rostlagan.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 56 21/08/24 15:00

Bilasizmi, ushbu yodgorlik Matnazar Abdulhakimning bugun siz mutolaa qiladigan “Darsdan so‘ng…” she’ri asosida o‘rnatilgan. She’rni o‘qishdan oldin quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling:

1. Sizningcha, mas’uliyatli o‘quvchi qanday bo‘ladi? O‘zingizni intizomli o‘quvchi deb ayta olasizmi? Fikrlaringizni asoslang.
2. Uy vazifasini bajarmay kelgan paytlarda o‘zingizni qanday his qilasiz?

Zavqli mutolaa

Darsdan so‘ng...

Kimnidir koyidi chekkani uchun,
Tortib olib qo‘ydi gugurtini ham.
Mashq daftarlarin yig‘di-da, so‘ngra
Bir-bir sanab ko‘rdi. Yetti daftar kam.


“Har gal shunday ahvol. Uyalmaysizmi?
Kelasiz o‘qishmas, qilish uchun sayr.
Bu safar ham ikki qo‘ymay turaman,
Ertaga qolganlar topshirsinlar. Xayr”...

Hamkasb dugonasi qistovga tutib,
“Tunab keting, – dedi. – Kech bo‘lib qoldi”.
Ko‘nmadi. Qo‘ltiqlab mashq daftarlarin,
Uyga yolg‘iz o‘zi yayov yo‘l oldi.

Ovul tugab, endi qirga chiqqanda
Oqshom quyuq edi, atrof zim-ziyo.
Yo‘ldan qaytmoqchi ham bo‘ldi bir o‘yi,
“O‘g‘lim xastalanib qoldimikan yo...”

Yuragini battar vahima bosdi,
Qamradi tundan ham battar bir qo‘rquv.
O‘nqirmi, cho‘nqirmi, o‘rmi, qir demay,
Yana ketaverdi, ketaverdi u.

Mudhish bir sharpani ilg‘adi nogoh,
Razm solsa – qashqir. Qilardi ta’qib.
Esladi yirtqichning qo‘rqishin o‘tdan,
Iziga bir daftar tashladi yoqib.



Ovul – kichik qishloq.

Qashqir – bo‘ri.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 57 21/08/24 15:00

Tanishing: MATNAZAR ABDULHAKIM

Qashqir to‘xtab qoldi. So‘ng – yana, yana,
Muallima omon topgan bu olov
Yirtqichga berardi ilojsiz sabr.
Yo‘lovchi – yoqardi, qashqir – to‘xtardi,
Tin olardi ikkov har daftarda bir.

Yo‘l uzoq, tun qaro, qashqir esa och,
Och yirtqich bilarmi nadir sadoqat?
Uyga yaqin qolgan vaqtda tugadi
Muallimda daftar, qashqirda – toqat.

Uvvos fig‘on tutdi qishloqni tongda,
Zamin aza ochdi, zamon yig‘ladi.
Daftar topshirmagan yetti o‘quvchi
Hammadan ham yomon yig‘ladi...

No‘noq nazmim uchun afv et, xalqim,
Na olim, na fozil, na so‘z piriman.
O‘z vaqtida daftar topshira olmay
Qolgan bolalarning biriman.

Men yaxshi bilaman, tumor qilmaydi
Yozgan she’rlarimni oshiqlar.
Men yaxshi bilaman, qo‘shiqlarim jo‘n,
Bilaman, bular – bir oddiy mashqlar.

No‘noq – epsiz, noshud, uddaburon emas.


Jo‘n – oddiy, sodda.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 58 21/08/24 15:00

Tanishing: MATNAZAR ABDULHAKIM

Lekin... ketmakdasan kelajak sari
Tap tortmay qismatning dasht, qirlaridan.
O‘zimcha asragim keladi seni
Yovuzlik, xiyonat qashqirlaridan.

Men mashq bajaraman, yozaman har kun
Daraklar, so‘roqlar, xitoblarimni.
... Sen yo‘l bo‘yi yoqib, tashlab ketaver
Qashqirlar qo‘rqquvchi kitoblarimni.



Keling, suhbatlashamiz

1. She’r sizga qanday ta’sir qildi? Taassurotlaringizni aytib bering.
2. O‘qituvchining uy vazifasini bajarmay kelgan o‘quvchilarga vaqtincha ikki baho qo‘ymay turishining sababi haqida o‘ylab ko‘ring. Nega shunday qilgan bo‘lishi mumkin? Fikringizni asoslang.
3. O‘qituvchi uyga keta turib nima uchun ikkilandi deb o‘ylaysiz? Shu vaziyatda siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?
4. Sizningcha, o‘qituvchi qalbidagi qo‘rquvdan ham kuchli tuyg‘u nima bo‘lishi mumkin? Bu ayniqsa qaysi bandda aniq namoyon bo‘lgan?
5. O‘z vaqtida daftar topshirmagan o‘quvchilarning iztiroblarini tahlil qiling. Ularning holatiga munosabat bildiring. Shoirning o‘zi ham o‘sha daftar topshirmagan o‘quvchilardan biri ekaniga diqqat qarating.
6. Shoir *“O‘zimcha asragim keladi seni Yovuzlik, xiyonat qashqirlaridan”* misralarida *“yovuzlik, xiyonat qashqirlari”* deya nimalarni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin? Shoir sizni nimalardan asramoqchi?
7. She’rning so‘nggi misralariga diqqat qiling: *“Sen yo‘l bo‘yi yoqib tashlab ketaver Qashqirlar qo‘rqquvchi kitoblarimni”.* Shoir nega bunday maslahat beryapti? Bunda qanday ma’no bor deb o‘ylaysiz?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 59 21/08/24 15:00



Uyga vazifa

She’r bo‘yicha qisqa taqriz tayyorlang.
Taqrizni quyidagi ruknlar asosida oq qog‘ozga (A4) yozib keling.

Asar qahramonlari

Tushunarsiz so‘zlar lug‘ati


Eng hayajonli lavhalar

Asardan olingan hayotiy saboq

Taassurotlar

Asar qahramonlaridan biriga maktub

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 60 21/08/24 15:00



Tanishing: SHARQ HIKOYAT VA RIVOYATLARI

Sharq xalqlari og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan teran ma’noli hikmatli so‘zlar, ibratli hikoyat va rivoyatlarni qadimdan sevib tinglagan, ularda aytilgan pand-nasihatlarga amal qilib yashashga intilgan. Shuning uchun ham hikmatlar Sharq adabiyotining asosi hisoblanadi. Hajman qisqa, mavzu jihatidan rang-barang hikoyatlarda hayotiylik, rivoyatlarda esa tarixiylik aks etadi.

Rivoyat va hikoyatlar odatda ixcham bo‘ladi. Turli hayotiy va to‘qima voqeliklar orqali milliylik va umuminsoniylik ulug‘lanib, insonparvarlik, ezgulik, yaxshilik tushunchalari vahshiylik, yovuzlik va boshqa illatlarga qarshi qo‘yiladi.

Bilib oling

Rivoyatlar mavzusi, mazmuniga ko‘ra tarixiy va toponimik turlarga bo‘linadi.

Tarixiy rivoyatlarda biror shaxs faoliyati yoki xalq qahramonlari bilan bog‘liq ibratli voqealar hikoya qilinadi, insoniy fazilatlar tarannum etiladi. To‘maris, Shiroq kabi afsonaviy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir. Tarixiy rivoyatlar voqealarga guvoh bo‘lganlarning, ko‘rgan-bilganlarning esdaliklari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 61 21/08/24 15:00

Toponimik rivoyatlarda shahar, qishloq, qo‘rg‘on, saroy, maqbaralar nomlari hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog‘liq voqealar hikoya qilinadi. Toponimik rivoyatlar xotimasida odatda ushbu hikoyadan maqsad ta’kidlanadi va muayyan ma’lumot izohlanadi (“To‘rabek xonim maqbarasi”, “Anda jon qoldi”, “Odinajonim”, “Qo‘ng‘irot” va hk.).

Rivoyatlar og‘zaki ijod namunasi bo‘lgani uchun bizgacha asosan og‘zaki hamda qisman yozma shaklda yetib kelgan. Herodotning “Tarix”, Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye’”, Xondamirning “Makorim ul-axloq” kabi asarlarida rivoyatlarning qadimiy namunalari keltirilgan.


O‘ylab ko‘ring

1. Hikoyat va rivoyatlarning asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib, bizgacha yetib kelishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
2. Ibratli hayot kechirish deganda nimani tushundingiz? Umr yo‘li boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan insonlardan kimlarni bilasiz?

Zavqli mutolaa

Ibn Sino shogirdlari

Tabiblarning tabibi, ulug‘ hakim Ibn Sino kunlardan bir kuni qattiq og‘rib, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib olibdi. Shunda shogirdlari, eng yaqin do‘st-birodarlari yig‘ilishibdi. Yor-do‘stlari yaxshi so‘z aytib, ulug‘ tabibning ko‘nglini ko‘tarishga, kayfiyatini yaxshilashga harakat qilsa, shogirdlari ustozini dori-darmon bilan davolashga kirishibdi.



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 62 21/08/24 15:00

Ibn Sino do‘st-birodarlariga rahmatlar aytib, shogirdlariga esa shunday debdi:

– Ey shogirdlarim, kunim bitgan ko‘rinadi. Shu bois meni davolayman deb behuda harakat qilmanglar. Bordi-yu kunim bitib, vafot etsam, yig‘i-sig‘i, oh-voh qilib o‘tirmanglar. Faqat haqqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsangiz bas. Ustoz olamdan o‘tdi, endi tabobat oqsaydi deb ham qayg‘urmanglar. O‘rnimga besh zo‘r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shu tabiblarning maslahatlariga o‘zingiz ham doim amal qiling, boshqalarni ham da’vat eting, – debdi. Shogirdlaridan biri:

– Ustoz, siz aytgan tabiblar kim? – deb so‘rabdi. Shunda Ibn Sino:

– Men qoldirib ketayotgan zo‘r tabiblarimning biri – tozalik, ikkinchisi – parhez, uchinchisi – badantarbiya. Qolgan ikkisi esa mizoj bilan kayfiyatdir. Doimo pokiza, ozoda bo‘lish, ko‘ringan narsani, ya’ni har qanday ovqatni yeyavermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, ovqatlanishda parhez, me’yorni bilish, ichkilikka ruju qo‘ymaslik, tana a’zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mizojni unutmaslik va nihoyat kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish – mana shularga amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, bevaqt o‘lim ham orqaga chekinadi.

Mizoj – inson tabiati, xulq-atvori; kishi organizmining o‘ziga xos talabi.

Keling, suhbatlashamiz

1. O‘ylab ko‘ring-chi, Ibn Sino aytgan besh tabib sizning hayotingizda qanday o‘rin tutadi? Siz ularning qay biriga amal qilasiz?
2. Pokizalikni yaxshi ko‘rasizmi? U insonni nimalardan asraydi?
3. **Ko‘ngli toza** iborasining besh tabibdan biri deya e’tirof etilgan *tozalikka* aloqasi bormi? Fikringizni asoslang.
4. Yaxshi kayfiyatda bo‘lishning salomatlikka qanday ta’siri bor deb o‘ylaysiz? Sizning kayfiyatingizga nimalar yaxshi, nimalar yomon ta’sir qiladi? Sanab bering.

Non hurmati

Mirzo Ulug‘bek mulozimlari bilan ketayotganida yo‘l yoqasida yotgan bir burda nonni ko‘rib qolibdi va darrov otdan tushib, uni qo‘yniga solibdi. Mulozimlardan biri:

– Sultonim, nega bizga buyurmay, o‘zingiz otdan tushdingiz? – deb so‘raganida shunday javob beribdi:

– Nonni birinchi bo‘lib men ko‘rdim, shunday ekan, uni yerdan olishni boshqa birovga buyurish mening nonga nisbatan hurmatsizligim bo‘lar edi. Nonning ulug‘ligi oldida mening podshohligim nima bo‘libdi?!



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 63 21/08/24 15:00



Keling, suhbatlashamiz

1. Mirzo Ulug‘bekning shaxsiyati haqida sizda qanday tasavvur uyg‘ondi?
2. E’zozlash deganda nimani tushunasiz? U insonning qaysi xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi?
3. Rivoyat mazmuniga mos keluvchi maqollardan namunalar keltiring.



Topshiriq

Siz uchun qadrli bo‘lgan ne’matlarning hayotingizdagi o‘rni, ahamiyati haqida o‘ylab ko‘ring. Ularni isrof qilmaslik uchun qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz? Topshiriqni daftaringizda bajaring.

Ne’matlar	Qay tarzda isrof bo‘lmoqda?	Yechim
* * *	* * *	* * *
* * *	* * *	* * *



Uyga vazifa

Ibn Sino tavsiya qilgan besh tabibga yana nimalarni qo‘shgan bo‘lardingiz? Javobingizni asoslab, matn ko‘rinishida yozing.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 64 21/08/24 15:00

Zavqli mutolaa

Ota vasiyati

Qadim zamonda bir kambag‘al dehqon bo‘lgan ekan. Uning hovlisida toklar bor ekan. Shu tokdan olgan hosilini sotib, qishin-yozin tirikchilik qilarkan. Bir kuni dehqon betob bo‘lib yotib qolibdi. Shunda u yolg‘iz o‘g‘lini yoniga chaqirib, bunday debdi:

– O‘g‘lim, mening kunim bitganga o‘xshaydi. Senga aytadigan bir gapim bor. Shuni qulog‘ingga quyib ol. Toklarimiz tagiga ikki xum tilla ko‘milgan. Shu tillani yilda ikki marta – bahor va kuzda kovlab olib, tirikchiligingga yaratgin. Zora shu bilan boyib ketsang.

Otasi shu gaplarni aytibdi-da, olamdan o‘tibdi. Bu payt qish ekan, bola bahorni orziqib kutibdi. Bahor ham kelibdi. Yigit ketmonni qo‘liga olib, toklarning tagini belbog‘ bo‘yi qilib kovlab chiqibdi. Biroq oltin topilmabdi. Shu orada toklar sho‘ra chiqarib, yaproq yoza boshlabdi. Yigit tilla qidirishni vaqtincha to‘xtatib, tok bilan ovora bo‘lib qolibdi. Shu yili tok chunonam hosil beribdiki, yigit uni sotib tamom qilolmabdi. U “Otam toklar tagiga ko‘milgan tillalarni ikki marta – bahor va kuzda kovlab olgin, degan edilar”, deya kuzda ham kovlabdi.

Kelasi yili ko‘klamda ham yigit oltin qidirib, bog‘ning tit-pitini chiqarib yuboribdi. Yana oltin topilmabdi. Biroq bu yil tok o‘tgan yilgidan ham ko‘p hosil beribdi. Yigit uni sotib, juda ham boyib ketibdi. Lekin xayoli hamon otasi aytgan oltinda ekan. U shu to‘g‘rida xayol surib o‘tirganida, otasining qadrdon do‘sti kelib qolibdi. Yigit unga voqeani aytgan ekan, chol xoxolab kulibdi-da, keyin:

– Bolam, otang aytgan oltinlarni kovlab olibsan-ku, – debdi.

– Otaxon, bahorda ham, kuzda ham kovlab, bog‘dan bir misqol ham oltin topganim yo‘q, – debdi yigit.

– Nega yolg‘on gapirasan? Bo‘lmasa, bu boyliklarni qayerdan orttirding? – deb so‘rabdi chol.

– Mehnat qilib topdim.

– Sen mehnatni hosil olish uchun emas, oltinni topish uchun qilding. Mehnating zoye ketmadi. Bahor va kuzda ishlov berilgan toklar hosilini ayamadi. Otang rahmatli ko‘p aqlli odam edi. U senga mehnatdan unadigan oltinlarni aytgan, – debdi chol.

Haqiqatni tushunib yetgan yigit otasidan minnatdor holda toklarini har yili ikki marta parvarish qilib, mo‘l hosil olaveribdi.

Keling, suhbatlashamiz

1. Nima deb o‘ylaysiz, yigit vasiyatning mohiyatini nega avvalroq anglab yetmadi? Otaning nasihatini dastlab siz qanday tushundingiz?
2. Sizningcha, mehnat chindan ham baxt keltiradimi? Boylik-chi? Fikringizni hayotiy misollar bilan dalillang.
3. Ota-onangiz yoki o‘qituvchingiz buyurgan vazifani o‘z vaqtida maromiga yetkazib bajarganingizda o‘zingizni qanday his qilasiz?
4. O‘ylab ko‘ring-chi, qanday xislatlarga ega inson bilan do‘st bo‘lishni xohlardingiz? Nima uchun?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 65 21/08/24 15:00

Yaxshilik unutilmaydi

Luqmoni hakim doimo boshqalarga qarz berar ekan. Uning himmati va saxiyligini eshitgan kishilar uzoq shahar va qishloqlardan qarz so‘rab kelisharkan. Kunlardan bir kuni uning huzuriga noma’lum bir savdogar kelib debdi:

– Ey Luqmon, men mashhur savdogar edim. Davr hodisotlari tufayli butun mol-mulkimdan ayrildim. Hozir hech narsam yo‘q. Qo‘limdan hech bir ish kelmaydi, kasb-hunarim yo‘q. Sendan qarz so‘rab keldim!

Luqmon uyidan ming dinor olib chiqib, savdogarning qo‘liga tutqazibdi. Buni kuzatib turgan o‘g‘li so‘rabdi:

– Ota, shuncha pulni hech vaqosi yo‘q notanish odamga berib yubordingiz, u tonib ketsa, nima qilasiz? – debdi.

– Ey o‘g‘lim, – debdi Luqmon, – odamlar hech qachon yaxshilikni unutmaydilar. Ular sendan vaqtincha yuz o‘girsalar ham, baribir insofga keladilar. Har bir inson qo‘lidan kelganicha boshqalarga yaxshilik qilishi va qilgan saxovatini unutishi zarur. Ammo boshqalarning o‘ziga qilgan yaxshiligini unutmasligi kerak.

Keling, suhbatlashamiz

1. Nima deb o‘ylaysiz, insonning saxiyligi uning qaysi xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi?
2. Luqmoni hakimning *“Har bir inson qo‘lidan kelganicha boshqalarga yaxshilik qilishi va qilgan saxovatini unutishi zarur”* degan fikrini sharhlashga harakat qiling. Nega u qilingan yaxshilikni unutish zarur deb hisoblaydi? Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang.
3. O‘zgalarga qilgan yaxshiligini unutadigan, ammo o‘ziga qilingan yaxshilikni esda saqlaydigan insonga uch so‘z bilan ta’rif bering.
4. Luqmoni hakimning o‘g‘li otasining o‘gitidan qanday xulosa chiqargan bo‘lishi mumkin? Taxmin qilib ko‘ring va uni daftaringizga yozing.

Uyga vazifa

Yoshi katta insonlar oldiga borib, ulardan yashab turgan hududingiz (qishloq, tuman, shahar) tarixi bilan bog‘liq hikoyat va rivoyatlar, tarixiy ma’lumotlar so‘rang va kerakli deb hisoblaganlaringizni daftaringizga yozing.

Buning uchun quyidagi namunaga tayanishingiz mumkin:

“Men 5-sinf o‘quvchisi Azamatman. Qishlog‘imiz nomi – “Tatar”. Tabiati juda chiroyli.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 66 21/08/24 15:00

Qishlog‘imiz nomi meni har doim ajablantirib keladi. Chunki nomi “Tatar”-u, ammo bu yerda tatar millatiga mansub hech kim yashamaydi. Uzoq o‘lkalardan, begona joylardan kelgan kishilar “bu yerda nechta tatar yashaydi?” deb so‘rayveradi. Ularga bu yerda tatarlar yashamasligini aytaverib, charchadik. Ular esa ajablanganidan yelka qisishar, “nega unda “Tatar” deyilgan?” deb so‘rashgani so‘rashgan edi... Oxiri buning tagiga yetishga harakat qildim. Ustozimning maslahati bilan qishloqning eng yoshi katta insonlari: 95 yoshli Nurmuhammad bobo va 90 yoshli Hojar momoning oldilariga bordim. O‘zimni ularga tanishtirib, maqsadimni tushuntirdim. Ular qishloq tarixi va uning nomiga oid qiziqarli rivoyatlar aytib berdilar. Rivoyatlardan birini yozib oldim.

Emishki, jang-jadallardan, davlat ishlaridan charchagan Buxoro amiri mulozimlariga dam olish uchun so‘lim joy topishni buyuribdi. Mulozimlar to‘rt tarafga tarqalib, amir istagidagi joyni qidirishga tushib ketibdi. Ularning bir guruhi ikki tog‘ orasidan oqib o‘tuvchi daryo etagida joylashgan qishloqqa kelib qolibdi. Bu joy ularga juda ham yoqibdi va amirga bu manzil haqida darhol xabar beribdi. Amir u yerning nomi, tabiati haqida surishtiribdi. Mulozimlar bu qishloqning tabiatini biri qo‘yib, biri maqtay ketibdi-yu, ammo qishloqqa haligacha aniq nom qo‘yilmaganini ham hayrat bilan so‘zlab beribdi. Amirning qiziqishi ortib, nomsiz qishloqqa yo‘l olibdi. Yo‘l yursa ham, mo‘l yuribdi. Nihoyat daryo bo‘ylab joylashgan, ikki tog‘ qo‘ynidagi so‘lim qishloqqa yetib kelishibdi. Amirning mulozimlari: “Amirim, sizga aytgan joyimiz shu”, deyishibdi. Amir ikki tog‘ning torgina oralig‘idan daryo oqib o‘tadigan, archa-yu tollar, teraklar, chinorlar ko‘rkiga ko‘rk bag‘ishlab turadigan, tabiati juda ham so‘lim bo‘lgan bu qishloqqa sinchkovlik bilan nazar tashlab, shunday debdi:

– Bu qishloqqa bitta nom kamlik qiladi, chog‘i. Unga ikkita nom qo‘yamiz: biri – ikki tog‘ining orasi tor bo‘lgani uchun “Tog‘itor” bo‘lsin, bahavo joyligidan, kelgan kishilarni yana qayta o‘ziga bog‘lab, tortib turgani uchun ikkinchi nomi “Tortar” bo‘lsin, – debdi. Amirning so‘zi – vojib. Shu-shu qishloq shunday nomlanadigan bo‘libdi.

Vaqtlar o‘tib, amir qo‘yib bergan nom og‘zaki tilda buzilib, “Tatar” shaklida aytiladigan bo‘lib qolgan ekan.

Nurmuhammad bobo, shuningdek, qishloqning “Chillamozor”, “Yakkazirk”, “Bog‘ot”, “Dara”, “Jurjurak”, “Aliko‘prik”, “Jayraxona” degan joylarining nomlanishi, qishloq aholisi uchun qurilgan qadimiy masjidning tarixi, daryo nomiga nega “qizil” so‘zi qo‘shib aytilishi haqida bir-biridan qiziq va g‘aroyib hikoyalarni aytib berdilar. Men esa qishlog‘imiz tarixini miridan sirigacha biladigan Nurmuhammad bobodek odamlari bor shunday ajoyib joyda yashayotganimdan faxrlanib ketdim…”



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 67 21/08/24 15:00



Tanishing: HAMZA IMONBERDIYEV

O‘zbek bolalar adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan shoir Hamza Imonberdiyev 1954-yili Qozog‘iston Respublikasining Turkiston (oldingi Chimkent) viloyatiga qarashli So‘zoq qishlog‘ida dunyoga kelgan.

Hamza Imonberdiyev bor-yo‘g‘i qirq uch yil umr ko‘rdi, shundan yigirma uch yilini badiiy ijodga bag‘ishladi. Lekin shu qisqa vaqt ichida o‘zbek bolalar adabiyotida o‘z o‘rnini topdi. Sizlarga yoqadigan ko‘plab asarlar yaratdi. U bolalar she’riyatiga murakkab taqdirli, o‘ylaydigan, izlanadigan bolalar timsollarini olib kirdi.

Mehrni mo‘jiza, samimiyatni saodat, halollikni umr mazmuni deb bilgan Hamza Imonberdiyev she’rlarida o‘quvchilarni rostgo‘ylik va to‘g‘rilikka, tabiatni, daraxtlar-u jonivorlarni asrab-avaylashga undaydi.

Ijodkor 1997-yili vafot etgan.

Mutolaadan oldin...

1. Nima deb o‘ylaysiz, inson va tabiat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? Nima uchun uni “ona tabiat” deymiz?
2. Hayvonlarda ham bolasiga nisbatan onalik mehrini kuzatganmisiz? Fikringizni misollar bilan dalillang.
3. Bolalar orasida tabiatga ziyon keltiradigan, ayniqsa, jonivorlarga ozor beradiganlarini uchratganmisiz? Ularga nima degan bo‘lardingiz?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 68 21/08/24 15:00

Zavqli mutolaa

Ohu

Gurullagan ovoz tutar
Bo‘zdalaning har yog‘in.
Bir dam ohu hushyor tortar,
Ding qilgancha qulog‘in.
Uloqchasi ham norozi
To‘ymay ona sutiga.
Qotib qoldi tushgach ko‘zi
Jonli “**qora quti**”ga.

– Men chalg‘itib qaytay, xo‘pmi,
Tura turgin panada, –
Deya ohu uchdi-ketdi,
Onayizor ona-da.
Zumda uning izlaridan
“Qora quti” yeladi.
Uloq boqar umid bilan:
“Adashtirib keladi”.

O‘q gumburlar, ohu qulab,
Qorishadi tuproqqa.
Jon-jahd bilan tipirchilab,
Urinadi turmoqqa.
Zil qo‘rg‘oshin yerga tortar,
Qon to‘ladi og‘ziga.
Yetib kelgan brakonyerlar
Pichoq tortar bo‘g‘ziga.

Uloqchaning ko‘zidan har
Dumalagan marjon yosh
Qizil rangli Gulga tomar,
Gul ko‘tarar asta bosh:
– Ohujonim, qora ko‘zim,
Buncha qaynoq yoshginang?
Ohujonim, tingla so‘zim,
Baland ko‘tar boshginang.

Yovuzlarni tutgay bu kech
Ko‘zyoshlaring uvoli.
Endi ular ta’qibdan hech
Bo‘lolmaydi tinch, xoli.
Meni to‘yib bir bor hidla,
Dard, o‘limni bilmaysan.
Ajal sochar o‘qlar nima,
Sira parvo qilmaysan…”

Ohu bir dam hushyor tortar,
Gulga boqar hayrona.
Ko‘z o‘ngidan takror o‘tar:
O‘t purkagich… zor ona…
Gulni hidlab, ohu shu chog‘
Quvvat sezdi o‘zida.
Badaniga kirib titroq,
G‘azab yondi ko‘zida.

Bir o‘ch yoqdi ohu jonin
Yovuzlarga qasdma-qasd.
O‘ch olmoqlik imkonini
Izlab yelar basma-bas.
Jonli “quti” yo‘lin kesib,
Uchib chiqdi panadan.
Avjga chiqdi uni ko‘rib
Qiy-chuv, ur-sur yanada.

Brakonyer – noqonuniy ov bilan shug‘ullanuvchilar.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 69 21/08/24 15:00

Tanishing: HAMZA IMONBERDIYEV

Ohu uchib borar, nogoh
O‘q gumburlar ustma-ust.
Uning kulrang badani, oh,
Zumda olar alvon tus.
Hamon ohu uchib borar,
Ta’qibning-chi, cheki yo‘q.
Jiq-jiq terga tushib borar,
Yerga tortar zilday o‘q.

Bir o‘ch yoqqan ohu jonin
Yovuzlarga qasdma-qasd.
O‘ch olmoqlik imkonini
Izlab yelar basma-bas.
Qoni qaynar haydovchining,
Tishlarini qayraydi.
Mashinani o‘ljasining
Ustiga tik haydaydi.

Ohu shiddat bilan kelib
Tuman soydan uchadi.
Farzandini ona kabi
Qirg‘oq yengil quchadi.
O‘kirgancha “qora quti”
Izma-iz kelib tikka,
Anglolmay ne bo‘lganini,
Sho‘ng‘ib ketar jarlikka…

Bo‘zdalaning ustidan kun
Nurlarini tarardi.
Shox, butalar orasidan
Ohu suzib borardi.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 70 21/08/24 15:00



Keling, suhbatlashamiz

1. She’rni o‘qib, nimalarni his qildingiz? Sizda qanday tuyg‘ular junbishga keldi: nafrat-mi, achinishmi? Nega?
2. Ona ohuning *“Men chalg‘itib qaytay, xo‘pmi, Tura turgin panada”* tarzidagi ogohlan-tirish – aldovining mohiyatini ochishga urinib ko‘ring. U bolasini saqlab qolish uchun muqarrar o‘lim sari ketayotganini bilarmidi? Fikringizni asoslang.
3. Qizil gulning ohu bolasiga bergan daldasiga diqqat qiling. Uning gaplaridan ohu bolasi qanday xulosaga keldi deb o‘ylaysiz? She’r matniga tayanib javob bering.
4. Qasos yo‘liga kirgan ohuning ruhiy va jismoniy holati aks etgan *“Ohu uchib borar, nogoh O‘q gumburlar ustma-ust. Uning kulrang badani, oh, Zumda olar alvon tus”* tasvirini izohlang.
5. She’rning quyidagi misralariga e’tibor qiling: *“Gulni hidlab, ohu shu chog‘ Quvvat sezdi o‘zida. Badaniga kirib titroq, G‘azab yondi ko‘zida”.* Shu satrlarda yomonlik yomonlikni tug‘dirgani aks etmaganmikan? Fikringizni asoslang.
6. *“Jiq-jiq terga tushib borar, Yerga tortar zilday o‘q. Bir o‘ch yoqqan ohu jonin Yovuz-larga qasdma-qasd. O‘ch olmoqlik imkonini Izlab yelar basma-bas”* tasviriga asos-lanib o‘ylab ko‘ring-chi, ohudagi yengib bo‘lmas qudratni paydo qilgan kuch nima edi?
7. “Qora quti”dagi kishilar tabiatga qanday ziyon yetkazishdi? Shu ziyonning insoni-yatga ham zarari bormi? Xulosalaringizni asoslang.



Uyga vazifa

1. Hamza Imonberdiyevning keyingi sahifada berilgan “Turnalar” she’rini o‘qib chiqing. Uning “Ohu” she’ri bilan o‘xshash va farqli jihatlarini toping va navbatdagi darsda aytib bering.
2. Yosh turnaning keyingi taqdiri qanday kechishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.
3. She’r tahliliga bag‘ishlangan 5 ta savol tuzing va navbatdagi darsda partadoshingiz-ga javob yozishi uchun bering.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 71 21/08/24 15:00

Tanishing: HAMZA IMONBERDIYEV

Turnalar

Dovul turib dengizda,
Havo tamom buzildi.
Kechga borib turnalar
Safi bexos uzildi.
Qolib ketdi bir turna
Dosh berolmay jalaga.
Qirrovlari yetmadi
Bee'tibor galaga.
Xavotirda onasi
Safdan chiqar qayrilib.
Qayoqqa ham borardi
Dilbandidan ayrilib.
Qushlar charchab-horigan,
Tugab borar kuch-sabot.
Tortmoqchiday domiga
Toshqinlar sapchir bot-bot.
Azoblardan qushchaning
Ko'zlarida yosh qotdi:
– Chidolmayman, onajon,
Qanotlarim toshqotdi.
Netardi onayizor,
Yuragin o'rtar bu sas:
– Yana biroz sabr qil,
Sabr qil, bolam, birpas.
Ko'p o'tmay, ufq bo'zarib,
Jala ham tindi asta,
Alg'ov-dalg'ovli borliq
Tinchib qoldi birpasda.

Yotar dengiz yastanib,
Na boshi, na cheki bor.
Dengiz uzra turnalar
Uchib borar bemador.
Shu chog' olisda yolg'iz
Kema ko'zga chalindi.
Shod qirrovlab turnacha
Onasiga yalindi:
– Uchaylik o'sha yoqqa,
Tog'-qoyaga o'xshaydi.
– Yo'q! Yo'q! Bu – suzar orol,
Qanotsizlar yashaydi.
Ular haqda ajdodlar
Biror xush so'z aytmagan.
Ularga yaqinlashgan
Hech vaqt omon qaytmagan.
Yo'q, quloqsiz turnacha
Olmayin ona so'zin,
Uchib ketdi suzuvchi
Oroldan uzmay ko'zin.
Ona turna qirrovi
Ko'kni tutar bu damlar:
– Ojizlarmiz, sizlarga
Insof bersin, odamlar!

Savollar		Javoblar
1-savol	* * * * *	* * * * *
2-savol	* * * * *	* * * * *
3-savol	* * * * *	* * * * *
4-savol	* * * * *	* * * * *
5-savol	* * * * *	* * * * *

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 72 21/08/24 15:00

Tanishing: HAMZA IMONBERDIYEV

Zavqli mutolaa

G‘anicha

– Ana Sanjar! Qochdik, hoy!
Bu so‘z yangragan chog‘da
Ishtoncha ham kiyilmay,
Qolib ketar qirg‘oqda.
Yo‘qsa, Sanjar polvonning
Ikki bo‘lmasdi so‘zi.
Cho‘miltirib qo‘yardi
Suvga bo‘ktirib o‘zi.
Faqat bugun qochmoqni
Ep bilmadi G‘anicha.
Ko‘p-xo‘p yedi kaltakni,
Suv yutdi to‘ygunicha.
– Sen qayda-yu, u qayda,
O‘chakishib netasan?
Qishlog‘imiz “shefi” u,
Mayib bo‘lib ketasan! –
Deb o‘git bergan “dono”
Bo‘ldi qanchadan qancha.
Bu gaplarga beparvo,
Loqayd boqar G‘anicha.
– Bir kun cho‘pon bo‘lasiz,
O‘tlashadi o‘zlari.
Yo‘qolsa, naq o‘lasiz,
Sanjarning qo‘zilari!
Yo‘q demoqchi bo‘lganlar,
Ehe, qancha-qanchalar.
Biroq qo‘yday ma’ratar
Qo‘zg‘olonchini Sanjar.
Birgina bosh egmoqni
Ep bilmadi G‘anicha.
Ko‘p-xo‘p yedi kaltakni,
Solishdi to‘ygunicha.
– Sen qayda-yu, u qayda,
O‘chakishib netasan?
Qarshi chiqmoq befoyda,
Mayib bo‘lib ketasan! –
Deb o‘git bergan “dono”
Yana qanchadan qancha.
Bu gaplardan so‘ng, ammo
O‘ylab qoldi G‘anicha.
Navbatdagi haqorat
Toshi otilgan payti
G‘anidagi jasorat
Iziga ketdi qaytib…
“Menga nima olishib,
Hech biri olmas yonim.
Nima azobga solib,
Og‘ritib shirin jonim.
Itligini qo‘ymas u,
Qancha yonib-kuyinmay…”
Shu chog‘ diliga qo‘rquv
Bosib keldi quyunday.
G‘ani bir dam toshqotdi,
Borliq rangin yo‘qotdi.
Oyoq-qo‘li bo‘shashib,
Turib qoldi karaxtday.
Qalqib ketdi, kesilib
Qulayotgan daraxtday.
Birdan hayqirdi: – Yo‘q! Yo‘q!
Va Sanjarga tashlandi.
Yana musht-u yana do‘q,
Yana ur-sur boshlandi.



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 73 21/08/24 15:00

Ha, bu gal ham qochmoqni
Ep bilmadi G‘anicha.
Ko‘p-xo‘p yedi kaltakni,
Solishdi to‘gunicha.

Har yon ketdi raqiblar
Bir-biriga demay so‘z.
Barcha bola jim boqar
G‘anichadan uzmay ko‘z.



Keling, suhbatlashamiz

1. O‘ylab ko‘rib ayting-chi, nega G‘anining nomiga **-cha** qo‘shimchasi qo‘shilgan? Sizningcha, bu bilan nima alohida ta’kidlangan?
2. O‘ylab ko‘ring-chi, she’rda nega “dono” so‘zi qo‘shtirnoqda berilgan? G‘anining o‘rtoqlari berayotgan maslahat, sizning nazaringizda, qanchalar ahamiyatli?
3. G‘anining “*Menga nima olishib, Hech biri olmas yonim. Nima azobga solib, Og‘ritib shirin jonim. Itligini qo‘ymas u, Qancha yonib-kuyinmay*…” degan fikrga kelishi-yu, ammo darrov bu o‘yidan voz kechishiga nima sabab bo‘ldi deb o‘ylaysiz?
4. Tengdoshlaringiz orasida Sanjarga o‘xshaganlari bormi? G‘anichaga o‘xshaganlari-chi? Siz ularning qaysi biri tarafidasiz? Nima uchun?
5. Qo‘rqib yashash qiyin deb o‘ylaysizmi yo kurashib yashash? Nima uchun?
Eslatma: “kurashib yashash” deganda faqat janjallashishni tushunib qolmang.



Topshiriq

Zo‘ravon Sanjarni yenggan G‘ani endi qishloqning navbatdagi “shefi”mi? U ham bu “shef”likni saqlab qolish uchun zo‘ravon bo‘lishi kerak deb hisoblaysizmi? Fikrlaringizni dalillar bilan asoslab yozing.



Uyga vazifa

Quyidagilarga yozma javob tayyorlang va navbatdagi darsda o‘qib bering.

1. *G‘anidagi boshqa bolalarda yo‘q bo‘lgan sifatlarni yozing.*
2. *Inson o‘zidagi (kimgadir yoki nimagadir bo‘lgan) qo‘rquv hissini yengish uchun nimalar qilishi kerakligini tajribangizdan misollar keltirib yozing. Bu borada oila a’zolaringizdan ham maslahat olishingiz mumkin.*

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 74 21/08/24 15:00



Tanishing: ISAJON SULTON

Yozuvchi bolaligi va orzularini bunday xotirlaydi:

“Men 1967-yili Farg‘onaning Rishton tumanidagi Avazboy degan qishloqda tug‘ilganman. Dadam Abduraim aka juda oqko‘ngil, beozor kishi edi. Onamiz bilan yetti farzandni voyaga yetkazishgan, men shu farzandlarning to‘ng‘ichiman. Bolalikda... tong-sahar qorong‘isida non yopish uchun tandirga lang‘illatib o‘t yoqilganlari, atrofda olov shu’lasining o‘ynashi, quyoshli kunlarda kishilarning ko‘chalarda to‘p-to‘p turishlari xotiramda qolgan. Hamma bolalar kabi yer chopar, o‘toq qilar, dalada ishlar... xullas, ulg‘aygani sayin tirikchilik tashvishlari ichiga kirib borayotgan bir o‘smir edim-u, kitoblarga, adabiyotga juda qiziqardim. Shu tariqa Toshkent davlat universitetining (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetiga o‘qishga kirdim-u ijod dunyosiga qadam qo‘ydim, shuning barobarida ijod sirayam men o‘ylagan narsa emasligiga, anchayin murakkab va g‘alati jarayon ekaniga, asosiysi, insonlar tan oladigan asar yaratish uchun eng avvalo bilim va kuchli badiiy tafakkur kerakligiga amin bo‘ldim...”

Adibning tarixiy va zamonaviy mavzulardagi asarlari kitobxonlar ko‘nglidan munosib joy olgan.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 75 21/08/24 15:00



O‘ylab ko‘ring

1. Siz ota-onangizga “tirikchilik tashvishlari”da qanday yordam bergansiz?
2. Yozuvchi yoshligida orzu qilganidek “insonlar tan oladigan asar”larni yozishga allaqachon ulgurdi. Siz nimalarni orzu qilasiz? Kelajakda insonlarni lol qoldiradigan qanday ishlar qilmoqchisiz?

Mutolaadan oldin...

Isajon Sultonning e’tiboringizga havola qilinayotgan “Otamga nimadir bo‘ldi” hikoyasi qahramoni ukangiz tengi, o‘zi aytganidek, “judayam kichkina”, otasidan boshqalarni “sen-sirab” gapiradigan bolakay. Shunga qaramay, uning gap-so‘zlari, o‘y-xayollari, xatti-harakatlari yoshiga nisbatan ancha “katta”. Siz buni mutolaa davomida uning hikoya tarzi, sinchkov nigohi va qiziquvchanligi tasvirlari orqali yaxshiroq bilib olasiz.



O‘ylab ko‘ring

1. Eslashga urinib ko‘ring-chi, sizda oila a’zolaringiz bilan bo‘ladigan biror voqea-hodisani oldindan sezish holati kuzatilganmi? Buni qanday izohlaysiz?
2. Insonning kimnidir yoki qayernidir ko‘rgisi kelishi qanday tuyg‘u? Eslang-chi, siz bu tuyg‘uni qachon his qilgansiz?

Zavqli mutolaa

Otamga nimadir bo‘ldi...

(hikoya)

I

Men judayam kichkina bolaman. Bo‘yim endigina otamning tizzasiga yetgan.

Otam juda quvvatli, kaftlari ulkan-ulkan. Yo‘g‘on barmoqlaridan tutib, otamga boshimni ko‘tarib qarayman.

Mevalar pishsa, yelkasiga chiqib olaman, daraxtning ho‘v uchidagilargayam qo‘lim yetadigan bo‘p qoladi.

Tungi yulduzlar bodroqday sochilgan. Otamning yelkasiga chiqib olsam-u o‘zim yana picha o‘ssam, ularniyam to‘plab olaveraman.

Picha – ozgina, biroz.

Xudo yulduzlarning ortida. U juda mehribon, yer yuzini o‘sha joylardan turib kuzatadi.

U otamgayam, onamgayam mehribon. Shu tufayli bizni ularga farzand qilib bergan.

Otam ham mehribon. Lekin ishlagani olislarga ketmoqchi.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 76 21/08/24 15:00

“Otam ketmasin”, deyman onamga.

Onam aytadi: “Ketmasa bo‘lmaydi-da, toyim. Senlarni boqib katta qilish kerak, shuncha tashvishni qanday eplasin?”

Otam o‘sha olisdagi o‘lkalar haqida hikoya qilib beradi. Yo‘l yurarmish, yo‘l yursayam, mo‘l yurarmish. U yoqlarda rosa qorlar yog‘ar ekan. Oqayiqlar bo‘kirib yurarmish… Odamlari yog‘ochdan, muzdan kulba qurib yashar emishlar.





Ayiqlari yog‘gan qorlari tufayli oq bo‘lsa, unda devlariyam oqdir? Oq dev degani o‘sha yoqlarda yashasa-chi? Muz ba’zan och ko‘kish tusda bo‘ladi, balki, ko‘k dev ham bordir?

Bir necha kundirki, xayolimda shu o‘ylar. Uyimizga kimlardir kelishadi, maslahatlashishadi, keyin otam onam bilan uzoq-uzoq gaplashadi, men quloq solib yotaman. Pechkada o‘tin chirsillaydi, ba’zan nam novda vishillagan ovoz chiqaradi, shunda xivichdan otilib chiqayotgan ingichka bug‘ oqimi ko‘z oldimga keladi. Ko‘pincha uzum novdasi shunaqa sas chiqaradi, boshqa o‘tinlar gurullamaydi, ammo yonganidagi tovushi har xil bo‘ladi. O‘sha turfa tovushlargayam quloq solib yotaveraman-u uxlab qolaman.

Xivich – ho‘l, uzun novda, xipchin.

Sas – ovoz, tovush.

Tush ko‘raman.

Sigirlarimizning biri och, biri to‘qmish. Och sigirimiz to‘q sigirimizni yer emish.

Yerimiz tap-taqir, bittagina boshoq o‘sib chiqqanmish xolos.

Uyimizdan otlar chiqib ketayotganmish, hammasi baland bo‘yli, yollari hilpiragan, ammo egarlari bo‘m-bo‘sh otlar…

* * *

Nihoyat otamning ketar kuni bo‘ldi. Yerlarni qirov bosdi. Qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘ yig‘ildi. Yerqozonda ovqat pishirdik. Men eski o‘tinlarning issig‘ida isinib o‘tirdim. Yog‘lari qalqib-qalqib sho‘rva pishdi, kishilar non botirib, maqtab-maqtab yeyishdi, keyin duo qilib ketishdi.

Onam katta xaltaga non, tolqon, tutmayiz soldi. Otam ayvonda o‘tirar edi.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 77 21/08/24 15:00

– Ota, – dedim. – Bo‘ynoqni bostirmaga boylab qo‘yaylik, qachon oldidagi suv aynib qolsa, kuchuk yer tishlab irillayversa, shundan sizga bir nima bo‘lganini bilib olamiz. Keyin o‘zim borib, sizni qutqarib kelaman.

Otam kuldi, katta kafti bilan boshimni siladi, quchoqladi:

– Mayli, aytganingdek bo‘la qolsin, ammo kuchuk sho‘rlikni qiynab nima qilasan? – dedi. – Kechqurunlari boylab qo‘ya qol, kunduzlari o‘ynasin.

Men ko‘ndim.

Bo‘ynoqni chaqirdim, dumini likillatib keldi. Bu – yaxshi kuchuk, ovqat so‘ramaydi, dasturxon qoqqanimizda o‘sha yerda o‘ralashib uvoqlarni terib yeydi. Begonani uyimizga yaqinlashtirmaydi. Opam maktabga jo‘nasa, ortidan borib, tashlab keladi, o‘qishidan chiqishiga ham borib, kutib turadi.

Men Bo‘ynoqning aqlli ekanini bilaman.

Otam to‘g‘ri aytdi. Kunduzi zanjirlab qo‘ysam, opamni kim maktabga oboradi?

Bo‘ynoqni bostirmaga boyladim, oldiga eski chatnoq kosada suv qo‘ydim. “Shu suvga endi o‘zing qarab turgin”, deb tayinladim.

Chatnoq – darz ketgan, yorilgan.

Kech tusha boshlagach, gurullab qo‘shnimizning eski arobasi (mashina) keldi. Otam xayr-xo‘shlashib arobaga mindi, u ortidan ko‘k tutun chiqarib jo‘nab ketdi.

Qo‘limni silkitib turaverdim, ammo otam ortiga qayrilib qaramadi.

Shu tariqa, uyimiz huvullab qoldi.



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 78 21/08/24 15:00

* * *

Ertasiga yana qirov tushdi. Indiniga ham. Har kuni tushaverdi.

O‘sha kundan boshlab uyimiz issiq bo‘lmay qoldi. Otam borligida haroratli bo‘lardi. To‘niga o‘ranib choy ichib, televizor ko‘rib o‘tirar, goh tizzasiga urib, baqirib-baqirib kular ham edi. Men bag‘riga kirib olardim. Goho turib, pechkadagi olovga o‘tin tashlab qo‘yardi. Qutidagi nonlarni pechka ustiga qo‘yib ilitsa, isi hamma yoqni tutib ketardi.

Otam ketgach, kuchukka mehrim oshdi. Oldidagi suvini har kuni yangilayman, non beraman. Behi ham bergan edim, yegisi kelmadi. Atay suviga diqqat bilan qarayman: top-toza, tiniq bo‘ladi. Xursand bo‘laman-u to‘kib tashlab, ariqdan boshqa suv opkelib solaman.

Otam o‘sha olislarga yetib bordimikan deb o‘ylayman.

U yoqlarni juda sovuq deyishadi. Otam bir mahallar yoshligida o‘sha yoqlarda askar bo‘lgan ekan. Ikki-uchta po‘stinni ustma-ust kiyib yurardik, deganlari esimda. Otam ketgan tomonlarda dev bo‘lmasa kerak. Dev unaqa sovuq joylarda yashay olmaydi, chunki po‘stini yo‘q. U yoqlarda oqayiqlar bilan uzun shoxli bug‘ular yasharmish.

Ha, u yoqlarda dev nima qilsin? Dev o‘zimizning tomonlarda bo‘ladi. Ishlamaydi, bahaybat gavdasini lo‘killatib, qorni ochganida g‘oridan chiqib keladi, tevarakdagi qishloqlarning odamlarini qo‘rqitib, qornini to‘yg‘izadi. Devning kiyimi ham yo‘q, beliga lungi boylab, yalangoyoq yuradi. Xotini ham, bolalari ham bo‘lmaydi. Buning ustiga anchayin ahmoq, yeb-ichishdan boshqa dardi yo‘q, Bo‘ynoqchalik ham foydasi tegmaydi. Qora kunimga yarab qolar deb odam g‘amlashiyam mumkin. Ochqaganida chetan ichiga qamab qo‘yilgan odamlardan birontasini yegani enkayib keladi, shunda odamlar “Men oriq, u semiz” deb har tomonga qochishadi.

Lungi – bel va songa o‘raluvchi mato parchasi.

Chetan – buta nomi. Uning novdalaridan maxsus to‘rli savat va qafaslar to‘qiladi. Daraxtning novdalaridan qilingan devor ham chetan deb yuritiladi.

Otam u yoqlarda nima qilar ekan? Qo‘llari sovqotib daraxt kesar? Har qancha urinsam ham, tasavvurim u manzaralarni jonlantirolmaydi. Unda-bunda eshitganlarim birlashib, tushunarsiz manzaralar hosil qiladi. O‘rmonlari bepoyon emish. Yuz yil yursang ham, tugamasmish. Qiziq, otam nima uchun ularga uy qurib berar ekan, o‘zlari qurolmaydimi? Yo‘q, bizlarnikiday uy qurishni bilishmasmish, o‘shan-chun muzni o‘yib, ichiga kirib yasharmish. Otam ularga uy qurishni o‘rgatib, keyin qaytib kelsa bo‘lmasmikan?

Bo‘ynoq har oqshom dumini likillatib oldimga keladi. Otam ketganidan beri u bilan o‘ynamayman. Menga hayron bo‘lib qaraydi, o‘ynagisi keladi-da. Aytdim-ku, rosa aqlli deb. Bostirmaga oborsam, yerda yotgan zanjirini tishlab ko‘tarib, boshini tiqmoqchi bo‘ladi. Biladi-da, ertalabgacha tutqunda yotishini. Keyin oldidagi suviga qarayman – yo‘q, aynimabdi. Suyunib, sakrab-sakrab chopaman.

* * *

Oradan kunlar o‘tdi.

Bir kecha Bo‘ynoq dunyoni buzguday bo‘lib g‘ingshib chiqdi.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 79 21/08/24 15:00

Osmonda oy suzar edi. Mayda taram bulutlarni yoritib, sovuq samoda tanho suzaverdi.

Bo‘ynoq sira tinchimadi.

Yugurib borib, sahar yorug‘ida qarasam, yaloqdagi suv aynib qolibdi!

Endi nima qildim? Otamga bir nima bo‘ldimi?

Bo‘ynoqni bo‘shatsam, yer timdalab g‘ingshiyverdi. Otamning izini iskab, tomorqalarni aylanib qur chopib chiqar, darvoza oldiga borib, ko‘chaga, dala-tuzga mo‘ralar, qaytib kelib, shimimdan tishlab tortqilayverardi sho‘rlik.

Uyga kirsam, kosadagi suv ham aynib qolibdi.

– Aka, – dedim. – Otamga nimadir bo‘ldi.

– Yo‘g‘-e, – dedi akam. – Esing joyidami?

– Yo‘q, aka. Otamga rostdan ham bir nima bo‘ldi, chunki Bo‘ynoqning oldidagi suv aynib qoldi.

– Bo‘lmag‘ur gapni qo‘ysang-chi.

– Aka, e’tibor bersang-chi. Uydagi bor tartib otam tufayli edi. O‘zi uzoqda bo‘lsayam, begona qushlar ekinga kelmas edi. Endi esa, ko‘ryapsanmi, jo‘xorilarni yovvoyi qushlar bosdi.

Menimcha, otamga bir nima bo‘ldi. Razm soldingmi, bir kechada etakdagi burgan bilan sho‘ra o‘sib ketdi. Mevali daraxtlarga qaradingmi? Behi meva solgan joyida bujmayib qoldi. Shaftoli mevalarini to‘kib yubordi. Uzumlar chiridi. Aka, uyimizdan bir nima ketib qoldi. Chunki otamga nimadir bo‘ldi!

Burgan – murakkab gullilarga mansub bir yillik begona o‘t.

Sho‘ra – tashlandiq yerlarda, ekin maydonlarida g‘ovlab o‘sadigan, barglarining usti yaltiroq, osti kulrang begona o‘t.

Axir razm solsang-chi! Opam siniq oynaga qarab, siniq taroq bilan soch taraydigan odat chiqardi. Jon aka, sen kuchlisan, otamning o‘rnidasan, o‘rtoqlaring bilan chiqib ketib, qosh qorayganda qaytguncha, ro‘zg‘orga qarasang-chi. Axir otamga bir nima bo‘ldi!

Qo‘shni suvni o‘ziga burib oldi, makkalarimiz suv icholmay, rangi ketdi. Kecha kelayotsam, eshigimizning tagiga kimdir po‘choq tashlab o‘tibdi. Uyning suvog‘i sho‘rlashib, ko‘chib tushdi, birov sidirib-to‘plab, suvab qo‘ymadi. O‘sha yerdan ham sho‘ralar o‘sib chiqdi.

Yana aytaymi, aka? Etakdagi bobom ekkan nok qurib qolganini sezmadingmi? Yuz yildan beri bir xilda meva solardi, shu bir-ikki kun ichida barglarini to‘kib yubordi, pastda, yerga yaqin shoxida bittagina novdasi qoldi xolos.

Onam non yopsa, nonlari oqib-qiyshayib ketyapti-ku? Ovqat qilsa, tuzi sho‘r-ku? Tuz-namagini totganida ko‘zining yoshi oqib, qozonga tushganini necha marta ko‘rdim-ku? Ovqatlarining ta’mi ham o‘zgarib qoldi, yesam, lazzati yo‘q. Har narsadan ta’m ketib qoldi. Kir yuvsa, ko‘pirmayapti-ku? Hovli supursa, yana xas bosib, begona o‘tlar o‘syapti. Makkalar pishmadi-ku? O‘tlar qurib qoldi-ku?

Imorat ham cho‘kdi, payqayapsanmi?

Aka, yana tush ko‘rdim, tushimda sigirlarimizning biri och, biri to‘qmish. Och sigirimiz to‘q sigirimizni yer emish.

Dalamiz tap-taqir, bittagina boshoq o‘sib chiqqanmish xolos.

Uyimizdan otlar chiqib ketayotganmish, hammasi baland-baland, yollari hilpiragan, ammo egarlari bo‘m-bo‘sh otlar.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 80 21/08/24 15:00

Qara, axir ukam tandir boshiga borib, og‘ziga boshini tiqib otamni chaqiryapti, xavotirlanmayapsanmi?

Bo‘ynog‘im, nimaga bo‘yningni yerga ishqab menga javdiraysan? Qo‘limdan bir nima kelarmidi? Nimaga meni tortqilab qaylargadir undaysan, ingranib uvullaysan?

Ey Xudo, bu ahvolga biror chora bormi?..



Keling, suhbatlashamiz

1. Otani safarga kuzatish lavhasiga diqqat qarating. Nimalarni his qilganingizni ayting.
2. *“– Ota, – dedim. – Bo‘ynoqni bostirmaga boylab qo‘yaylik, qachon oldidagi suv aynib qolsa, kuchuk yer tishlab irillayversa, sizga bir nima bo‘lganini shundan bilib olamiz”.* Bolaning xavotiri sabablarini tushuntirishga harakat qiling.
3. Ota qaysi faslda, qaysi oyda safarga chiqqan deb o‘ylaysiz? Matndan o‘sha faslga, oyga ishora qiluvchi so‘zlarni aniqlang va ayting.
4. Ota ketar ekan, nega ortiga burilib qaramadi? Buning sabablari nimada?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 81 21/08/24 15:00

5. Otasi ishga boradigan joylarda devlar bor-yo‘qligi nega bolani qiziqtirib qoldi deb o‘ylaysiz? Shuningdek, bola kuchugini devlardan ko‘ra aqlli va foydaliroq deb hisoblashi sabablari haqida qanday fikrdasiz? U nega bunday xulosaga kelgan bo‘lishi mumkin?
6. Kuchukning yalog‘idagi suv aynib qolganini ko‘rgan bolaning ruhiy holatidagi o‘zgarishlarga diqqat qiling. U akasining diqqatini qaratmoqchi bo‘lgan narsalarga (tomorqani begona o‘t bosishi, daraxtlar mevasiz qolishi, devorlar nurashi, odamlarning o‘zgalar haqqiga xiyonat qilishi, ovqatlarning ta’mi yo‘qolishi va hk.) boshqa oila a’zolari nega e’tibor qilmayotgan bo‘lishi mumkin? Yoki ular bu holatlarni sezmayaptimi?

Uyga vazifa

Hikoyaning 2-qismini o‘qib keling.

Otamga nimadir bo‘ldi...

(hikoya)

II

...Ota oilasini sensiragani bois, u ham hammani sensirab gapiradigan, faqat otasinigina sizlaydigan bolakay edi. Sensirasa, kishilar achchiqlanishmasdi, qaytanga jilmayib qo‘yishardi.

Endi xayolan otasiga gapirardi.

“Endi kela qoling, jon ota”, der edi.

“Kelmasangiz sira bo‘lmaydi.

Ketganingizga qancha bo‘ldi-yu!

Onam bilan yerlarni chopib, ekin ekmoqchi bo‘ldik, bir suv kelsa, bir kelmadi, hamma yoqni o‘t bosdi, ammo ekin bitmadi. Sizsiz baraka ketib qoldi.

Akam borib, suv ochib kelar bo‘ldi, uch-to‘rt kun urindi, birov suv bermadi. Kap-katta odamlar bolaning haqqini yeb qo‘yishdi. Siz bo‘lganingizda, ular hayiqar edi.

Dov-daraxt meva solmay qo‘ydi. Har yoqni sho‘r bosdi.

Sigirlarimiz ozib ketdi, qaraydigan odam topilmadi.

Ota, akam ham, onam ham bilishmaydi, ammo men bilib turibman-ku. Siz kelsangiz, daraxtlarimiz dunyoning mevasini tugadi, bozorga opchiqib sotaveramiz, sotaveramiz, axiyri boyib ketamiz.

Siz kelsangiz, yerimiz mo‘l-ko‘l hosil beradi, ularni qoplab bosib qo‘yamiz. Sigirimiz olam-jahon sut-qaymoq beradi. Uy ham qaddini ko‘taradi, ko‘kragini kerib savlat to‘kib turadi. Egam keldi deb suyunadi-da.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 82 21/08/24 15:00



Siz uyda bo‘lsangiz, u qasr bo‘pketadi. Uyam boshqa uylarga maqtanadi, qara, egamning savlatini ko‘r, deya.

Kela qoling, otajon. Yelkangizga minib olay, ko‘kdagi yulduzlarga qo‘lim yetadigan bo‘lsin, istaganimni bodroqday uzib olaveray. Yulduz nimasi, Oyga ham qo‘lim yetar bo‘lsin.

Uka, kecha tandir oldiga borib otamni chaqirding-a? Bekor qilding, tandirga bosh tiqib chaqirsang, otam eshitmaydi. Etakda katta tol bor, o‘shaning kovagiga og‘zingni tutib “Otajon” desang, keladi.

Yur, ukajon, o‘sha tolning oldiga. Ikkalamiz birin-ketin chaqiramiz.

Otam yaxshi ko‘radigan tol u. Kovagida shamol o‘tiradi, biz chaqirsak, sasimizni uzoqlarga olib ketadi. To otamning qulog‘iga yetmaguncha uchaveradi. Shamol tandirga kirgani qo‘rqadi, chunki unda olov yoqiladi-da…

Yura qol, birgalashib chaqirsak, otam albatta eshitadi…”



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 83 21/08/24 15:00

* * *

Yana kun o‘tdi.

Ertalab ona barvaqt turdi. Borib mol-holga o‘t soldi, nonushta tayyorladi. Keyin bolalarimni uyg‘ota qolay deb ichkari uyga kirib, ovoz berdi.

Qarasa, o‘rtanchasi joyida yo‘q.

– Voy o‘lay, – dedi. – Hoy, ukang qani?

– Bilmadim, – dedi kattasi ko‘zlarini ishqalab.

Hovliga chiqib, alanglab atrofga qaradi, nigohi har tarafni tentirab kezib chiqdi. Bola ko‘rinmas, bostirma ostidagi zanjir bo‘m-bo‘sh, kuchuk ham yo‘q edi.

– Voy, o‘libgina qo‘ya qolay, – dedi o‘takasi yorilguday bo‘lib. – Hoy bolam, qaydasan?

Birov sas bermas edi.

– Jon bolam, qaylardasan?

* * *

U mahalda ota qora sovuqlarda tirishib mehnat qila-qila, nihoyat madori qurib, qattiq isitmalab yotib qolgan edi.

Isitma olgan odam o‘zini ustida yuzlab zil-zambil toshlar borday his qiladi. Suyaklari qaqshab og‘riydi. Qaraydigan odam yo‘q, sheriklari uni qoldirib, ishga ketishgan. Rosa bo‘ralab qor yog‘gan edi, shu isitma aro derazaga qor zarralarining shitirlab urilishigacha eshitib turibdi.

Bir mahal g‘uvullab shamol esaverdi. Derazaning ko‘zi singan, o‘rniga qalin suvqog‘oz tutib qo‘yilgan edi, o‘sha yerdan kirib keldi. Tolbarglarning to‘kilgan saslarini olib kelib, qulog‘iga urdi, makkapoyalar shitirini, mol-qo‘ylarning ba’rashini, o‘sha saslar aro kichkinasining ovozini ham olib keldi u.

Suvqog‘oz bu yerda: polietilen yoki sellofandan tayyorlangan o‘rov materiali, xalta.

“Otajo-o-n” degan zaif, ingichka, yolvorish to‘la sas!

Ovozda ham ko‘zyoshlar bo‘lar ekan-da! U sas to‘la ko‘zyosh edi.

Ko‘zyoshning isi ham bo‘lar ekan-da! U is bolasining ho‘l sochidan keladigan isga o‘xshardi.

Turay deydi-yu, turolmaydi, sira madori yo‘q.

Bir mahal qarasa, eshik ochilib, o‘rtanchasi kirib kelyapti. Shu sovuqda, yupqa ko‘ylakda! Qo‘lidagi do‘ppisida bir nimalar bor. Yonida esa Bo‘ynoq.

– Ota, turing, ketdik uyga, – deyapti xo‘mrayib.

– Iye, sen nima qilib yuribsan bu yoqlarda?

– Ota, Bo‘ynoqning oldidagi suv aynib qoldi. Zanjirdan bo‘shatdim-u ortidan kelaverdim.

Do‘ppisining ichida bir hovuch yaltiroq narsalar ko‘rinadi.

– Ota, uyda ekaningizda yelkangizga chiqib, yulduzlarni terib olib, bostirmaga yashirib qo‘ygan edim, o‘shalarni olib keldim, – deyapti.

– Tursangiz-chi axir, jon ota, – deydi.

– Ota, sizsiz qiynalib qoldik.

Gapiradi – o‘ksinadi. Gapiradi – termiladi. Gapiradi – ko‘zining yoshi duv-duv oqadi.

– Hozir turaman, bolam, – deydi-yu, turolmaydi. – Hozir, bolam…

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 84 21/08/24 15:00

– Yo‘q, turmasangiz bo‘lmaydi, – deydi o‘rtanchasi.

– Yuring biz bilan, ota, – deya eshikka qarab yo‘naladi.

“Ey Xudo”, dedi ota shunda. “Eson-omon oyoqqa turib olsam, o‘sha zahoti uyimga ketaman!

Bu yerlarni yelkamning chuquri ko‘rsin!

Menga nima bor edi begona yurtlarda, birovlarga mo‘ltirab non topib?

Men nodon bolalarimni o‘zimga intizor qilib qo‘yibman-ku!

Ularga orzu-havas qilgan narsalarimdan ham ko‘ra o‘zim kerak ekanman-ku!

Yetti ajdodim umr bo‘yi tuproqdan rizqini chiqarib, bola-chaqasini boqqan, ota-buvam “Yer yetti pushtingga yetadi”, degan edi. Nima qilib yuribman yerimdan, elimdan, jigarlarimdan ayrilib?”

* * *

Bu mahalda bolakay bilan Bo‘ynoq qishloqdan chiqib olib, taqir aro ketmoqda edilar.

Taqir – giyoh o‘smaydigan yaydoq yer.

– Bo‘ynoq, – derdi bolakay kuchukka. – Sen yo‘lni bilasan. Otamning izini iskab-iskab topib boraverasan.

Otam juda olisda, ammo yaxshilab yugursak, albatta yetib olamiz.

Tevarakda chiyabo‘rilarning ulishi eshitilyapti, yuragim orqaga tortib ketyapti. Lekin yonimda sen borsan-ku, ulardan qo‘rqmasligingni bilaman.



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 85 21/08/24 15:00

Bo‘ynog‘im, suv bekorga aynimadi. Yaxshiyam aynibdi, agar qonga aylanib qolganida uyimiz kuyardi.

Qara, yulduzlarning jivirlashini… Ularning ortida Xudo bor. U juda mehribon, o‘sha joylardan turib yer yuzini kuzatadi. Hozir otamni izlab chiqqanimni ham ko‘rib turibdi, yo‘limizni ko‘rsatsayam ajabmas…

Shu tariqa kecha qorong‘isida deyarli yugurib borardi bolakay, itini ergashtirib, uzoqlarga, otasi ketgan olis-olislarga…

* * *

Topib bora olarmikan? Yoki qishloqning oldi erkaklari ortidan izlab chiqishib, qaytarib olib kelisharmikan? Bundan xabarimiz yo‘q.

Ajabmaski, ota ham qadrdonlari sari yo‘lga chiqqan bo‘lsa… Bir avlodning kattasi-yu kichigi shu tariqa bir-birining diydoriga to‘yishlarini tilashdan o‘zga tilagimiz yo‘q.

Axir yaqinlarning hasrati og‘ir bo‘ladi. Jigar uqubati undan ham og‘ir emasmi? Ikkovini tong g‘ira-shirasida kuzatib qolar ekanmiz, bizning ham bir iltijomiz bor, u iltijomiz shundaydir:

“Ey Parvardigor, hech kimni yaqinlari va sevganlari firog‘iga, dardiga duchor qilmagin. Bizlarni sevganlarimiz bilan imtihon qilmagin. Yaqinlarimizdan, ulug‘larimizdan ayirmagin, safimizni but, rizqimizni keng aylagin!”

Boshqa nima ham deya olardik?

Keling, suhbatlashamiz

1. Bolaning xayolan otasi bilan suhbati sizga qanday ta’sir qildi? Ko‘nglingizdan nimalar o‘tdi?
2. *“Yur, ukajon, o‘sha tolning oldiga. Ikkalamiz birin-ketin chaqiramiz. Otam yaxshi ko‘radigan tol u. Kovagida shamol o‘tiradi, biz chaqirsak, sasimizni uzoqlarga olib ketadi. To otamning qulog‘iga yetmaguncha uchaveradi. Shamol tandirga kirgani qo‘rqadi, chunki unga olov yoqiladi-da…Yura qol, birgalashib chaqirsak, otam albatta eshitadi…”* Bolaning tutgan yo‘liga munosabat bildiring. Bolaning tol kovagidan otasini chaqirsa, uning eshitishiga bo‘lgan ishonchini qanday baholaysiz? Bu lavha orqali “sog‘inch” nima ekanini ta’riflashga harakat qiling.
3. Bola Bo‘ynoq bilan otasining oldiga borish uchun chiqib ketib to‘g‘ri qildimi? Fikringizni asoslang. Bu o‘rinda bolaga qanday maslahat bergan bo‘lardingiz? Nima uchun?
4. Otaning isitma aralash kichkinasining “Otajo-o-n” degan zaif, ingichka, yolvorish to‘la ovozini eshitishi, o‘rtanchasining go‘yo kirib kelib, uni olib ketishga urinishi (“*Gapiradi – o‘ksinadi. Gapiradi – termiladi. Gapiradi – ko‘zining yoshi duv-duv oqadi*”) va uzoq o‘lkalarga kelib ishlashidan afsuslanishi (“*Men nodon bolalarimni*

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 86 21/08/24 15:00

o‘zimga intizor qilib qo‘yibman-ku? Ularga orzu-havas qilgan narsalarimdan ham ko‘ra o‘zim kerak ekanman-ku?”) kabi holatlarni tahlil qiling. Bu holatlar sizni qanchalik ta’sirlantirdi?

5. Nima deb o‘ylaysiz, bola va ota o‘z niyatlariga yetishadimi? Taxminingizni asoslang.
6. Hikoya oxiridagi duo mazmunini tushuntirishga harakat qiling. Sizni kattalar nima deb duo qilishgan?



Topshiriqlar

1. Hikoyada qo‘llangan ibora, maqollarni aniqlang va quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Iboralar	Maqollar
* * *	* * *

2. Asar qahramonlariga nega ism berilmagan? Javobingizni asoslashga urining. Qahramonlarga ism tanlang va nega shunday nom qo‘yganingizni izohlang.

Asar qahramonlari	Men taklif qilgan ism	Izoh
Bola	* * *	* * *
Ota	* * *	* * *
Aka	* * *	* * *
Ona	* * *	* * *
Uka	* * *	* * *
Opa	* * *	* * *

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 87 21/08/24 15:00



Ijodiy ish

Intervyu uchun savollar tayyorlang. Buning uchun xayolan asar qahramonlari bilan uchrashuv belgilang. Ular bilan hikoyadagi sizni o‘yga toldirgan, tashvishga solgan lavhalar xususida suhbatni tasavvuringizda jonlantiring. Kimga ko‘proq savol bergan va undan nimani so‘ragan bo‘lardingiz?

Kimga?	Savollar
Otaga	* * *
Onaga	* * *
Bolaga	* * *
Akaga	* * *
Odamlarga	* * *



Uyga vazifa

1. “Otamga nimadir bo‘ldi…” hikoyasini oila a’zolaringizga (ota-onangizga) o‘qib bering. Ularning hikoya haqidagi fikrlarini so‘rang.
2. Hikoya qanday tugashini istar edingiz? Hikoyaning yakunini qisqacha yozib keling.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 88 21/08/24 15:00



Tanishing: MIRTEMIR

O‘zbekiston xalq shoiri Mirtemir (Tursunov) 1910-yilning 30-mayida Qozog‘iston Respublikasining Turkiston viloyatiga qarashli Iqon qishlog‘ida tug‘ilgan. Shoir o‘zi dunyoga kelgan yurt haqida bunday yozadi: *“Tug‘ilgan joyim Qoratog‘ etaklari – ko‘klam toshqinlaridangina lablarini ho‘llab oluvchi soylar, qizg‘ish qirlar va cheksiz sayhonlar, onda-sonda uchraydigan muzbuloqlar, toshqinlardan paydo bo‘luvchi ko‘llar yurti. Men tug‘ilgan qishloqning kunbotarida qadim Turkiston shahri, janubida O‘tror, Boybaliq xarobalari va Yassi, Suyri qal’alaridan qolgan kultepalar, undan nari – Sirdaryo”.*

Atoqli shoir 1978-yili vafot etgan.

Topshiriq

Shoir tug‘ilib o‘sgan joy tasvirini ko‘z oldingizga keltiring.

O‘zingiz yashaydigan joyni qisqacha tasvirlang. Bunda Mirtemir uslubidan foydalanishingiz mumkin.

Mutolaadan oldin...

Aziz o‘quvchilar, tabiatni, unda kechadigan hodisalarni kuzatish sizga zavq bag‘ishlaydimi? O‘sha onlarda ko‘nglingizdan nimalar o‘tadi? So‘zlab bering.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 89 21/08/24 15:00

Zavqli mutolaa

Bulut

I

Ko‘k yuzida pag‘a bulut – oq bulut,
Oq bulutdan sut yog‘armi yoki qut?
Pag‘a bulut – yashil ko‘klam elchisi,
Havolarda yomg‘ir isi, sel isi.

Ko‘k yuzida dam qaldiroq, dam sukut,
Yog‘may o‘tma, pag‘a bulut – oq bulut!
Yog‘ib o‘tsang, tizza bo‘yi o‘t bo‘lur,
O‘t bo‘lur, ham sut bo‘lur, ham qut bo‘lur.

II

Ko‘k yuzida pag‘a bulut – oq bulut,
Bir qarasang – osmon to‘la oqquvlar.
Bir qarasang – baland qorli cho‘qqilar,
Bir qarasang – ko‘z ilg‘amas oq barqut.

Ko‘k yuzida yorug‘, oydin bir ro‘yo,
Usta rassom chizmish ajib manzara:
Tepa-tepa paxta – beg‘ubor, sara,
Kuzgi xirmonlarning akslari go‘yo.



Qut – baxt, boylik, baraka.

Oqquv – oqqush.

Barqut – ko‘chma ma’noda: yumshoq, mayin.

Keling, suhbatlashamiz

1. She’rda qaysi fasl nazarda tutilgan deb o‘ylaysiz? Buni qaysi so‘zlardan bilib oldingiz?
2. Siz oq bulutlarni hech kuzatganmisiz? Ular, sizningcha, osmonda qachon, qanday vaziyatlarda paydo bo‘ladi?
3. She’rdagi *“Ko‘k yuzida dam qaldiroq, dam sukut”* ifodasi anglatadigan ma’noga to‘xtaling. Har ikki holat: “qaldiroq” va “sukut”ning sabablari haqida mulohaza yuriting. Momaqaldiroq haqida nimalar bilasiz?
4. Shoirning *“Yog‘ib o‘tsang, tizza bo‘yi o‘t bo‘lur, O‘t bo‘lur, ham sut bo‘lur, ham qut bo‘lur”* ta’kidi ma’nosini izohlang. Nima deb o‘ylaysiz, pag‘a bulut bilan o‘t, sut va qut o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 90 21/08/24 15:00

5. She'rdagi *"oqquvlar"*ni (oqqush), *"baland qorli cho'qqilar"*ni, *"ko'z ilg'amas oq barqut"*larni qanday tasavvur qildingiz? Ularning pag'a bulutlarga qanday aloqasi bo'lishi mumkin?!
6. *"Usta rassom chizmish ajib manzara: Tepa-tepa paxta – beg'ubor, sara…"* satrlaridagi usta rassom, sizningcha, kim bo'lishi mumkin? Paxta uyumi bilan pag'a bulutlarning qanday o'xshash jihatlari bor?

Uyga vazifa

Siz pag'a bulutlarni yana nimalarga o'xshatgan bo'lardingiz? Tasavvurga, xayolga erk berib o'ylab ko'ring va yozing. O'xshatishlaringizni izohlang.

Zavqli mutolaa

O'ylab ko'ring

Hayotda bulbul, to'rg'ay kabi qushlarni yaqindan ko'rganmisiz? Ularning sayrashini eshitganda o'zingizni qanday his qilgansiz?

To'rg'ay


Yoz boshi, dalalar soz,
O'z ko'rkini yoymish yoz.
Chechaklarda hali noz,
Ko'llar to'la suqsur, g'oz.
Oq bulutlar cho'g'lanib,
Tongotar yallig'lanib,
Ko'l osmoni bug'lanib,
Ko'rinar go'yo sayoz.
Shu vaqt allaqaylardan,
Qaydam, qanday joylardan,
Dashtdanmi yo soylardan
Yangrab ketar sho'x ovoz,
Hech o'xshashi yo'q ovoz.

Tut bargi kesganlardan,
Suvga chim bosganlardan
Un chiqmas, tinglashar jim.
Kim u o'zi, qani, kim?
Qushlar ham qilmas parvoz,
Jonvorlar ham tinglardi.



Suqsur – bigizdum. O'rdaksimonlar oilasiga mansub qush.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 91 21/08/24 15:00



Bog‘bon ham, paxtakor ham,
Sholikor, chorvador ham,
Butun odam tinglardi,
Go‘yo olam tinglardi.
Qandoq tinmagur ovoz!..
Men chopib cho‘lga chiqdim,
Hech kim ko‘rinmas edi.
Kattakon yo‘lga chiqdim,
Hech kim ko‘rinmas edi.
Keyin boqdim osmonga:
Kuy taratib jahonga,
Ko‘k osmon cho‘qqisida,
Moviy rang ko‘zgusida
Bir nuqtada pirillab,
Bir nuqtada chirillab,
Nuqtaday bir qush uchar,
Go‘yoki behush uchar…
– Hoy, – dedim, – o‘zing kimsan,
Bunchalar betinimsan?
Javroqisan bunchalar,
O‘ynoqisan bunchalar?
Tinmay tushib o‘yinga,
Lol etasan kuyingga.
– Men-ku, men to‘rg‘ay, – dedi,
– Ko‘k yuzi soz joy, – dedi.
– Dema: chala ko‘rinar,
Butun dala ko‘rinar.
Ko‘k yuzida chirillab,
Yuz bir qo‘shiq to‘qisam,
Bir nuqtada pirillab,
Keng vodiyga o‘qisam,
Yomonmi, hoy sho‘x o‘g‘lon?
Hayotni maqtaganim,
Tongni ardoqlaganim,
Yomonmi, hoy sho‘x o‘g‘lon?
– Ha, tongni ardoqlagin,
Hayotni ham maqtagin,
Uchib, o‘ynayver, – dedim,
Kuylab, quvnayver, – dedim.

Keling, suhbatlashamiz

1. She’rdagi tong tasviriga e’tibor qiling: *“Oq bulutlar cho‘g‘lanib, Tongotar yallig‘lanib”.* Bulutlar nimadan cho‘g‘langan deb o‘ylaysiz?
2. She’rdagi: *“Ko‘l osmoni bug‘lanib, Ko‘rinar go‘yo sayoz”* tasviriga e’tibor qiling. Ko‘lning osmoni va uning sayoz ko‘rinishi tasvirini tushuntirishga urining.
3. She’rda noma’lum qush sayrog‘i ta’sirida jonivorlar tushgan holat ko‘rsatilgan satrlarga e’tibor qiling: *“Kim bu o‘zi, qani, kim? Qushlar ham qilmas parvoz, Jonvorlar ham tinglardi”.* Mazkur holatning sababi nimada?
4. Qahramonning to‘rg‘ayni kashf etishi tasviri berilgan *“Keyin boqdim osmonga: Kuy taratib jahonga, Ko‘k osmon cho‘qqisida, Bir nuqtada pirillab, Bir nuqtada chirillab, Nuqtaday bir qush uchar”* satrlarida takror qo‘llangan “nuqta” so‘zining ifodasini izohlashga urinib ko‘ring: bu so‘z qaysi satrda nimani ifodalayapti?
5. O‘g‘lon va to‘rg‘ayning dialogiga diqqat qiling. To‘rg‘ayning javobi sizda qanday hislarni uyg‘otdi?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 92 21/08/24 15:00

O‘ylab ko‘ring


Siz hech shudring (shabnam)ni kuzatganmisiz? U qayerlarda, qachon va qaysi payt ko‘p uchrashi haqida tabiiy fanlardan olgan bilimlaringizga tayanib javob bering.

Shudring

Tong belgi bergandanoq
O‘tib osma ko‘prikdan,
Jar ketiga chopardim,
Jar keti – o‘zga olam.
To‘ldirib chanoq-chanoq,
Go‘yo sutdek ko‘pikdan,
Tutgandek g‘oyib qo‘llar
Jilvagar ko‘zga olam.
G‘o‘za yaproqlarida
Ko‘katlarning bargida,
Chechaklarning bag‘rida
Yaltirar lak-lak inju.
Sho‘x soy qirg‘oqlarida,
Nihollar kurtagida,
Sal epkinda simobday
Qaltirar lak-lak inju.
Yaltirar suyri tepa,
Yaltirar qir uzunchoq.
Kelinlar taqinchog‘i,
Uzuk ko‘zlarimi yo?
Chor atrof sabzalarda
Jimir-jimir ko‘zmunchoq,
Bo‘y-bo‘y dilrabolarning
Suzuk ko‘zlarimi yo?
Yo‘q, bu giryon ko‘zlarning
Yarqiroq zamzamasi.
Kechasi onam tag‘in
Yig‘labdi-da, chamasi…

Lak-lak – ko‘p, son-sanoqsiz, behisob.

Suyri – tashqi shakli baliq sirtiga o‘xshash narsa, joy.



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 93 21/08/24 15:00



Keling, suhbatlashamiz

1. Shoirning *“Jar ketiga chopardim, Jar keti – o‘zga olam”* tarzidagi iqroriga diqqat qiling. Sizningcha, buning sababi nimada: u nega jar tarafga oshiqqan deb o‘ylaysiz?
2. She’rdagi *“To‘ldirib chanoq-chanoq, Go‘yo sutdek ko‘pikdan”* satrlarida gap nima haqida borayotganini o‘ylab ko‘ring. Ayting-chi, chanoqlar qaysi o‘simlikda bo‘ladi? Chanoqlardagi sutning ko‘pigiga o‘xshagan narsa, sizningcha, nima?
3. Shoirning *“Kechasi onam tag‘in Yig‘labdi-da, chamasi…”* tarzidagi g‘amgin xulosaga kelishi sababi haqida o‘ylab ko‘ring. Bu misradagi *ona* so‘zi orqali kim yoki nima nazarda tutilyapti: shoirning onasimi, ona tabiatmi, ona yurtmi? Fikringizni asoslashga urinib ko‘ring.
4. Oddiy jumla: “Sutdek ko‘piklar bilan chanoqlarni to‘ldirgan g‘oyib qo‘llar”ni she’rda ifodalangan quyidagi tasvir bilan taqqoslang. Oradagi farq va buning sabablari haqida mulohazalaringizni ayting.

   To‘ldirib chanoq-chanoq,
   Go‘yo sutdek ko‘pikdan,
   Tutgandek g‘oyib qo‘llar
   Jilvagar ko‘zga olam.

5. She’r bilan tanishdingiz. Shoirning tuyg‘ulari, tasavvurlari va so‘z qo‘llash mahoratini angladingiz. So‘zning qudratini tuydingiz. Endi o‘ylab ko‘rib, ayting-chi, oddiy odam va shoir qaysi jihati bilan farqlanarkan?



Topshiriq

Shoir shudringni bir necha narsaga tashbeh (o‘xshatish) qilgan. Ularni aniqlab, jadvalning “O‘xshatilayotgan narsa” qismiga yozib chiqing. “Izohlarim” qismiga nega aynan ularga qiyoslanayotganini yozing. Jadvalning “Mening o‘xshatishlarim” qismiga shudringni nimalarga o‘xshatishingizni (tasavvuringizni ishga solib) yozing.

O‘xshatilayotgan narsa	Izohlarim	Mening o‘xshatishlarim
* * *	* * *	* * *

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 94 21/08/24 15:00

Uyga vazifa


Kuzatuvlaringiz asosida tabiatda kechadigan biror jarayon, hodisa haqida o‘zingiz she’r yozib ko‘ring. Mashqingizni navbatdagi darsda sinfdoshlaringizga o‘qib bering va baholating.

Zavqli mutolaa

Baliq oviga chiqqanmisiz? Chiqqan bo‘lsangiz, o‘z tajribangizga, chiqmagan bo‘lsangiz, kattalardan eshitganlaringizga tayanib taassurotlaringizni ayting.

Baliq ovi

Bizning qishloq tog‘ bag‘rida,
Tog‘ bag‘rida – bog‘ bag‘rida.
Etagida chopqillar soy,
Yozda tiniq,
Kuzda tiniq,
Suvda quyosh yuz bir siniq.
Ko‘klam chog‘i soy butun loy,
Qirg‘og‘ida jambil, yalpiz,
Quchog‘ida balig‘i mo‘l.
O‘ltiraman ba’zan yolg‘iz,
Suvga tushmay ust-boshim ho‘l:
Qarmog‘imga ilinmaydi,
Suzmoqdami yo chopmoqda,
Suv tagida ne topmoqda?
Yuz tikilsang, bilinmaydi.
Tashlay qolsam non ushog‘in,
Yugurishib kelar talay,
Ulgurishib kelar talay.
Ilinsaydi ulkanrog‘i,
Eltar edim jon buvimga.
– Hay, rostdanmi, hay, baliqmi,
Tangalikmi, chaqalikmi?
– Balli! – derdi uquvimga…
Ilinmaydi lekin hozir.
Bundan keyin to‘r tashlayman,
Tashlasam ham zo‘r tashlayman,
Qo‘lga tushar bari oxir.



Keling, suhbatlashamiz

1. O‘ylab ko‘ring-chi, *“Yozda tiniq, Kuzda tiniq”* bo‘lgan soy nima uchun *“Ko‘klam chog‘i soy butun loy”* bo‘ladi? Mazkur tabiiy holatning sababini tushuntiring.
2. She’rdagi *“Suvda quyosh yuz bir siniq”* tasvirini sharhlang. Shunday holatni siz ham kuzatganmisiz? Sababiga qiziqqanmisiz? Sizni nimalar ajablantirgan?
3. She’rdagi *“Suvga tushmay ust-boshim ho‘l”* tasviri sababini izohlashga urinib ko‘ring. Shunday bo‘lishi mumkinmi? Yoki bu shoirning so‘z o‘yinimi? Nima deb o‘ylaysiz?
4. *“Hay, rostdanmi, hay, baliqmi, Tangalikmi, chaqalikmi?”* tarzidagi gaplar kimga tegishli? Buni qanday aniqladingiz? Bolaning baliq tutishidan kim ko‘proq xursand bo‘ladi deb o‘ylaysiz? Nima uchun?
5. To‘r bilan soydagi barcha baliqlarni tutmoqchi bo‘lgan lirik qahramon tabiatini izohlang. U shunday qilsa, nima bo‘lardi?

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 95 21/08/24 15:00

Tadqiq qiling

1. Baliq ovi uchun kerak bo‘ladigan jihozlar nomini yozing.
2. Baliq ovlashda bajariladigan ishlarni qadam-baqadam yozib chiqing.

Baliq ovlashda	
1-qadam	* * *
2-qadam	* * *
3-qadam	* * *
4-qadam	* * *
5-qadam	* * *

Qishlog‘im

Qishlog‘im, nechog‘lik suluvsan bugun,
Yashilga burkanib, yashnabsan shuncha.
Nechog‘lik to‘kissan, nechog‘lik to‘kin,
Meni o‘rab oldi xayol, tushuncha:
Qay qo‘raga kirsang, eshigi ochiq,
Bir nima tatiysan, qo‘ymas aslo och.
Qoraqumg‘on qaynar, yozilur chochiq,
Zog‘orami, so‘kmi, yovg‘on yo umoch.
Borini ayamas, barini qo‘yar,
Yupqami yo go‘ja, tolqon, qo‘g‘irmoch,
Qurutmi yo jiyda – o‘rtaga uyar,
Juda bo‘lmaganda qatig‘-u ko‘moch.
Agar so‘ygan bo‘lsa kecha bo‘rdoqi,
Qozonda qovurdoq, o‘rtada ko‘za.
Agar so‘ygan bo‘lsa uloq yo qo‘zi,
O‘ho‘, no‘xatsho‘rva yoki kulchatoy.
Juda qashshoq bo‘lsa, bor yaxshi so‘zi,
Shundoq yaxshi so‘zki, go‘yo sarimoy.

* * *

“…Yo ramazon” aytar edik ba’zi kez,
Shom payti, chang-tutun qishloq ko‘chasi,
Pul oshimi, to‘qoch – olib chiqar tez,
Tonggacha jaranglar oydin kechasi.

Kelin yo‘lin to‘sib machit oldida,
Aylanishar edik yoqib alanga.
Hammasi qolarkan go‘dak yodida,
Boshdan sochilguvchi turshag-u tanga.
Qish kuni to‘y-u bazm yo yayov uloq,
Yo nargi qishloqdan nogahon qorxat.
Esimda go‘daklik – unutilmas chog‘,
O‘sha kunlarimdan qalbimda bor xat…
Qishlog‘im, tag‘in ham suluvsan bugun,
Tag‘in ham suyuksan, mening ardoqlim,
Nechog‘lik to‘kissan, nechog‘lik to‘kin,
Dunyo turguncha tur, qo‘li qadoqlim.

To‘qoch – katta bo‘g‘irsoq yoki kulcha non.

Zog‘ora – makkajo‘xori yoki oq jo‘xori unidan yopilgan non.

So‘k, yovg‘on, umoch, yupqa, go‘ja, no‘xatsho‘rva, kulchatoy – ovqat turlari.

Ko‘moch – kepakdan tayyorlangan, issiq kulga pishiriladigan non.

Qo‘g‘irmoch – qozonda qovurilgan bug‘doy.



15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 96 21/08/24 15:00



Keling, suhbatlashamiz

1. Shoir deyarli bir xil so‘zlarni yonma-yon qo‘llab, qanday yangi ma’no chiqarganiga e’tibor qiling: *“Nechog‘lik to‘kissan, nechog‘lik to‘kin”. “To‘kis”* va *“to‘kin”* so‘zlarining ma’no ayirmasiga diqqat qiling. Satrlardagi qaysi so‘zlar *“to‘kis”likka* va qaysi so‘zlar *“to‘kin”likka* tegishli ekanini aniqlang. Tanlagan so‘zlaringizning mazmunini izohlashga urinib ko‘ring.
2. She’rdagi *“Qay qo‘raga kirsang, eshigi ochiq, Bir nima tatiysan, qo‘ymas aslo och”* misralariga yaxshiroq e’tibor qiling. Unda qishloq hayotiga xos jihatlar qay yo‘sinda aks etganini kuzating. *“Qo‘ra”* deganda nima nazarda tutilyapti deb o‘ylaysiz?
3. *“Qoraqumg‘on qaynar, yozilur chochiq, Zog‘orami, so‘kmi, yovg‘on yo umoch. Borini ayamas, borini qo‘yar”* misralarida o‘zbeklarga xos qanday sifatlar aks ettirilgani haqida so‘zlang.
4. Shoirning *“Juda qashshoq bo‘lsa, bor yaxshi so‘zi, Shundoq yaxshi so‘zki, go‘yo sarimoy”* tarzidagi ishonchiga to‘xtaling. Bu bilan shoir kimlarni tasvirlayapti deb o‘ylaysiz?
5. She’rning *“Hammasi qolarkan go‘dak yodida, Boshdan sochilguvchi turshag-u tanga. Qish kuni to‘y-u bazm yo yayov uloq, Yo nargi qishloqdan nogahon qorxat”* satrlarida nimalar haqida gap ketyapti deb o‘ylaysiz? Har birini izohlang.
6. Shoirning qishloqqa qarata *“Dunyo turguncha tur, qo‘li qadoqlim”* tarzidagi murojaatini izohlashga harakat qiling. Qishloq *“qo‘li qadoqli”* bo‘lishi mumkinmi? Bu o‘rinda kimlar ko‘zda tutilyapti deb o‘ylaysiz? Asoslang.
7. Hozirgi voqea yoki manzaralarning qaysi birini katta bo‘lganingizda eslashingiz mumkin? Nega ular bir umr xotirangizda qoladi deb o‘ylaysiz?



Uyga vazifa

Quyida berilgan topshiriqlardan birini tanlang va bajaring.

1. “Yo ramazon” qachon, nima uchun aytiladi? Siz ham aytganmisiz? Uning so‘zlarini yozib keling va sinfda ijro etishga tayyorgarlik ko‘ring.
2. Bobo-buvilaringiz, ota-onangizdan bolalik xotiralarini so‘rang. Ayrim qiziqarli lavhalarni yozib oling.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 97 21/08/24 15:00

MUNDARIJA

Adabiyot olamiga sayohat 3

Abdulla Oripov 8
“Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”, “Miltiraydi mitti yulduz”, “Burgut”, “Tilla baliqcha” she’rlari

Ertaklar 15
“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi

Hadislar 28
Imom al-Buxoriy hayoti va faoliyati

Abdusaid Ko‘chimov 39
“Boychechak”, “Hovlidagi maydoncha” hikoyalari

Matnazar Abdulhakim 56
“Darsdan so‘ng...” she’ri

Sharq hikoyat va rivoyatlari 61
“Ibn Sino shogirdlari”, “Non hurmati”, “Ota vasiyati”, “Yaxshilik unutilmaydi”

Hamza Imonberdiyev 68
“Ohu”, “Turnalar”, “G‘anicha” she’rlari

Isajon Sulton 75
“Otamga nimadir bo‘ldi...” hikoyasi

Mirtemir 89
“Bulut”, “To‘rg‘ay”, “Shudring”, “Baliq ovi”, “Qishlog‘im” she’rlari

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 98 21/08/24 15:00

O‘quv nashri

Qozoqboy Yo‘ldoshev, Saodat Qambarova, Dilfuza To‘xliyeva, Nazokat Yusufjonova,
Orif Olimjonov

Adabiyot
5-sinf
I qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

“Novda Edutainment”
Toshkent – 2024

Muharrir:	*Xurshidbek Ibrohimov*
Badiiy muharrir:	*Mixail Zaimbetov*
Musahhih:	*Orifjon Madvaliyev*
Rassomlar:	*Sevilina Mamedova, Rano Ismailova*
Kompyuterda sahifalovchi:	*Rustamir Mirakov*

Nashriyot litsenziyasi AI №158.
26.07.2024-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/8. Kegli 12 n/shponli.
“Arial” garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Mashinada yengil bo‘rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m^2 qog‘oz.
Shartli b.t. 11,63. Hisob-nashriyot t. 9,61.
Adadi 635 186 nusxa. Buyurtma raqami 24-299.
“O‘zbekiston” NMIUda chop etildi.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 99 21/08/24 15:00

Darslik holati haqida ma’lumot

№	O‘quvchining F. I. O.	O‘quv yili	Darslikning olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o‘quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to‘ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a’lo darajada.
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko‘chmagan.
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba’zi sahifalari yirtilgan.
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to‘liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba’zi sahifalari yo‘q, bo‘yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas.

15 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 100PG.indd 100 21/08/24 15:00